

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**G.R. XOLMATOVA,
Sh.T. MIRZAKARIMOVA**

IJTIMOIIY-IQTISODIY REJALASHTIRISH

*Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
kasb-hunar kollejlarining 3380103 – «Yuristprudensiya»,
3380103 – Ijtimoiy muhofaza qilish huquqshunosi mutaxassisligi
o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti
Toshkent – 2014

UO‘K: 338(075)

KBK: 66.3

X 72

Xolmatova G.R.

X 72 Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / G.R.Xolmatova, Sh.T.Mirzakarimova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi; O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. — 216 b.

UO‘K: 338(075)

KBK: 66.3(50‘)6

Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Davlat ta‘lim standarti talablari asosida tayyorlangan. Respublikamizda mustaqillikka erishilgan ilk davrdan boshlaboq Respublika hukumati tomonidan ijtimoiy muhofaza tizimini tashkil etishga e‘tibor qaratilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari va turlari o‘ziga xos tarzda shakllantirildi.

Bu tadbirlar bosqichma-bosqich tarzda rivojlantirilayotgan bo‘lib, pirovardida barcha tadbirlarni tashkil etishning zahirida rejalashtirish va zarur chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish masalasi orqali ishlar tashkil etilmoqda. Har bir sohada Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish davlat iqtisodiyotini tartibga solish hamda boshqarish uchun qo‘llaydigan muhim dastaklaridan biri bo‘lib, bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida kutilayotgan maqsadlarga erishish uchun muqobil variantlarni qiyosiy baholash asosida maqbulini tanlab olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisoblanadi.

O‘quv qo‘llanma mazmunini bayon etishda Respublika Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Respublika qonunlari va boshqa me‘yoriy hujjatlardan, keyingi yillarda mamlakatimizda nashr etilgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalardan, Respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid statistik materiallardan keng foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanma o‘rta maxsus kasb-hunar kolleji o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, shuningdek, undan bu fan bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

D.Zoirov — Toshkent viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i,

I.Rafiqov — O‘zBIITI bo‘lim boshlig‘i, i.f.n. katta ilmiy xodim,

A.Toshpo‘latov — 2-Toshkent yuridik kolleji «Maxsus fanlar» kafedrasini mudiri.

KIRISH

Barqaror jamiyat uchun bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yoʻnalishi zaruriy holatdir. Bozor munosabatlari qonuniyatlari davlat boshqaruvi organlaridan ijtimoiy himoya masalalariga oʻziga xos tarzda yondashuv boʻlishini talab etadi. Bu tadbirlar inson manfaatini, himoyasi, uning turmush darajasi, muammosidan kelib chiqib shakllantirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oʻzbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yoʻnalishlardan biriga, yaʼni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Oʻzbekistonning oʻz istiqloq va taraqqiyot yoʻlining yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir.

Oʻzbekistonda ijtimoiy himoyani amalga oshirishning asosiy manbai davlat budjeti, ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasi, korxona va jamoat tashkilotlari ajratayotgan mablagʻlardan tashkil topadi. Aholini ijtimoiy himoya qilishda barcha budjetdan tashqari shakllantirilgan jamgʻarmalar va xayriya jamgʻarmalarining roli katta.

Bu xususida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov taʼkidlaganidek: «Iqtisodiyotimizning tobora mustahkam boʻlib borishi oldimizda turgan barcha dolzarb, oʻzining yechimini kutayotgan muammolarni yechishga, shular qatorida ishchi va xizmatchilarning ish haqini, keksalarimizning pensiyalarini, talabalarning stipendiyalarini, aholining yordamga muhtoj qatlami uchun nafaqa pullarini oshirishga, umuman ijtimoiy masalalarni izchillik bilan hal etishga olib keladi». Aholining ijtimoiy himoya qilinishiga ehtiyoji yuqori boʻlgan — nogironlar, yolgʻiz keksalar, boquvchisini yoʻqotganlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari kabi kategoriyaga mansub aholi qatlamini ijtimoiy muhofaza qilish va qoʻllab-quvvatlash sohasidagi kuchli chora-tadbirlar oʻtkazilishi faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning gʻoyat muhim yoʻnalishidir. Mamlakatimizda yolgʻiz pensionerlar va nogironlarning uyiga borib ijtimoiy-maishiy xizmat koʻrsatadigan maxsus ijtimoiy yordam boʻlimlari barpo etilgan. Bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida-

gi asosiy vazifalardan yana biri yangi turdagi ijtimoiy yordam tizimining tashkil etilishidir. Birinchidan, bozor iqtisodiyoti-ga bosqichma-bosqich o'tish tamoyiliga asoslanib, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan ijtimoiy yordam tizimini yaratish; ikkinchidan, ijtimoiy yordam tizimida xususiy jamg'armalarni tarkib toptirish; uchinchidan, ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirishda davlatning rolini belgilash va uni tizimli rivojlantirishning tashkiliy-huqqiy hamda iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishdan iborat edi. Ushbu rejalashtirilgan tadbirlar doirasida mamlakatimizda bir qancha amaliy ishlar olib borildi va buning natijasida Respublikamizda o'ziga xos ijtimoiy muhofaza tizimi shakllantirildi. Bu tadbirlarning amalga oshishiga va jamiyatimizning hayot tarzining ajralmas qismiga aylanishiga xalqimizga xos bo'lgan va asrlar davomida shakllangan oliyjanoblik, bag'rikenglik, g'amxo'rlik kabi tuyg'ular asos bo'lib xizmat qilmoqda.

I bob. MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BELGILASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Reja:

1. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari rivojlanishini belgilashning asosiy yo'nalishlari va shakllari.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini tuzish mohiyati.
3. Bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda mutanosibliklar.
4. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi.

1.1. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari rivojlanishini belgilashning asosiy yo'nalishlari va shakllari

Har bir mamlakat o'zining iqtisodiyotini shakllantirgani holda rivojlanish dasturiga va istiqbollarini belgilab olish yo'nalishlariga ega bo'lib, bu uning yaqin kelajakda va uzoq istiqbolda qanday tarzda rivojlanishiga, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini aniqlab olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini hisobga oladigan yaqin kelajakka mo'ljallangan choraklik, bir yillik, o'rta muddatli va uzoq istiqbolga mo'ljallangan rivojlanish strategiyalari mavjud bo'lib, u o'z ichiga mamlakatni kompleks ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dasturlarini oladi. Bu jarayon, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reja va dasturlari dastlab Respublika hukumati tomonidan tegishli vazirliklar bilan birgalikda ishlab chiqilishi nazarda tutilib, ular yaqin kelajakka qaratilgan qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategik dasturlarda o'z askini topadi va O'zbekiston Respublikasining boshqaruv tashkilotlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning rejasini ishlab chiqish haqidagi qarori qabul qilinishi bilan boshlanadi. Shundan keyin hukumat qarori bilan vazirliklar va idoralardan mas'ul ijrochilar belgilangan holda qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun rivojlanish rejasini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ro'yxati va muddatlari belgilab olinadi.

Vazifalar davomiyligida Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot vazirligi bilan hamkorlikda rivojlanish dasturi va rejasini ishlab chiqishning birinchi bosqichini amalga oshiradi. Hukumat va-kolatli bo'linmalari va Iqtisodiyot vazirligi, hududiy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda tarmoqlarning o'ziga xos xususiyat-lari, ularning rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda aniq maqsadlar, asosiy vazifalarni va dasturlarni shakllantirish hamda asoslash yo'li bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbollarini belgilab olishning dastlabki rejalarini ishlab chiqadilar.

Ikkinchi bosqichda rivojlanish dasturi va rejalashtirish tadbir-larini ishlab chiqish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tashkil etilishida o'zaro kelishuvni va ketma-ketlikni ta'minlash maqsa-dida Iqtisodiyot vazirligi boshqa vazirliklar, idoralar va korxo-nalar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti va rivojlanishining oxirgi 3–5 yil davomidagi makroiqti-sodiy ko'rsatkichlarining bajarilishidagi muammoli jihatlar va ular bilan bog'liq savollarni aniqlashga qaratilgan kompleks tahlilni amalga oshiradilar.

Kompleks tahlil quyidagilarni ochib berishi zarur:

- ilgari qabul qilingan va tasdiqlangan davlat rivojlanish das-turlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan hukumat qarorlari-niing ijro etilish darajasi tahlili;

- qarorlar bajarilishi jarayonida aniqlangan mavjud tur-li darajadagi juz'iy nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha ko'zda tutilgan huku-mat qarorlarining qabul qilinishi;

- iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishlab chiqarish quvvatlari, iqti-sodiyot rivojlanishining ichki va tashqi tendensiyalari, iqtisodiy siyosat va davlat me'yorlashtirish tizimlaridagi o'ziga xos jihatlar;

- tarmoqlar doirasida korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatlari tarkibi va o'sish yoki kamayish dinamikasi-niing, shuningdek, shu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning jahon iqtisodiyoti rivojlanishi darajasi bilan taqqoslanishi;

- tarmoqlar doirasida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha korxonalarning maqsadlari va imkoniyatlarini, ularni eksport-ga chiqarish imkoniyatlari va haqiqiy holati, ular quvvatlarining texnik jihatdan ta'minlanish darajasi.

Uchinchi bosqichda qisqa va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish, uzoq davrga mo'ljallangan maqsadlarni va ustuvorliklarni aniqlash hamda ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Birinchi olti oylik muddat davomida Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa iqtisodiy organlar, ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda qisqa va o'rta muddatli yaqin istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, ustuvorliklari va maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini tayyorlashning to'rtinchi bosqichida davlatning makroiqtisodiy rivojlanish prognoz ko'rsatkichlari va variantlarini, maqsadli yo'nalishlarni va rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar hal etiladi. Prognoz variantlarida quyidagi muhim vazifalar hisobga olinadi:

- iqtisodiyot rivojlanishining maqsadlari va ustuvorliklari;
- respublika hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reja va dasturlari, ssenariylari ishlab chiqilishi, baholanishi va tahlili;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishi;
- tarkibiy va investitsion siyosatning yo'nalishlari;
- mahalliy investitsion dasturlar va ularga moddiy texnik resurslarni jalb etish yo'nalishlari;
- tadbirkorlik va ularga xizmat qiluvchi infratuzilma rivojlanishi, ular uchun bozor muhiti kabi muhim shart-sharoitlarni shakllantirish darajasi;
- respublikada iqtisodiyotning ijtimoiy chegaralari;
- yangi ish o'rinlarini tashkil etish, ish bilan bandlikni optimallashtirish va iqtisodiyotda demografik yukni kamaytirish;
- ilmiy texnik taraqqiyot rivojlanishi va innovatsion yangiliklarni joriy etish tizimi.

Istiqbolli rivojlanish dasturlarini va ssenariyli makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib, iqtisodiy organlar tomonidan makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlanishi uchun qilinishi lozim bo'lgan vazifalar hisoblanadi.

Mazkur bosqich vazifalarini amalga oshirish uchun markaziy iqtisodiy organlarning ilmiy ekspertlar, rahbar xodimlar ham-

da tajribali mutaxassislari tarkibida tashkilotlararo ishchi guruh tashkil etiladi.

Tashkilotlararo ishchi guruh vazifalariga prognozning bir qancha ssenariyli variantlarini ishlab chiqish va har xil maqsadli ustuvorliklarini hamda siyosat vositalari o'zgarishi negizida ularning muvozanatini ta'minlash kiradi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlangan maqsadli yo'nalishlar, ustuvor jihatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalari, iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari hamda makroiqtisodiy prognoz variantlari ko'rib chiqilganidan keyin belgilangan tartibda asosiy yo'nalishlar sifatida vazirliklarga, tashkilotlarga, mahalliy ma'muriyatlarga, korxonalarga yetkaziladi.

Keyingi bosqich maqsadli va tarmoq ko'rsatkichlarini amalga oshirish shartlari va indikatorlarini hamda rivojlanish dasturlarini aniqlash Iqtisodiyot vazirligi va tarmoq vazirliklari, tashkilotlar va korxonalar iqtisodiy siyosatning ehtimolli yo'nalishlarini va hukumat yo'nalishlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda o'z rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlaydilar hamda rejalashtirilayotgan davr uchun o'z faoliyatlari haqida ularni umumlashtirish uchun hududiy va tarmoq organlariga taqdim qiladilar. Boshqaruvning hududiy va tarmoq organlari korxonalar bajarmoqchi bo'lgan ishlarini umumlashtiradilar va keyinchalik Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadilar.

Keyingi bosqich makroiqtisodiy prognozlarni maqsadli va tarmoq ko'rsatkichlari hamda rivojlanish dasturlari bilan muvofiqlashtirish bo'lib, bu bosqichda Iqtisodiyot vazirligi makroiqtisodiy bashoratlarni real sektorning tarmoq tashkilotlari, hududiy organlar, vazirliklar va ijtimoiy soha tashkilotlari rivojlanish prognozlari bilan muvofiqlashtirish va integratsiyalashtirishga oid ishlarni amalga oshiradi. Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi hamkorlikda davlat ehtiyojlarining resurs ta'minotini tavsiflovchi iqtisodiy muvofiqlashtirish ko'rsatkichlar tizimini hisobga olgan holda, keyingi yilgi davlat budjeti loyihasi va bashorat ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini amalga oshiradilar.

Keyingi bosqich Vazirlar Mahkamasiga ko'zda tutilayotgan konseptual mazmundagi reja va dasturning oxirgi variantini taq-

dim etilishi va muhokama qilinishi bo'lib, Birlashgan hay'atda ko'rib chiqilganidan keyin Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshirish uchun taqdim etish bilan davom ettiriladi. Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlisga va Oliy Majlis senatiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dasturini Davlat budjeti bilan bir vaqtda kiritadi. Oliy Majlisda rivojlanish dasturi ko'rib chiqilganidan keyin ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.

1.2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini tuzish mohiyati

Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilishi davlatning iqtisodiyotni tartibga solish hamda boshqarish uchun qo'llaydigan muhim dastaklaridan biri bo'lib, davlatning bu ko'rinishdagi boshqaruv shakli dunyoning barcha davlatlarida qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasida ham bozor tamoyillariga asoslangan Iqtisodiyotga o'tishi munosabati bilan ma'muriy rejalar tuzish va ma'muriy boshqaruv tizimidan voz kechganligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlariga ega bo'lishi talab etiladi. Davlat boshqaruvida ushbu ko'rinishdagi dasturlarning qabul qilinishi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimining hamohang rivojlanishida muhim va ajralmas tarkibiy qism sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi. Shunday sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini tuzish jarayonida bozor mexanizmiga asoslangan iqtisodiy dastaklarni qo'llash va ulardan foydalanish davlat boshqaruv organlarining asosiy maqsadi bo'lib qolishi talab etiladi.

Umuman olganda, rejalashtirish bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida kutilayotgan maqsadlarga erishish uchun mavjud boshlang'ich ma'lumotlarni tahlil qilishi va qayta ishlash asosida, o'z oldiga maqsadlarning ilmiy yechimini qo'yish hamda aniqlash orqali ular ichidan muqobil variantlarni qiyosiy baholash bilan eng maqbulini tanlab olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni hisoblanadi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish dasturlari o'zida barcha ishlab chiqarish omillari hamda tabiiy-ashyoviy va moliyaviy-iqtisodiy oqimlarning balansi o'rtasidagi bog'liqligini saqlash orqali maqsad va vazifalarga erishish uchun mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashni o'zida aks ettir-

gan hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan muhim hujjati sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda shuni nazarda tutish kerakki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari va rejalarining mazmuni ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda uni quyi tizimdagi organlarga bajarish uchun yetkazish bilangina cheklanib qolmasdan, balki aniq maqsad va natijalarga erishish uchun ta'sirchan vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy asoslangan maqsadlar zanjiri hisoblanadi. Ular o'z ko'rinish va mazmuniga ko'ra direktiv, indekativ hamda strategik shakllarda tuziladi.

Direktiv rejalar bu o'z mazmuniga ko'ra so'zsiz bajarilishi zarur bo'lgan buyruq mazmunidagi rejalar hisoblanib, u ma'muriy boshqaruv tizimining usuli sifatida ko'rinish hosil qil-sada, bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlar boshqaruv tajribasi ko'rsatishicha, bu usuldan ham zarur va kerakli jarayonlarda bozor mexanizmiga xos bo'lgan dastaklar bilan birgalikda foydalanish orqali ma'lum bir yutuqlarni ta'minlash mumkin.

Indikativ rejalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (indikatorlari) tizimini ishlab chiqishga asoslangandir. Uning umummilliy ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni, maqsadni belgilashni, prognozlashtirish, budjetlash, dasturlash, kontraktatsiya hamda makro, mezo va mikro darajada qarorlarni kelishishning boshqa tartibotlarini, rejani amalga oshirishda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oluvchi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solishni, uning bozor va nobozor yo'li bilan o'zini o'zi tartibga solishini uyg'unlashtiruvchi iqtisodiyotni boshqarish davlat va nodavlat subyektlarining manfaatlari va faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida ta'riflash mumkin.

Indikativ rejalashtirishning bir shakldan boshqasiga o'tishi uning yetuklik darajasi oshishini, barcha tegishli tartibga solish institutlari o'zaro harakatini yo'lga qo'yish choralari nazarda tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda indikativ rejalashtirish shakllarining evolutsiyasi («konyunktura» — «tarkibiy» — «strategik») o'n yilni egalladi. O'zbekistonda hozircha gap faqat konyunktura shaklining unsurlari haqida borishi mumkin, bu davlat-

ning so'nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy liberal yo'naltirilganligiga mos keladi. Shunday qilib, indikativ rejalashtirishni «legallashtirish» va uning tarkibiy shaklining qaror topish evolutsiyasi respublikamizda xo'jalik mexanizmini rivojlantirishning eng zarur yo'nalishlari hisoblanadi. Iqtisodiy muammolar hal etilib, O'zbekiston iqtisodiyotini texnologik va institutsional modernizatsiyalash nihoyasiga yetgach indikativ rejalashtirishning yanada erkin (strategik) shakliga o'tish zarur.

Strategik rejalar — uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi bo'lib, u o'zida istiqbolli rivojlanishni boshqarish mazmunini aks ettiradi.

Iqtisodiy dasturlar esa ba'zan maqsadli deb ataladigan, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilishni ifodalaydi: kompleks (strategik rejalashtirishning oliy shakli). Dasturning bunday turi rejaga yaqin, ammo bu reja emas, negaki dastur, birgina muammoni yechishga, birgina maqsadga erishishga (alo-hida strategiyani ishlab chiqish) yo'llangan.

Dastur, rejaga nisbatan, yanada batafsilroq ishlab chiqiladi, unda vazifalar, maqsadlar aniq ifodalanib, belgilangan maqsadga olib boruvchi barcha asosiy tadbirlar, ish usuli ko'zda tutiladi. Ularni amalga oshirish muddati va ijro etuvchilar, zaruriy manbalar va ularni olish manbai aniqlanadi. Mamlakatning zaruriy, jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tezlik bilan yechish uchun boshqalarga nisbatan ko'proq kompleks iqtisodiy dasturlardan foydalaniladi. Makroiqtisodiy strategik rejalashtirishdagi dastur deganda, ilmiy tarzda oldindan ko'rish — tadbir maqsadlari va tizimlarini to'g'ri aniqlashga asoslangan va manbalari, bajarilish muddatlari hamda amalga oshiruvchilari bo'yicha o'zaro kelishilgan bu maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan 5, 10, 15 va undan ko'proq yildan keyingi aniq muddatli qandaydir muayyan obyekt boshqaruvining holati tushuniladi. Hech bir xo'jalik, strategik qaror ehtimoliy oqibatlarining oldindan ko'ra bilmasdan, strategik ustuvor yo'nalishlarni va ularni amalga oshirishning aniq maqsadga yo'naltirilgan harakatlarini tanlamasdan turib qabul qilinishi va bajarilishi mumkin emas. Buning uchun mamlakat va uni tashkil etuvchi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish, strategik va

indikativ rejalashtirish, dasturlash kabi sinab ko'rilgan vositalardan foydalaniladi. Bu bilan davlat nafaqat iqtisodiy hayotni umumiy tartibga solish funksiyasini, balki mamlakatni rivojlantirish istiqbollari va uning jahon xo'jaligidagi o'rnini hisobga olgan holda tarkibiy siljishlar va innovatsion rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi o'zining strategik innovatsion funksiyasini ham bajaradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'p qirrali, ko'p omilli va ziddiyatli bo'lib, shuning uchun prognozlar va rejalar odatda ehtimoliy o'zgarishlarni baholash uchun ko'p variantlidir. Bu Iqtisodiy tizimning rivojlanishidagi o'tish, tanglik bosqichlari sharoitida juda muhim, chunki bunda u beqaror bo'lib qoladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va dasturlarini tayyorlashda hukumat va boshqaruv organlari bo'lgan turli Respublika tashkilotlarining vazifasi mavjud bo'lib, ular o'ziga xosligi va vazifalarining tarmoqqa mos darajada taqsimlanganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qisqa va uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqishga doir hukumat qarorlari bajarilishini nazorat qilishi va reja variantlarini tanlash kabi vazifani bajarsa, Iqtisodiyot vazirligi o'rta muddatli istiqbol uchun iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi tahlili va prognozini ishlab chiqishga o'z imkoniyatlarini sarflaydi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- iqtisodiyotning resurs va ishlab chiqarish salohiyatini baholash va rivojlanish istiqbollarini tadqiq qilish;
- jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil etish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlaridagi iqtisodiy o'sish va ichki talab rivojlanishini baholash;
- inflyatsiya darajasi va antiinflyatsiya siyosatining ko'rsatkichlarini kuzatib borish va ishlab chiqish;
- tashqi talab rivojlanishini va tashqi iqtisodiy faoliyatni baholash.

Markaziy Bank asosiy pul-kredit agregatlari va pul-kredit siyosatini asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini, bank tizimi aktiv va passiv balans ko'rsatkichlarini, monetarizatsiya darajasini tayyorlaydi.

Moliya vazirligi Davlat budjetining daromad, xarajatlari va budjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari: budjetning daromad va xarajat ko'rsatkichlari, davlatning tashqi qarzi, budjet defitsiti va uni moliyalashtirish bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi demografik rivojlanish, mehnat resurslari, bandlik, ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari va ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari: aholi soni va mehnat resurslari, bandlik darajasi, turmush darajasi bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari viloyatlar va Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, mahalliy budjetning shakllanishi va budjetdan moliyalashtirishga talabnomalar prognozini amalga oshiradilar.

Ijtimoiy soha vazirliklari hamda boshqa vazirlik va tashkilotlar rivojlanishning mos yo'nalishlari bo'yicha tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Konsernlar, kompaniyalar, uyushmalar, hissadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar rejalashtirayotgan davr uchun ishlab chiqarish, xo'jalik yuritish va korxonaning moliyaviy faoliyati rivojlanishiga oid tahliliy va prognoz hujjatlarini tayyorlashni amalga oshiradi.

Tashkilotlararo ishchi guruh o'rta muddatli rejani ishlab chiqishda iqtisodiy organlar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida faoliyat yuritadi.

1.3. Bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda mutanosibliklar

Bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda mutanosibliklar bozor sivilizatsiyaning eng ulkan yutuqlaridan biridir. Faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib beradi, boqimandalikka xotima beradi, tashabbuskorlik va ish-bilarmonlikni rivojlantira oladi, rag'batlantirishni va yo'qotilgan xo'jayinlik tuyg'usini qayta tiklaydi. Shunday ekan, bozor ho-

zirgi dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimlarining samarali ishlashini ta'minlovchi yuz millionlab korxonalar va millionlab kishilar ishini tashkil qiluvchi hamda muttasil iqtisodiy o'sishni ta'min etuvchi vositadir.

Iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan qaraganda bozor nima? Bu eng avval ayirboshlash kategoriyasi bo'lib tovar-pul munosabatlarining yaxlitligidir.

Bu shuni ko'rsatadiki, tovar ishlab chiqaruvchilar mustaqil ravishda bozor talabiga qarab tovarlarni yaratadilar. Tovar egasi va xaridor bir-biriga ro'baro' keladi. Sotuvchi bozorga o'z tovarini yoki xizmatini xaridorga taklif etadi. Xaridor, esa o'z iste'moli uchun tovar yoki xizmatni xarid qiladi. Bozor iqtisodiyotidagi narxlar haqida qandaydir davlat idoralari bosh qotirib o'tirishmaydi ularni sotuvchi bilan xaridorning erkin o'zaro bitishuvi belgilaydi. Sotuvchi tovarni qimmatroq sotishdan manfaatdor, xaridor esa arzonroqqa sotib olishdan manfaatdor. Pirovard natijada narxni talab bilan taklifning nisbati belgilaydi. Tovar almashuvi bevosita emas, pul vositasida ayirboshlanadi. Pul bozor iqtisodiyotida muhim nufuzli jarayonni bajaradi.

Bozor jarayonida ishlab chiqarishni tashkil etish shakl va usullarini takomillashtirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga hech kim majbur etmaydi. Bu haqda bosh qotirishga ishlab chiqaruvchilarning raqobati «majbur» qiladi. Aks holda ular xonavayron bo'ladilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni tashkil etishning barcha asosiy vazifalari stixiyali tarzda hal etiladi. Ammo stixiyalilik bilan tartibsizlik aslo aynan bir narsa emas. Million-million kishilar birlari bilan kelishib olmasdan, umumdavlat harakat rejasiga ega bo'lmagan holda har kuni ishga kelib aynan chindan ham jamiyat uchun kerakli bo'lgan faoliyat turini amalga oshiradigan iqtisodiy tizimni tartibsiz deb hisoblash mumkinmi?

Gap shundaki, bozor stixiyali o'z ichki qonunlariga ega. Bunda sodir bo'ladigan hamma ko'rinishidan, hatto oqibatini sira bilib bo'lmaydigan jarayonlar (masalan, narxlarni o'zgarib turishi) o'z sabablariga ega va buni iqtisod fanida tushuntirib berish mumkin. Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiy monopoliyalarni inkor etadi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlari:

a) mulk egalari, ayrim iste'molchilar yoki guruhlar, yollanib ishlovchilar yer egalari, sarmoyador sohibblar, ishlab chiqarish vositasi egalari;

b) firma, korxona, jamoa xo'jaliklari, ular band bo'lgan tadbirkorlar;

d) davlatning barcha muhokama — idora tashkilotlari.

Bozor iqtisodiyoti bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bunday iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanadi. Uning negizida tovar va pulning turli shakllariga asoslangan harakat yotadi. Lekin ijtimoiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni tashkil etishda bozor shaklining zarur shart-sharoitidir. U yoki bu iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish borasidagi vazifalarni odamlar guruhlar va mintaqalar o'rtasida taqsimlamasdan turib, erkin almashuvning bo'lishi mumkin emas.

Bozor mavjud bo'lishining birinchi va asosiy sharti erkin tadbirkorlikdir. Tovar ishlab chiqaruvchi mustaqil ravishda (bozor konyunkturasi va o'z imkoniyatlariga tayanib) ishlab chiqarishning tuzilishi va hajmini belgilashi xo'jalik yuritish shakli va usullarini takomillashtirishi lozim.

Demak, iqtisodiy faoliyat erkinligi bu tashabbuskorlik va erkinlik uchun keng imkoniyat yaratadi. Bunda sotuvchi va xaridor bir-birini bozorda o'zlari topadilar va narx ustida kelishadilar. Shunday ekan, tadbirkorlik erkinligi bu aslo odamlar talablari va raqobatidan emas, balki davlatning xo'jalik faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri aralashuvidan xoli bo'lgan erkinlikdir. Moliyaviy ahvolni yaxshilashva bozor raqobati ishlab chiqaruvchidan jamiyatga zarur mahsulotni ishlab chiqarishga boshqaruv organlarining buyruq va qarorlariga nisbatan ancha yaxshiroq ta'sir qiladi..

Bozor iqtisodiyotining asosiy belgisi bu ham bo'lsa, iqtisodiy plyuralizmdir. Bu degan so'z mulk shakllari va xo'jalik yuritishning turli-tuman bo'lishidir. Mulk shakllari turli-tuman bo'lib, biron-ta mulk shaklining hukmron bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Xo'jalik ham yakka tartibda, jamoatchilik, hissadorlik (aksionerlik) asosida ish yuritadi.

Bozor tadbirkorlik faoliyatining xilma-xil va teng bo'lishini, shuningdek, ular o'rtasida erkin raqobat bo'lishini taqozo qiladi. Demak, bozor iqtisodiyoti mexanizmida raqobat asosiy o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganligidan, u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi va antimonopol yo'nalishiga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining yana bir muhim belgisi narxlarning erkinlashuvidir. Narx bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining erkin kelishuviga bog'liq bo'ladi. Madaniylashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat natijasida manfaatlar to'qnashuvi vujudga keladi, shuningdek, bozor obyektlari o'z faoliyatlarini ham muvofiqlashtirishga harakat qiladilar. Aks holda ish yurishmay inqirozga uchraydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad olish cheklanmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining tabaqalashuvi yuz beradi. Shu jihatdan iqtisodiy subyektlarning oladigan daromadlari turmush darajasi va jamiyatdagi mavqei bir xil bo'lmaydi. Shunga asosan, hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarda bozor iqtisodiyoti deganda bozor xo'jaligi subyektlari iqtisodiy xatti-harakatlarining mustaqil ravishda yuz berishi va ularning tovar-pul mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib muvofiqlashuvi tushuniladi.

Bozor iqtisodiyotida yuqorida tilga olingan belgi va tartiblar bilan birga barcha hozirgi zamon iqtisodiy tizimlarga xos bo'lgan bir qator shart-sharoitlar bo'lishi taqozo qilinadi. Bular asosan, ilg'or texnologiya va yangi texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvidir.

Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining markaziy kategoriyasi hisoblanadi. U iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham, barcha mamlakatlar tajribasida ham qo'llaniladigan ilmiy-amaliy tushunchadir.

Bozor bu sotuvchilar va xaridorlarning tovarlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlari, ularning o'zaro aloqadorlaridir. Demak, tovarlarni sotish borasidagi iqtisodiy aloqalar va munosabatlarning majmui sifatida bozor, mehnat taqsimoti rivojlangan har qanday iqtisodiy tuzumning eng

muhim tarkibiy bo'lagidir. Tovar almashuv munosabatlari tuzilishida iste'mol bozori markaziy o'rinni egallaydiki, unda inson ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi moddiy buyumlar va xizmatlardan iborat iqtisodiy ne'matlar sotiladi. Jamiyatda bozor obyektlarining ko'p va xilma-xil bo'lishi ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, subyektlari — ishtirokchilari ham bir xil emas. Ular 2 guruhga bo'linadi: sotuvchilar va xaridorlar. Ular bozor munosabatlarida turli vazifani bajaradilar. Sotuvchilar bozordagi tovar va xizmatlarni taklif etuvchi korxonalar yoki yakka tartibda ishlab chiqaruvchilar, ish kuchi, yer, suv, mashina, uskuna, bino-inshoot egasi, pul kapitali, qimmatbaho qog'ozlar va valuta sohiblaridan iborat bo'lib, ular o'z tovarlarini sotadilar yoki ijaraga beradilar. Xaridorlar esa keng qatlam iste'molchilar bo'lib, ular bozorga o'z talab ehtiyoji va pul bilan chiqadilar, xaridorlar oddiy iste'molchi fuqarolar, resurslar sotib oluvchilar, ish kuchini yollovchi tadbirkorlar va hokazolar. Bozorda talab va taklif uchra-shadi. Bozor subyektlarining har biri o'z manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi. Ularning xatti-harakatini bozor muvofiqlashtiradi, shu orqali subyektlarning manfaatini amalga oshiradi. Bevosita bozor orqali yuz berganda tovar ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili iste'molchi, ya'ni xaridorning o'zi bilan to'g'ridan to'g'ri oldi-sotdi ishlarini olib boradi. Bevosita munosabat paydo bo'lganda ishlab chiqaruvchi bilan xaridor o'rtasida aloqalarni o'rnatishda vositachi tijorat ahli ishtirok etadi.

Bozor o'ziga xos vazifalarni bajaradi, ya'ni ishlab chiqarishni uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi, bozor iqtisodiyotini tartibga solib turadi. Bu vazifalarni talab, taklif, raqobat va baho yordamida bajaradi.

Hozirgi davrdagi bozor murakkab tuzilishga egadir. Bozor yetuklik darajasiga qarab, rivojlanmagan bozor, klassik (erkin) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo'linadi.

Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra bozor quyidagi turlarga bo'linadi: iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valuta bozori va fond birjalari, ilmiy texnika kashfiyoti va ishlamalar bozori. Muomalaga chiqadigan obyektlarning xususiyatiga ko'ra, ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Demak, «Aralash iqtisodiyot» deb nom olgan hozirgi zamon bozor xo'jaligi g'oyat murakkab, ko'p darajali iqtisodiy tizim hisoblanadi. Unda stixiyali bozor raqobati vositalari davlatning tartibga solib turishi bilan qo'shib olib boriladi. Chunki mulk va xo'jalik yuritishning g'oyat xilma-xil shakllari yonma-yon yashaydi va bir-birini to'ldiradi. Bular bir vaqtning o'zida ham raqobat qiladi, ham bir-biriga chatishib ketadi.

1.4. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi

Bozor islohotlarini amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning konsepsiyasi, ya'ni nazariy modeli yaratiladi. Tuzilgan konsepsiyada bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiy jihatlari va milliy xususiyatlari nazarga olinib, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi. Bozor islohotlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan yuridik qonunlar qabul qilinadi va ular hayotga joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqilgan. Jahonda mamlakatni taraqqiy ettirishning har xil namunalari bor, masalan, Turkiya yo'li, Janubiy Koreya yo'li, Shved usuli va boshqalar. Shuningdek, jamiyatni taraqqiy ettirishning ilg'or usullaridan musulmon davlatlarining hamda industrial taraqqiy etgan yangi mamlakatlarning tajribalari, Yevropa mamlakatlari xalq xo'jaligining rivojlanish yo'llari va ikkinchi jahon urushidan so'ng Yaponiya taraqqiyoti bunga misol bo'la oladi. Shu mamlakatlarning taraqqiyotidagi foydali tajribalarini o'z sharoitiga moslashtirib, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishidagi tanlab olingan o'ziga xos yo'lning birdan-bir maqsadi evolutsion yo'l bilan normal, sivilizatsion taraqqiyotiga erishishdir. Xo'jalik yuritishning hozirgi zamon bozor munosabatlari iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, xalqning turmush sharoitini yaxshilashga imkoniyatlar yaratib beradi.

Jamiyatni istiqlol va taraqqiyotga yo'naltirish, iqtisodiyotda tub islohotlar o'tkazish Respublikamiz Prezidenti I.Karimov ko'rsatib bergan bozor iqtisodiyotiga o'tishning beshta muhim tamoyiliga asoslanadi. Shu besh tamoyil to'g'riligini hayotning o'zi tasdiqladi, jahon jamoatchiligi esa qo'llab-quvvatladi. Besh tamoyilga amal qilinib, bozor munosabatlarini barpo etish natijasida

respublikada ijtimoiy-siyosiy osoyishtalik hukm surmoqda. Bu tamoyillarning mazmuni quyidagilardir:

Birinchidan, *iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi*, ya'ni iqtisodiyot mafkuradan xoli bo'lishi kerak. Iqtisodiyot va uning hal qilinishi lozim bo'lgan muammolari hozirgi vaqtda olib borilayotgan siyosatning o'zagini tashkil etadi. Shuni aytish lozimki, sobiq sovet davrida asosan siyosat birlamchi bo'lib, iqtisodiyot unga bo'ysunar edi. Ko'p hollarda iqtisodiy qonunlarga rioya qilinmaganligi uchun iqtisodiyot uncha rivojlanmadi.

Ikkinchidan, *bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat asosiy islohotchidir*. Davlat butun xalq manfaati yo'lida islohotlar jarayoniga rahbarlik qilishi, iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashi, suveren davlatimizning iqtisodiyotida, ijtimoiy sohasida va ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar amalga oshiradigan tadbirlarni o'tkazishi kerak.

Uchinchidan, *mamlakatning istiqlol va taraqqiyot jarayoni huquqiy asoslarda amalga oshishi lozim*, ya'ni qonun oldida hamma bir xil javobgardir. Qonunlarga asoslangan amaliyotgina iqtisodiy islohotlar o'tkazishda samarali natijalar beradi.

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida *Respublikadagi demografik holatni, xalqning turmush darajasini e'tiborga olgan holda kishilarni ijtimoiy himoya qiluvchi muhim tadbirlarni amalga oshirish lozim*. Kuchli ijtimoiy siyosat va ijtimoiy garantiya mexanizmi orqali ijtimoiy-siyosiy osoyishtalikka erishish, bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin.

Beshinchidan, *yangi iqtisodiy munosabatlarni asta-sekin, bosqichma-bosqich o'rnatish mumkin*. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili muhim ahamiyatga egadir, chunki bu tamoyil iqtisodiy islohotlarning tub mohiyatini belgilab beradi.

Yangi jamiyatni, tamomila yangi munosabatlarni vujudga keltirish uchun kishilarning yangi taraqqiyotni bunyod etayotganliklarini tushunishlaricha erishish lozim. Shundagina O'zbekistonda o'tkazilayotgan chuqur iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning nazariy asoslari amaliyotda katta natijalar beradi.

Hozirgi vaqtda respublikada bozor munosabatlarini barpo etishdagi tub o'zgarishlar mamlakat mustaqillikka erishgan-

dan beri ikki bosqichda amalga oshmoqda. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bu asosiy yoʻnalishlari I.A.Karimovning «Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida» kitobida bayon qilib berilgan.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning boshlangʻish nuqtasi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat boʻladi.

Tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish asosiy maqsad emas. Barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat koʻrsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash boʻyicha chora-tadbirlar koʻrish obyektiv zaruriyatdir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshirildi.

Birinchi yoʻnalish — narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va oʻrtacha darajasini muntazam oshirib borish.

Ikkinchi yoʻnalish — Respublikaning ichki isteʼmol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari isteʼmolini muayyan darajada saqlab turish.

Uchinchi yoʻnalish — islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam taʼminlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qoʻllab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan maʼnaviy axloqiy

qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi.

Shunday qilib, islohotlarning barcha yoʻnalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga oʻtishiga qaratildi. Bu islohotlar Oʻzbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan taʼminlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obroʻ-eʼtiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, rejalashtirish, prognoz, direktiv rejalar, indekativ rejalar, strategik rejalar, iqtisodiy organlar, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishning ahamiyatini tushuntiring.

2. Rejalar oʻz koʻrinish va mazmuniga koʻra qanday shakllarda tuziladi?

3. Indikativ, direktiv va strategik reja tuzishda iqtisodiy organlarning funksional hamkorligi nimada?

4. Davlat darajasida ijtimoiy jarayonlar qanday tartibga solinadi?

5. Rejalarni amalga oshirish mexanizmlari va vositalari qaysilar?

6. Bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik nimada?

7. Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasining muhim jihatlari.

8. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari nimalardan iborat?

II bob. MAMLUKAT IJTIMOIIY-IQTISODIIY RIVOJLANISHINI BELGILOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI

Reja:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini aks ettiruvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.
2. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari.
3. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.

2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini aks ettiruvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Iqtisodiy rivojlanish darajasini o'lchovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasi va ularning tavsifi quyidagicha:

Yalpi milliy mahsulot (YMM) — xalq xo'jaligining moddiy hamda noishlab chiqarish sohalari bo'yicha iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmini to'g'ri va aniq ko'rsatib beradi. Yalpi milliy mahsulot mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatidir. YMMda faqat yakuniy ne'matlar hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar va xizmatlar esa e'tiborga olinmaydi. Mamlakat milliy hisobchilik tizimida, YMM ko'rsatkichidan tashqari, bir-biri bilan aloqada bo'lgan bir nechta ko'rsatkichlar mavjud. Milliy hisobchilik tizimi to'g'risidagi tushunchalarimizni kengaytirish uchun aynan shu ko'rsatkichlarning tashkil topish manbalarini bilishimiz kerak. Bu ko'rsatkichlar sirasiga YIM, SMM, MD, ixtiyordagi daromad va soliqlar to'langandan keyingi daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni kiritishimiz mumkin.

Yalpi ichki mahsulot (YIM) bu biror mamlakat hududida joylashgan korxona va tashkilotda ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy yig'indisidan iborat. YIM YMMdan muayyan mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarning xorijdan oladigan foyda va daromadlari hamda xorijiy investorlar shu mamlakatda olgan foyda va daromad o'rtasidagi farqlar bo'yicha ajralib turadi.

YIMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa, sof milliy mahsulot SMM ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxona tomonidan o'rnatiladigan narxga qo'shimcha hisoblanadi. To'g'ri soliqdan farqli ravishda mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi mulkdor o'z tovarini qo'shilgan qiymatni hisobga olgan holdagi bahoda sotadi va tegishli tushumni davlatga o'tkazib beradi (Q.Q.S. Aksiz).

To'g'ri soliqlar bu soliq to'lovchining daromadidan, mulkidan undiriladigan soliqlar hisoblanadi. Bunga ish haqidan, foydadan, mulk qiymatidan soliqlar kiritiladi.

Egri soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o'zlari daromadining bir qismini yo'qotadi.

SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa milliy daromad (MD) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

Milliy daromad (MD) bu milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir.

Shaxsiy daromad (ShD) hisoblangan daromadning individual soliqlar to'langandan keyingi qismidir. Individual soliqlar – daromad solig'i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga solinadigan soliqlardan iborat.

YMM ikki usul bilan:

- xarajatlar usulida;
- daromadlar usulida hisoblanadi.

YMMni xarajatlar va daromadlar usuli bo'yicha hisoblaganda bir xil natija chiqadi, chunki iste'molchi mahsulotni sotib olish uchun qancha mablag' sarflasa, ishlab chiqaruvchiga daromad sifatida shuncha pul tushadi.

1-usul bo'yicha YMMni hisoblash:

$$Y = C + I + G + X_n$$

Bunda: Y – tovarlarni sotib olish uchun ketgan xarajatlar; C – shaxsiy iste'mol xarajatlari; I – biznesning investitsiya xarajatlari; G – tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi; X_n – sof eksport (eksport-import). 2-usul bo'yicha hisoblash.

$$Y = CCA + W + I_t + R + I_k + P$$

Bunda: CCA – iste'mol qilingan kapital hajmi; W – yollanma ishchilarning ish haqi; I_t – biznesga bevosita soliqlar; R – ijaraga to'lovi; I_k – % stavkasi-xususiy biznes bo'yicha, bundan davlat mustasno; P – rejalashtirilayotgan korporatsiyalar daromadi. Bu yerda korporatsiyalar daromadi 2 ga bo'linib qo'shiladi, ya'ni R1 – korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi va R2 – korporatsiyalar foydasiga soliq, bunda $R_1 + R_2$ Shaxsiy iste'mol xarajatlariiga uy xo'jaliklarining uzoq muddat davomida foydalanadigan iste'mol buyumlari xarajatlari kiradi.

Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishida davlat xarajatlari inobatga olinadi, budjet tashkilotlariga oylik maoshlarni berish, armiyani boqish, mudofaani mustahkamlash va boshqalar kiradi. Transfertlar bundan mustasno.

Investitsiyalar – stanoklar, asbob-uskunalar sotib olish, bino-inshootlar qurish bilan bog'liq xarajatlar.

Umumiy investitsiyalar ichki sof xususiy investitsiya va amortizatsiya yig'indisidan iborat, ya'ni:

$$UmIn = Ichki.sof.xus. + Amortizatsiya$$

Sof milliy mahsulot YMMdan amortizatsiya xarajatlarini ayirib tashlash bilan aniqlanadi:

$$SMM = YMM - amortizatsiya;$$

$$MD = SMM - bevosita soliqlar;$$

$ShD = MD$ – korporatsiyalar taqsimlanmagan foydasi – sug'urta ajratmalari korporatsiyalar daromadidan soliqlar + transfertlar + dividendlar;

$$ShID = ShD - soliq turlari (individual).$$

Sof eksport esa eksport va importning ayirmasi bo'lib, u goh musbat, goh manfiy savdo bilan bo'lishi mumkin.

Renta to'lovlari uy xo'jaliklari tomonidan olinadigan daromaddan iborat bo'lib, ular iqtisodiyotni shaxsiy resurslar bilan ta'minlaydi.

Biznesga bevosita soliqlarga aksiz solig'i, qimmatli buyumlar solig'i va shunga o'xshash soliq turlari kiradi.

Korporatsiyalar daromadiga soliq va korporatsiyalar foydasiga, yana korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasiga (investitsiyaga mo'ljallangan qismi) kiradi.

Yalpi milliy mahsulotning ikki usul bo'yicha hisoblanishi yopiq emas, balki ochiq iqtisodiyot uchun ham xarakterlidir. Yopiq iqtisodiyot deganda, eksport va import xarajatlari, ya'ni sof eksport inobatga olinmaydi ($U=S+I+G$). Ochiq iqtisodiyotda esa, albat, eksport va import, chet mamlakatlar bilan aloqa inobatga olinadi ($U=S+I+G+X_n$).

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflyatsiya jarayonlari YMMni hisoblashni qiyinlashtiradi. Chunki, YMM qiymat, davriy va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat. YMM kompaniyalarning umumiy sotish hajmi ko'rsatkichini hisoblashda boshlang'ich ma'lumot hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdor va baho darajalarining o'zgarishini ifodalaydi. Bu shuni bildiradiki, YMM miqdoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi va baho darajasi o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

YMMni hisoblashda kompaniyalarning moliyaviy hujjatlaridan statistik ma'lumotlarni olamiz va ular YMMning haqiqiy nominal ko'rsatkichini aniqlashga imkon beradi. Chunki, biror-bir yilda yaratilgan nominal YMMning o'sishi bir tomondan, ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini, ikkinchi tomondan, bahoning o'zgarishini bildiradi, deya olmaymiz. Masalan, YMMning 4% ga o'sishi inflyatsiya darajasining nolga teng bo'lganligi, ishlab chiqarish hajmining 4% ortishi yoki ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda inflyatsiyaning 4% oshirish natijasi, deb to'g'ridan to'g'ri ayta olmaymiz. Muammo shundan iboratki, qiymat (vaqt, miqdor) ko'rsatkichlarini shunday tuzatishimiz kerakki, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishini aniq ifodalasin. Bu muammo yechimi iqtisodchilar tomonidan topilgan. Ya'ni, nominal YMM ko'rsatkichi baholar o'sib borganda kamaytiriladi va aksincha, baholar kamayib borganda ko'paytiriladi. Bu to'g'irlashlar turli yillarda YMM ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. Joriy baholarda (baholarning o'zgarishini hisobga olmagan holda) hisoblangan YMM nominal YMMni bildiradi. Demak, bunga teskari ravishda inflyatsiya darajasini (ya'ni, baholarning o'sishi) yoki deflyatsiya (ya'ni, baholarning kamayishi) darajalarini hisobga olgan holda hisoblangan YMM real YMM sanaladi.

Nominal YMM joriy yil baholarida o'lganadi.

Real YMM bazis yil baholarida o'lganadi.

2.2. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziqli bo'yicha ro'y bermaydi. Shu ayonki, har qanday jamiyatda o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va farovon yashash uchun iqtisodiy o'sish yuz berishi kerak. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi bo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini bildiradi. Ammo iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziqli bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sishni ikki darajada olib qarash mumkin. Mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy o'sish. Mikroiqtisodiy o'sish firma, korxona va tarmoq miqyosidagi rivojlanishni aks ettiradi va ularda o'sish yaratilgan tovarlar va xizmatlarning bozor narxida hisoblangan hajmiga qarab aniqlanadi. Makroiqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyot, ya'ni muayyan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyotni ifoda etadi va yalpi milliy mahsulotning (YMM) ko'payishini bildiradi. YMM hajmi iqtisodiy o'sishning umumlashgan pulda ifodalangan ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobiy va salbiy tomonlarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YMM (YIM) hajmining va uning aholi jon boshiga ko'payishida topadi. Shuni aniq tasavvur qilish kerakki, mahsulotlar va xizmatlar g'oyat xilma-xil bo'lganidan ularning yagona moddiy o'lchami bo'lmaydi. Yagona o'lcham vazifasini bozor narxi bajaradi. Nima ish bajarilmasin, qanday mahsulot yaratilmasin, uning hajmi shuncha pulga teng deb hisoblanadi. Shu sababli YMM ham ikki usulda hisoblanadi.

Birinchi usulda xarajatlar jamlanadi, ya'ni barcha iste'molchilarning tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflangan pu-

li jamlanadi. Ikkinchi usulda daromadlar – tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul daromadlari jamlanadi. Iqtisodiy o'sish esa, YMMning real hajmi bilan o'lchanadi. Gap shundaki, uning qiymat - pul shakli narxlarga bog'liq. YMMning moddiy hajmi o'smasada, inflyatsiya ta'sirida narx oshsa, uning qiymat-pul miqdori ortib ketadi. Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur'atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda... uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim»¹. Shunday ekan iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifati ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof hol-

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi», 2001-yil, 15-fevral. №36.

da amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasi-ni oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning jismoniy ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflyatsiyadan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1. YMM (IMM) yoki milliy daromadning mutloq hajmi va uning o'sish sur'ati.

2. YMM (IMM) yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati.

3. YMM (IMM) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati.

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Masalan: agar diqqat markazida iqtisodiy potensial muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish % (foiz) da o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YMM 60 mlrd so'mni va joriy yilda 70 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real YMM ning bazis davrdagi hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16% ni $(70/60 \cdot 100)$ tashkil qiladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar (real YMM va aholi jon boshiga real YMMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular:

- birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq xarakterlab berolmaydi;

- ikkinchidan, real YMM va aholi jon boshiga YMMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi;

- uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;

- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- d) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- e) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

2.3. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo'ladi. Milliy boylikning bu qismi milliy iqtisodiyot rivojining butun tarixi davomida doimiy takrorlanib turuvchi ishlab chiqarish jarayonining umumiy natijasi sifatida chiqadi va moddiy buyumlashgan shaklda namoyon bo'ladi. U kishilarning ko'plab avlodi mehnati natijasi hisoblanadi. Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy buyumlashgan boylik oxiri oqibatda ishlab chiqarishning, unumli mehnatining natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi. Ammo moddiy buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lar edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili ishdan chiqib, qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo'lib, tarkibiy tuzilishi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fond)lar. Bular butun milliy boylikning tarkibida ancha katta salmoqqa ega

bo'ladi, hamda o'zining texnikaviy darajasi bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'sish imkoniyatini belgilab beradi;

– noishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fond)lar. Asosiy kapitalning bu turiga mamlakatning uy-joy fondi, ijtimoiy madaniy xarakterdagi obyektlar kiradi;

– aylanma kapital (fondlar). Milliy boylikning bu qismi mehnat predmetlaridan iborat bo'lib, asosiy kapitalning taxminan $\frac{1}{4}$ qismini tashkil qiladi;

– tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqichida mehnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potensial tayyor mahsulot hisoblanadi;

– moddiy zaxiralar va ehtiyojlar. Bunga muomala bosqichidagi tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zaxiralar, davlat ehtiyojlari va rezerv fondlari kiradi. Moddiy zaxiralar iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarda foydalanish maqsadida ushlab turiladi.

Davlat ehtiyojlariga oltin zaxiralari, sug'urta va mudofaa ehtiyojlari uchun zarur zaxiralar kiradi;

– aholining uy, tomorqa va yordamchi xo'jaligida jamg'arilgan mol-mulk. Bunga uy-joy, avtomobil, madaniy-maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik tarkibiy qismlarining mazmuni va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. Asosan fan-texnika taraqqiyoti sharoitida moddiy buyumlashgan boylik tarkibida yirik o'zgarishlar ro'y beradi. Sanoat tarmoqlarining asosiy kapitali tez ko'payadi va yangilanadi, noishlab chiqarish sohasining asosiy kapitali tarkibida ilmiy, o'quv, sog'liqni saqlash muassasalarining ulushi tobora ko'proq hissasini egallaydi. Tabiiy resurslarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish sur'atlari o'sib boradi.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehnat unumdorligining o'sishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, bir tomondan

mahsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy texnikaviy asosi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Moddiy buyumlashgan boylikni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish farqlansada, har ikkalasi ham yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyat rivojiga bog'liq emas, u tabiat qonunlari asosida ro'y beradi. Foydali qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va yer resurslari xuddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

Tabiat in'omlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma'nosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson mehnatining ta'siri oqibatida aylanadi.

Milliy boylik nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarida ashyoviy-buyum shakl bilan bog'liq bo'lmagan alohida turdagi iste'mol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun, shuningdek, bevosita aholining turmush darajasini ta'minlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, san'at, sport sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy qimmatliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob adabiyot va san'at asarlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi.

Moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi jamiyat moddiy qimmatliklari ko'payishining asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlansa, madaniyat, san'at, fan kabi nomoddiy sohalar ham o'sib va takomillashib boradi. Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy xarakterdagi qimmatliklarini ham oladi.

Tayanch tushunchalar:

Iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, YMM, YIMM, SMM, MD, iqtisodiy o'sish mezon, ekstensiv iqtisodiy o'sish, intensiv iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, milliy boylik, moddiy buyumlashgan boylik, tabiiy boylik, ma'naviy boylik.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini aks ettiruvchi asosiy Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
3. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday farqlanadi?
4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishning samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
5. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibiy tuzilishini ko'rsating.
6. Milliy boylik tarkibida moddiy buyumlashgan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?
7. Nima uchun yer, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o'lchovida baholab, milliy boylik tarkibiga kiritish mumkin emas?
8. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaymiz? Ularning har biriga misollar keltiring.

III bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET TIZIMI VA UNDA IJTIMOIIY MUHOFAZA XARAJATLARI

Reja:

1. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.
2. Davlat budjeti tizimi tuzilishining asosiy tamoyillari va uni rejalashtirishning asosiy yo‘nalishlari.
3. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari.

3.1. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning mustaqil moliya tizimining shakllantirilishida, uning taraqqiyoti va rivojlanishida davlatning tartibga solish funksiyasi muhim rol o‘ynaydi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning mexanizmlaridan biri jamiyatning moliya tizimi hisoblanib, uning markaziy bo‘g‘ini davlat budjeti hisoblanadi. Aynan davlat budjeti orqali mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulot taqsimlanish jarayonida davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi shakllantiriladi.

O‘zining mohiyatiga ko‘ra, Davlat budjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismidan iborat bo‘lib, shunga mos ravishda u moliya tizimiga tegishli bo‘lgan barcha belgi (xususiyat)larga ega va unga tegishli bo‘lgan barcha funksiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o‘zida, Davlat budjeti faqat o‘ziga xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o‘z navbatida, davlat budjetini moliya tizimining boshqa bo‘linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o‘rinni egallashiga imkon beradi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlat (hukumat)ga tegishli ekanligidir.

Haqiqatdan ham har bir mamlakatda davlat (hukumat) barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo‘lsada, uning bu xislati, ya‘ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslarini asosiy taqsimlovchisi sifatidagi roli faqat budjetda katta kuch bilan namoyon bo‘ladi.

Ma‘lumki, yalpi ichki mahsulotning taqsimlanishi jarayonida yangidan yaratilgan qiymat hisobiga:

- a) xo‘jalik subyektlarining pul daromadlari;

- b) aholi daromadlari;
- d) davlat daromadlari shakllantiriladi.

Budjet davlat daromadlarining asosiy qismini o'zida jamlaydi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy pul mablag'lari hisoblanadi. Shuning uchun ham, budjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tilishi va davlat boshqariluvining demokratik tamoyillarini shakllantirishning asoslaridan biri bo'lgan iqtisodiyotni erkinlashtirishning hozirgi sharoitida makro va mikro darajadagi moliyaviy resurslar oqimlarining barqaror mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar oqimlarini mukammallashtirish iqtisodiyot rivojlanishining o'zaro nisbiyligini va tengligini ta'minlaydi, iqtisodiyotning turli sektorlari va sohalari rivojlanishi va samarali ishlashini ta'minlaydi hamda budjet daromadlari va xarajatlari ning tengligini ta'minlaydi.

Budjetning mohiyati ham davlatning qo'lida markazlashtirilgan pul jamg'armalarining tashkil etilishi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir qismi hisobiga markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq pul munosabatlarini bildiradi.

Budjet munosabatlari bu jamiyat iqtisodiy tizimining ajralmas qismidir; uni amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan obyektiv ravishda aniqlanadi. Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog'liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tinchlik, chegaralar daxlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zaxiralarining mavjud bo'lishi zarurati tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, davlat budjet orqali jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo'ladi.

Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatining iqtisodiy imkoniyatlarini moliyaviy asoslarini yaratadi.

Demak, bir tomondan budjetning paydo bo'lishi davlatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ikkinchidan, aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi budjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.

Budjet murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi.

Demak, budjet iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo'g'inda ishtirok etishi bilan aholining ma'lum qatlami manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Bu tushunchada budjet munosabatlari o'zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falsafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

Budjet munosabatlari obyektiv xarakter kasb etadi. Chunki budjet davlat va unga tegishli funksiyalarni amalga oshirish uchun zaruriy moddiy-moliyaviy baza shakllantirilishi uchun obyektiv zarurdir. Shu bilan birgalikda budjet munosabatlari bazis elementi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida budjet munosabatlari ularga muvofiq keluvchi moddiy shaklni oladi.

Budjet munosabatlari jamiyat iqtisodiy tizimining elementidir. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Budjetning moliyaga xos sifat belgilari birinchidan, ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida aniqrog'i qayta taqsimlanishi jarayonida vujudga kelib, pul munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ikkinchidan, budjet davlat ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari hisoblanadi. Budjet munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

— budjet davlat qo'lida milliy daromadni bir qismini jamlash va ijtimoiy ehtiyojlar va alohida davlat-hududiy tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog'liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

– budget yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo'jaligining tarmoqlari, mamlakat hududlari, ijtimoiy faoliyat sohalari o'rtasida qayta taqsimlanadi;

– qiymatni budget orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bo'g'inlariga nisbatan yirik miqdorni tashkil qiladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uning rivojlanishi oldida turgan vazifalari orqali aniqlanadi.

Demak, budget iqtisodiy mohiyati nuqtayi nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib o'tiladigan bo'lsa, davlatning moliyaviy asosini, qonuniy o'rnatilishi nuqtayi nazaridan esa budget davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko'rib o'tiladi.

Davlat budgeti davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Huquqiy kategoriya sifatida budget tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iboratdir.

Davlat budgetining tuzilishi asoslari va budget tizimi. Hozirda budget vositasida YIMni taxminan 30–40% qismi qayta taqsimlanib, moliyaning boshqa hech qaysi bo'g'ini tarmoqlar, hududlar va iqtisodiyotning sohalari, davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy darajalarida mablag'larni bunday yirik miqdorda qayta taqsimlash imkoniyatiga ega emasdir.

Bozor munosabatlari sharoitlarida milliy daromadning taqsimlanishi pul daromadlari va jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Bunday daromadlarga avvalo davlat daromadlari, korxona va tashkilotlar daromadlari, turli tijorat tizimlari, moliyaviy institutlar hamda aholi daromadlari kiradi.

Milliy daromadning sezilarli qismi davlat, xususiy va tijorat korxonalari daromadlarini soliqqa tortish vositasida budget fon-

diga to'g'ridan to'g'ri taqsimlash yo'li bilan kelib tushadi. Aholi sof daromadlarining bir qismini budgetga qayta taqsimlash tartibida kelib tushadi.

Davlat budjeti orqali milliy daromadning bir qismini taqsimlanishi jamiyat ijtimoiy hayotining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari tarmoqlari o'rtasida mablag'larni taqsimlash yo'li bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa yalpi ehtiyojlarini qondirish uchun markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish zarurati bilan bog'liqdir.

Budget iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga tegishli sifat belgilari unga ham xosdir. Unda uning pul munosabatlari hisoblanishi va moliyaning asosiy funksiyalarini bajarishi bilan belgilanadi.

Budget iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- YIMni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- budget sohasidagi muassasalarni moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- nazorat.

Budget tuzilishi mamlakatning davlat budjeti va budget tizimini, uning ayrim bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilishni, budget tizimiga kiradigan budjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budjetlar tarkibi va tuzilmasini, budget mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

Budget tuzilishining tarkibiy qismi budget tizimi hisoblanadi. Budget tuzilishining asosi mamlakatning davlat tuzilishi shakli, amaldagi asosiy qonuniy akt, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlari hisoblanadi.

Mamlakatning ma'muriy tuzilishi ham budget tizimining asosini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi budjetining tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har yili qabul qilinadigan «O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida»gi qa-

rori va Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va parametrlari prognozi to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘larini oluvchilar yig‘indisini, budjetlarni tashkil etish va tuzish tamoyillarini, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni ifoda etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi 2 darajadan iboratdir:

- Respublika budjet va budjetdan tashqari fondlar;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjetlar.

3.2. Davlat budjeti tizimi tuzilishining asosiy tamoyillari va uni rejalashtirishning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilishining asosiy tamoyillari:

- budjet tasnifi tizimi, hisob-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;
- budjet tuzilishining O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- turli darajadagi budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi;
- davlat budjetining balansliligi;
- davlat daromadlarining manbalar bo‘yicha va xarajatlari yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish;
- davlat budjeti xarajatlarini budjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘ doirasida sarflash;
- barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi.

Barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini — so‘mda amalga oshiriladi.

Budjet tizimiga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi olib boradi. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimini Moliya vazirligi boshqaradi. Moliya vazirligi yagona budjet siyosatini

ta'minlaydi, davlat budjeti resurslarini davlat budjetiga muvofiq rejalashtirishni va moliya muassasalariga uslubiy rahbarlikni olib boradi.

Budjet tizimini boshqarishni O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilishining asosiy tamoyillariga muvofiq moliya organlari va bank muassasalari amalga oshiradilar.

Barcha darajadagi budjetlar yagona budjet tasnifi – daromadlar va xarajatlarni tasnif obyektlariga guruhlovchi xos raqam (kodlar) berish bilan guruhlash ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi. 1999-yilga qadar asosan sobiq Ittifoqda qo'llanilgan tasnifdan foydalanildi. Budjet qismlar, bo'limlar va moddalarga bo'linib, umumlashgan funksional va iqtisodiy tasnif belgilariga ega edi. Bu tasnifning batafsil bayoni xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlar taqdim etish yoki milliy hisob varaqalar tizimiga mos kelishi jihatdan talabga javob bermas edi. Yangi tasnifni amalga kiritish bilan bu kamchilikka barham berildi va yangi tasnif 2000-yil budjetga nisbatan qo'llanildi. Natijada yangi tasnif tahlil imkoniyatlarini kengaytirdi va budjet mablag'larini 4 asosiy toifaga bo'lib, ulardan foydalanishda zaruriy moslanuvchanlikni ta'minladi. Bular ish haqi, ijtimoiy to'lovlar, kapital qo'yilmalar va boshqalar.

Budjet tasnifi Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdir.

Budjet tasnifi Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u budjet ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi. Budjet tasnifi:

- davlat budjeti daromadlari tasnifini;
- davlat budjeti xarajatlarining vazifasi jihatidan (funktional), tashkiliy va iqtisodiy tasnifini;
- davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti daromadlarining tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq daromadlarni turlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat. Davlat budjeti xarajatlarining vazifasi jihatidan tasnifi xara-

jatlarni davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, boshqa budjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi xarajatlarni xo'jalik yurituvchi subyektlar turlari va budjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishni aks ettiruvchi tadbirlar bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi xarajatlarni to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat.

Budjet tasnifi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Budjetni rejalashtirish davlatning moliya siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va nobudjet jamg'armalarini tuzish va ijrosi jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida ijtimoiy mahsulot va milliy daromad qiymatini moliyaviy tizim bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan rejalashtirishdan iboratdir. Budjetni rejalashtirish davomida moliya mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlarining asosiy iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlariga hamda tabiiy, moddiy, mehnat, moliya resurslaridan samarali foydalanish zaxiralarini topishga faol ta'sir ko'rsatadi.

Budjetni rejalashtirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- budjet masalalarining yagona huquqiy normalar bilan tartibga solinishi;
- budjet mablag'lari yo'nalishlarining aniq manzili va maqsadli xarakteri;
- yillik budjetni rejalashtirishning uzluksizligi;
- moliyaviy ko'rsatkichlarning (me'yorlar, soliq stavkalari, smetalar) barqarorligi;
- balans usuli.

Budjetni rejalashtirish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Budjet jarayoni budjetni rejalashtirishning asosiy shakli sifatida hokimiyat organlarining davlat budjeti va unga kiradigan budjetlarni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ularning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, ularning ijrosi haqidagi hisobotlarni tasdiqlash bo'yicha qonun hujjatlari bilan tartibga solingan faoliyatidan iborat.

Budjet jarayoni budjet faoliyatining 4 bosqichini qamraydi:

- budjet loyihasini tuzish;
- budjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish va uning ijrosini nazorat qilish;
- budjet ijrosi to'g'risida hisobot tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budjet orqali tartibga solish, ya'ni moliya resurslarini turli darajadagi budjetlar o'rtasida qayta taqsimlash budjet jarayoni-ning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga:

- tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari loyihalarini tayyorlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga,

- viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga;

- budjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilarga budjet so'rovi yuboradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari budjet so'rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli budjet loyihalarini tuzish, ushbu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatlarini belgilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari qarorlar qabul qilingandan keyin uch kunlik muddat ichida:

- tegishli budjetlar loyihalarini tayyorlash uchun tuman va shahar hokimliklari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlardan budjet mablag‘lari olishga buyurtmalar tuzish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘lari oluvchilarga budjet so‘rovlari yuboradi.

Viloyatga bo‘ysunadigan shaharlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar hamda shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar hokimlari budjet so‘rovi olingandan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli budjetlar loyihalarini tuzish, bu loyihalarni tayyorlash tarkibi va muddatlarini belgilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Tuman va shahar moliya organlari ushbu qarorlar qabul qilganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli budjet tashkilotlaridan budjet mablag‘larini olish va asosli buyurtmalar tuzish uchun, budjet mablag‘lari oluvchilarga budjet so‘rovlari yuboradi.

Davlat budjeti, bu umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo‘luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar daromad va xarajat qismlaridan iborat bo‘ladi.

3.3. Davlat budjet daromadlari va xarajatlari

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlar qatori, bizning mamlakatimizda ham budjet daromadining salmoqli qismi soliqlar va soliq vazifasini bajaruvchi to‘lovlar, yig‘imlar hisobidan shakllanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma‘lumki, bizning endigi asosiy vazifamiz qonunchilikka asoslangan holda davlat budjetiga soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida va to‘laligicha tushib turilishini ta‘minlashdir.

Budjet taqchilligi bo‘yicha jahon andozalariga mos keladigan ko‘rsatkichlarimiz, ya‘ni YIMga nisbatan bor-yo‘g‘i 1 foizga teng bo‘lib, ushbu kamomad milliy valutamizning inflyatsiya darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir qilmaydigan manbalar hisobidan qoplanishi ko‘zda tutilgan.

Jumladan, muomalaga davlat muddatli g‘aznachilik obligatsiyalari chiqarish hisobidan va davlat mulkini xususiylashtirish hisobidan moliyalashtirilishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan odilona soliq siyosati, soliq tizimining sezilmas nuqsonlarsiz hayotga tatbiq etilishiga asos

yaratmoqda, pirovardida budjet daromadi soliqlar va yig'implarning o'z vaqtida va to'lig'icha shakllanishiga erishilmoqda.

Davlat va mahalliy daromadlar yagona tizimning tarkibiy qismlari sifatida muayyan belgilariga ko'ra tasniflanishi mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra:

– davlat korxona daromadlari, davlat mulki, davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;

– nodavlat korxona, tashkilotlar daromadlaridan;

– qo'shma korxonalar daromadidan.

Hududiy darajasiga ko'ra:

– markaziy davlat daromadlari;

– mahalliy idoralar daromadlari.

Yuridik xususiyati va shakliga ko'ra:

– soliqlar;

– soliqdan tashqari to'lovlar.

To'planish uslubiga ko'ra:

– majburiy to'lovlar (soliq va soliqdan tashqari);

– ixtiyoriy to'lovlar (lotoreya, zayom, obligatsiyalar).

Mulkchilik munosabati nuqtayi nazaridan:

– qaytib bermaslik sharti bilan olinadigan;

– vaqtincha olinadigan, qaytarilib beriladigan.

Shakllanish va foydalanish tartibiga ko'ra:

– markazlashtirilgan fondlar (davlat va mahalliy budjetlarga jamlanadigan);

– markazlashtirilmagan daromadlar (korxonalar tasarrufida qoladigan).

Davlat va mahalliy budjetlarning daromad manbalari odatda maxsus maqsadlarni ko'zlamaydi hamda muayyan davr uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarga va dasturlarning bajarishiga sarflanaveradi. Ammo ayrim to'lovlar muayyan maqsadlar yo'lida sarflanishi belgilab qo'yilishi mumkin. Masalan, yer solig'i davlat budjetiga kelib tushadi va undan faqat yerdan foydalanish ehtiyojlari uchungina foydalanilmog'i kerak.

Davlat budjeti daromadlari:

• qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'implar, bojlar, shuningdek, majburiy to'lovlar hamda soliq bo'lmagan boshqa tushumlar;

- davlat moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlar joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Davlatning o'z funksiyalari va vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan chiqimlar budjet xarajatlari deyiladi. Bu chiqimlar davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'larini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Budjet xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan budjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir, ya'ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Shu bilan birgalikda budjet xarajatlari bir butunning o'ziga xos qismi bo'lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'laridan foydalanish va tegishli fondlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy buyumlashgan shakli turli sohalarga yo'naltirilayotgan budjet mablag'larining harakatidan iborat.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida budjet xarajatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Nazariya va amaliyotda budjet xarajatlarini klassifikatsiya qilishning bir necha belgilari mavjud. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, funktsionalligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari yoki idoraviy bo'linishi, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha, hududiy turkumlanishi, ma'lum maqsadlari va yuridik nuqtayi nazardan yoki davlat boshqaruvi darajasiga ko'ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin.

Eng avvalo, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra budjet xarajatlari kapital va joriy xarajatlarga bo'linadi. Bu xarajatlar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ularning qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ifoda etadi.

Budjetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

a) tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar;

b) yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun budjet kreditlari sifatida beriladigan mablag'lar;

d) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;

e) amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulkni oshirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajatlar;

f) budjet xarajatlarining iqtisodiy turkumlanishiga muvofiq budjetning kapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar kiradi.

Budjetning kapital xarajatlari tarkibida taraqqiyot budjeti shakllantirilishi mumkin.

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan budjet xarajatlari, boshqa budjetlar va iqtisodiyot alohida tarmoqlariga dotatsiya, subsidiya va subvensiya shaklida ko'rsatiladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va budjet xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar budjetning joriy xarajatlari deyiladi.

Aniqroq ravishda budjetning joriy xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- davlat iste'moli xarajatlari (iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani, milliy xo'jalikning davlat tarmoqlarini saqlash, fuqarolik va harbiy xarakterdagi tovarlar va xizmatlarni sotib olish, davlat muassasalarining joriy xarajatlari);

- hokimiyatning quyi organlari, davlat korxonalari va xususiy korxonalarga joriy subsidiyalar;

- transfert to'lovlari;
- davlat qarzlari bo'yicha foizlarni to'lash;
- boshqa xarajatlar.

Bu xarajatlar oddiy budjetda yoki joriy xarajatlar va daromadlar budjetida aks etgan chiqimlarga, asosan, mos keladi. Takror ishlab chiqarishdagi rolga ko'ra budjet xarajatlari milliy iqtisodiyotga (xo'jalikka) qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlariga bo'linadi. Bu xarajatlarga, eng avvalo, davlat korxonalari va davlat ulushi bor bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zaxiralarini yaratish xarajatlari kiradi. Budjetning ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ham ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xarajatlardir. Bu xarajatlar iste'mol fondlarini shakllantirish bilan bog'liq. Ularning bir qismi jamiyat a'zolarining individual ehtiyojlarini, boshqa bir qismi esa butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bu yerda budjet xarajatlari ijtimoiy iste'mol fondlarini (mamlakatning mudofaa fondi, ilmiy tadqiqotlar fondi va boshqalar) shakllantirishni to'liq, shaxsiy iste'mol fondlarini esa qisman (nomarkazlashtirilgan moliyaviy resurslar bilan birgalikda) ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, budjet mablag'larining katta qismi shaxsiy iste'mol fondlarining ijtimoiy iste'mol fondlariga (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosi o'rtasidagi farqlarni qoplash, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar fondlari va boshqalar) tegishli bo'lgan qismini shakllantirishda keng foydalaniladi.

Funksional nuqtayi nazardan budjet xarajatlarning klassifikatsiya qilinishi ijtimoiy faoliyat sohalariga pul mablag'larining yo'naltirilganligini aks ettiradi. Bunda budjet xarajatlari quyidagi yirik guruhlariga bo'linishi mumkin:

- davlat boshqaruvi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish;
- sud hokimiyati;
- xalqaro faoliyat;
- milliy mudofaa;
- huquqni muhofaza qilishi va davlat xavfsizligini ta'minlash;

- fundamental tadqiqotlar va ilmiy-texnika taraqqiyotini ta'minlash;
- sanoat, energetika va qurilish;
- qishloq xo'jaligi va baliqchilik;
- atrof-muhitni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, gidrometeorologiya, xaritashunoslik va geodeziya;
- transport, yo'l xo'jaligi, aloqa va informatika;
- uy-joy-kommunal xo'jaligi;
- maorif;
- sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- madaniyat, san'at va kinematografiya;
- ommaviy axborot vositalari;
- davlat qarziga xizmat qilish;
- boshqa darajadagi budjetlarga moliyaviy yordam;
- maqsadli budjet fondlari;
- davlat zaxiralari va rezervlarini to'ldirish;
- ijtimoiy siyosat;
- boshqa xarajatlar.

Budjet xarajatlarining yuqoridagi tartibda klassifikatsiya qilinishi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida davlatning rolini ko'rsatadi.

Budjet xarajatlarining tarmoq belgisi bo'yicha guruhlariga ajratishning asosiga milliy iqtisodiyot (xo'jalik)ning umume'tirof etilgan tarmoqlarga bo'linishi qabul qilingan. Shunga muvofiq ravishda budjet xarajatlari sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, davlat boshqaruvi, mudofaa va h.k. xarajatlariga bo'linishi mumkin. Budjet xarajatlari milliy iqtisodiyot (xo'jalik) tarmoqlarining pul fondlarini shakllantirishda mustahkam moliyaviy asosni yaratish bilan birgalikda, xarajatlarning tarmoqlararo bo'linishi moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi nisbatlarni aniqlashga ham imkon beradi, milliy xo'jalikning tarmoq tarkibiy tuzilishini kerakli yo'nalishda o'zgartiradi. Masalan, hozirgi paytda mamlakatimizda yaratilgan milliy daromadning hajmi budjet mablag'larining katta qismini ijtimoiy soha va aholini bevosita ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish imkonini berayapti.

Bir vaqtning o'zida iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarining (mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, elektroenergetika va boshqalar) katta masshtablarda budjetdan moliyalashtirilishi ham ta'minlanayapti.

Idoraviy belgisiga ko'ra budjet xarajatlarining klassifikatsiya qilinishi budjet assignovaniyalarini oluvchi vazirlik, boshqa davlat muassasasi yoki yuridik shaxsning ajratib olinishiga imkon beradi. Budjet xarajatlarining ana shunday klassifikatsiya qilinishi natijasida boshqaruv tizimining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tuzilmasidagi o'zgarishlar o'z vaqtida ko'rsatiladi.

Ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha budjet xarajatlarining iqtisodiy guruhlariga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarni o'zida aks ettiradi. Ana shunga muvofiq ravishda budjetning barcha xarajatlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) xarajatlar;
- harbiy (mudofaa) xarajatlar(i);
- boshqaruv xarajatlari;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga subsidiyalar va kreditlar taqdim etish xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy muhofaza, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi.

Davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi budjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Ta'lim va sog'liqni saqlashning tekinligi zamon ustuvorligicha qolayapti. Umumiy ta'limni tekin va kasbiy ta'limni tanlov asosida olish kafolatlanganligicha qolmoqda. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga kat-

ta e'tibor berilmoqda. Ish haqining eng kam darajasini oshirish, ishsizlik bo'yicha berilishi lozim bo'lgan nafaqalarning miqdorini ko'paytirish, maktab yoshigacha bo'lgan bolalar, maktab o'quvchilari, talabalarning ovqatlanish xarajatlarini kompensatsiya qilish, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqini tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilmogda.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan turkumlarga ajratilishi bilan bir qatorda budjetning xarajatlarini tashkiliy jihatdan ham guruhlariga ajratish mumkin. Buning asosida budjet xarajatlari ni yuqori tashkilotlar (vazirliklar, uyushmalar, assotsiatsiyalar, birlashmalar, konsernlar, kompaniyalar va h.k.) va hududiy belgilari yotishi mumkin. Budjet xarajatlarining yuqori tashkilotlar bo'yicha guruhlanishi budjet mablag'larini konkret oluvchilarni ko'rsatadi va ular tarmoq ichida pul fondlarini shakllantirishda mas'ul bo'lib, ajratilgan budjet assignovaniyalaridan o'z vaqtida, samarali va qonuniy foydalanish ustidan javobgardirlar.

Budjet xarajatlarining hududiy belgisiga muvofiq ravishda bo'linishi ular markazlashuvining turli darajalarini o'zida aks ettiradi. Shu munosabat bilan, davlat boshqaruvi darajasi va yuridik nuqtayi nazardan budjet xarajatlari uch guruhga kiruvchi xarajatlardan tarkib topadi:

- Davlat budjeti xarajatlari;
- Respublika budjeti xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning xarajatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjetning xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, budjet xarajatlarining hajmi budjet daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida, budjet daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari ning 2007-yilga tegishli bo'lgan tarkibi va uning tuzilmasi ko'rsatishicha, 2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat

budjeti xarajatlarining yarmidan ko'prog'ini (54,1%) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tashkil etmoqda. Bu xarajatlarning tarkibida asosiy o'rinni maorif (32,6%), sog'liqni saqlash (11,9%) va oilalarga ijtimoiy nafaqalar (6,6%) egallamoqda. Umumiy holda esa ana shu uch guruhdagi xarajatlar Davlat budjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan mablag'larning 94,5%ga teng bo'lmoqda.

Umuman olganda, Davlat budjetining bu guruhga kiruvchi xarajatlari yosh avlodni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlarni berish, milliy xo'jalik uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, aholiga malakali tibbiyot xizmatini ko'rsatish, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy muhofazani yanada yaxshilash, bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi murakkab sharoitida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishi va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga O'zbekistonda qanday e'tibor berilayotganligini yana bir bor yaqqol ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyot xarajatlari va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari o'zlarining salmog'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining xarajatlari tarkibiy tuzilmasida keyingi o'rinni egallab, ularning har biriga, mos ravishda, budjet xarajatlarining 12,1% va 8,6% qismlari to'g'ri kelayapti. Bu raqamlar budjet mablag'lari hisobidan mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va o'zgartirish, milliy xo'jalik sektorlarida iqtisodiy samaradorlikning o'sishini ta'minlash, ilmiy-texnika taraqqiyotining o'sish sur'atlarini tezlashtirish, yagona texnikaviy siyosatni yurgizishga jiddiy e'tibor berilayotganligidan darak beradi.

Budjet dotatsiyasi — o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budjet ssudasi — yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Budjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablagʻlari.

Tayanch tushunchalar:

Davlat budjeti, budjet tuzilishi, budjet tasnifi, budjetni rejalashtirish, budjet loyihasi, davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Oʻzbekistonda budjet resurslari qanday boshqariladi?
3. Budjetni uzoq va qisqa muddatlarga rejalashtirishdan maqsad qanday?
4. Budjet iqtisodiy kategoriya sifatida qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Oʻzbekistonda davlat budjetini koʻrib chiqish va tasdiqlash tartibi qanday?
6. Budjet koʻrsatkichlari prognozini ishlab chiqish va uning loyihasini tayyorlash tartibi qanday?
7. Budjet xarajatlarning mohiyati va ijtimoiy muhofaza xarajatlarining tarkibi nimalardan iborat?

IV bob. DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati.
2. Davlat ijtimoiy siyosatining mazmuni va maqsadlari.
3. Ijtimoiy sohaning tarmoqlarida davlat va bozorning roli
4. O‘zbekistonda ijtimoiy muhofaza tizimining rivojlanish konsepsiyasi.

4.1. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy qonun-qoidalarga asoslanadi:

- barcha ijtimoiy-demografik guruhlar (bolalar, yoshlar, ishlaydigan fuqarolar, nogironlar, keksalar va mehnatga yaroqsizlar, qaramoqda yashovchi shaxslar) huquq va ehtiyojlarini hayotning hamma sohasida himoya qilish;

- aholining turli guruhlariga, mehnatga yaroqlilik darajasi, daromad topish usullariga bog‘liq holda tanlab olish usullari, shakllari, moliyaviy ta’minlash manbalari va ijtimoiy himoyalash mexanizmiga muvofiq tarzda tabaqalab yondashishni ta’minlash;

- davlat siyosati aholining iqtisodiy jihatdan faol, mehnatga yaroqli guruhiga, avvalo, shaxsiy mehnat jamg‘armalarini oshirish va mehnat faolliklarining o‘sib borishi asosida o‘zlarining moddiy boyliklari oshib borishidan kelib chiqishi va amalga oshirilishi lozim.

Siyosat bu jamiyat tarkibiy unsurlarining o‘zaro munosabatidir. Tarkibiy deganda, jamiyatning tuzilishini, uning rivojlanishda barqarorligini (ishonchli takror ishlab chiqarishni, qayta tiklashni, yashash qobiliyatini) ta’minlash tushuniladi. Jamiyatning tarkibiy unsurlari esa ijtimoiy guruhlar, sinflardir. Aynan ularning o‘zaro birgalikdagi harakati siyosiy o‘zaro aloqa yoki siyosat deb ataladi.

Siyosiy o‘zaro aloqalar aniq bir maqsadga qaratilgan bo‘ladi va subyektlarning har biri maqsadlarga erishish uchun harakat qiladi.

Agar siyosiy o'zaro aloqalarning subyektlarini maqsadlariga ko'ra guruhlarga ajratsak, unda iqtisodiy siyosat, demografik siyosat, soliq siyosati, migratsiya siyosati, madaniy siyosat kabi maqsadli sohalarga ega bo'lamiz.

Hozirgi demokratik jamiyatda inson manfaatlariga alohida e'tibor qaratilib, ularning munosib turmush kechirishini davlat o'z zimmasiga oladi hamda qayta taqsimlash tizimi orqali iste'mol sohasiga aralashadi. Aslini olganda, davlat ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida adolat tamoyiliga asoslangan holda faoliyat olib boradi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotida fuqarolar barcha guruhlarining mo'tadil iste'mol darajasini ta'minlash maqsadida daromadlarni taqsimlashda davlatning o'rni katta. Davlat o'ziga huquqiy munosabatlarning me'yorlarini belgilash, turli xil tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini oladi va unga amal qilinishining doimiy nazoratini amalga oshiradi. Jumladan, ish kuni, ish haftasining davom etish muddati, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi asosiy ijtimoiy me'yorlarni ishlab chiqadi va belgilaydi. Shu munosabat bilan davlatning bu jarayonda ishtirokining o'lchovlari haqidagi masala yuzaga keladi. Rivojlangan bozor munosabatlariga asoslangan aksariyat mamlakatlarda davlat tomonidan o'tkaziluvchi ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishi faol mehnat faoliyatiga layoqatli ijtimoiy boqimandalarning sonini kamaytirishdan iboratdir. Shu bilan birga, iste'molda tenglikka intilish va iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini saqlab qolish o'rtasida muvozanat saqlanishini ta'minlash muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «ijtimoiy siyosat» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ijtimoiy siyosat bu jamiyatning faqat barcha ne'matlardan mahrum qilingan qismininggina emas, balki uning hamma fuqarolarining daromadlari va turmush darajasini tartibga solishga, tuzatishga qaratilgan siyosatdir.

Davlat har bir insonning mo'tadil turmush darajasini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi hamda bu uning barcha fuqarolariga daxl qiladi, chunki daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalasining hal qilini-

shu nafaqat «muhtojlarga», balki «boylarga» ham taalluqlidir¹. Ijtimoiy siyosat uning «muhtoj» qatlamlarining nafaqat «mo'tadil» turmush darajasini ta'minlash va saqlashdan iborat bo'lmasdan, balki birinchi navbatda, muttasil rivojlanib borayotgan jamiyatda uning turli iste'mol darajasiga va shunga muvofiq turli turmush darajasiga ega guruhlar o'rtasida barqaror muvozanatni saqlab turishning amaliy va samarali mexanizmini ishlab chiqadi.

Shunday qilib, ijtimoiy siyosat bu, eng avvalo, turli iste'mol va turmush darajasiga ega insonlar jamiyatining muvozanatlangan ahvolini ta'minlash va saqlab turishdir. Aynan ijtimoiy siyosat jamiyatni va uning har bir a'zosini barqarorlik va farovonlik bilan ta'minlashga qodirdir.

Ijtimoiy siyosat quyidagilarga yo'naltirilgan:

- birinchidan, aholining turli daromadlarga ega guruhlari o'rtasida muvozanatni o'rnatishga;
- ikkinchidan, daromadlarni qayta taqsimlash hisobiga har bir insonga «mo'tadil» turmush darajasini ta'minlashga;
- uchinchidan, aholining «zaif», ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand guruhlarini, alohida oilalar va shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirishga.

Ijtimoiy siyosat mohiyatini kategoriya sifatida tadqiq va tahlil qilish uning vazifalarini baholashni talab qiladi. Ushbu kategoriya mazmunini tahlil qilish esa quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi:

- subyektlar va obyektlar doirasini belgilash;
- ijtimoiy siyosatdagi davlatning rolini belgilash;
- maqsadlar va ustuvorliklarni ajratish;
- amalga oshirish mexanizmlari va parametrlarini belgilash.

Ijtimoiy siyosatning asosiy, dastlabki qoidalari uning tamoyillaridir. Ijtimoiy siyosat tamoyillari bu eng yuqori darajadagi asosiy qoidalar bo'lib, ularga davlat ijtimoiy siyosatining yuzaga kelgan sharoitlari va maqsadlariga muvofiq intilish lozim.

Ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash. Eng avvalo, insonning o'zi shaxsiy va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlarini

¹ Социальная политика. Учебник / И.П. Денисова, П.Р. Клинавенко. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. – С. 32.

qondiradi. Unga insonning ijtimoiy xavfsizligi uchun zarur unsurlar: haqiqiy jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori; iste'mol qilinuvchi boyliklar va foydalaniluvchi xizmatlar; tovarlar va xizmatlarga belgilangan narxlar; uy-joy bilan ta'minlanganlik; ta'lim, tibbiy, madaniy xizmat ko'rsatishning ommabopligi; ekologik xavfsizlik va boshqalardan hosil bo'luvchi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish darajasini aks ettiruvchi mo'tadil turmush darajasining ta'minlanganligi kiradi.

2. Hokimiyatning siyosiy barqarorligini ta'minlash. Bunday barqarorlikka turli jamiyatlarda va tarixiy bosqichlarda turlicha erishilgan, lekin uning mohiyati har doim ijtimoiy guruhlarining siyosiy qarorlarida ishtirokining, hukmron sinfnining hukmronlikdagi ustunlik qiluvchi ta'sirini ushlab turishi mumkin bo'lgan taqsimlashga borib taqaladi.

3. Xo'jalikda hukmronlik taqsimotini ta'minlash.

4. Iqtisodiy boyliklar va iqtisodiy samarani taqsimlash tizimini yaxshilash. Bu tizim aholining aksariyat qismini ozmi-ko'pmi qoniqtirishi lozim.

5. Jamiyat va davlat tomonidan ekologik xavfsizlikning zarur va yetarli darajasini ta'minlash.

6. Jamiyat va davlat tomonidan aholining hamda uning a'zolarining har biri uchun ijtimoiy himoyaning zarur va yetarli darajasini ta'minlash.

4.2. Davlat ijtimoiy siyosatining mazmuni va maqsadlari

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning tajribasi guvohlik berishicha, ijtimoiy siyosatning mazmunida ham, uning ta'sir obyektlarining kengayishida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Uning ta'siri endi aholining alohida guruhlari (xodimlar, mehnatga layoqatsizlar) bilan chegaralanmaydi, balki bevosita obyekt sifatida deyarli barcha demografik va ijtimoiy guruhlarining turmush sharoitlari chiqa boshlaydi. Ijtimoiy siyosat iqtisodiy rivojlanishning salbiy oqibatlarini tuzatish chegaralaridan tashqariga chiqdi, chunki u iqtisodiy tizimning profilaktikasiga va ijobiy takomillashtirishga qaratiladi. Nafaqat daromadlarning qayta taqsimlanishi, balki aholini ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashning yangi yo'nalishlarini amalga oshirish ham,

bandlik, ish haqini boshqarish ham katta o'rin egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy siyosat yordamida davlat uy xo'jaliklarining ishchi kuchining sotuvchilari, iste'molchilar, jamg'arma agentlari sifatidagi xulqiga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Bunday ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyati uning alohida yo'nalishlarining qat'iy o'zaro aloqasidir. Ya'ni, bu aloqadorlik quyidagilarda o'z aksini topadi:

- mehnat faolligi uchun sharoitlar yaratish, bandlik va ish haqlarini tartibga solish, xodimlarning mehnatga oid xislatlarini takomillashtirish;

- ijtimoiy ta'minot tizimi orqali daromadlarni to'g'ridan to'g'ri qo'llab-quvvatlash;

- inson shaxsini rivojlantirish, sog'liqni saqlash, madaniy saviyani oshirish, ijtimoiy infratuzilma tizimi orqali tabiiy xizmatlarni taqdim qilish.

Ijtimoiy sohani isloh qilish davomida amalga oshiriluvchi siyosat nafaqat ijtimoiy boyliklar taqdim qilishning yangi modelini, balki bu boyliklar iste'molchilari xulqining modelini ham yuzaga keltirishga safarbar qilingan. Insonga sarmoya sarflash ijtimoiy siyosat sohasida ustuvor hisoblanib, uning strategik maqsadlari: fuqarolar tomonidan ta'limga, salomatligini yaxshilashga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, madaniy kuchlarni saqlash va rivojlantirish, samarali taraqqiy topgan mehnat bozorini yaratish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq yo'nalishini ishlab chiqish va yo'naltirish, pensiya tizimining mustahkamligini ta'minlash va pensiyalarning mavjud miqdorini oshirish.

Ijtimoiy siyosatning kichik tizimi pensiya ta'minotining yangi modelidir. Davlat pensiya ta'minotining bu modeli daromadlarning balanslanganligini va pensiya jamg'armasi majburiyatlarini, o'tish davri davomida bu jamg'armaga sug'urta badallarining asosiy me'yorini oshirmasdan, balki uni ta'minlashga qaratilgan. Pensiya tizimining o'tish davridagi moliyaviy ahvoli barqarorligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy siyosat quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirishi mumkin:

- imtiyozli pensiyani professional pensiya tizimi bilan almashtirish;

— pensiya jamg'armasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, pensiyaga kechroq chiqishni rag'batlantirish;

— pensiyani mablag' bilan ta'minlash bo'yicha davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar o'rtasidagi majburiyatlarni chegaralash;

— davlat pensiya sug'urtasi bo'yicha sug'urta stajiga qo'shiluvchi sug'urtalanmagan davr ro'yxatini qonuniy asosda mustahkamlab qo'yish va shu munosabat bilan yuzaga keluvchi majburiyatlarni davlat budjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlash tamoyillari va o'lchamlarini belgilash;

— pensiya jamg'armasi imkoniyatlaridan kelib chiqib sug'urta badallari to'planishini oshirish;

— jamg'arish asosida yangidan tayinlanuvchi mehnat pensiyasini mablag' bilan qisman ta'minlash.

Davlat tomonidan ijtimoiy sohadagi majburiyatlarni amalga oshirish ijtimoiy va siyosiy samara beradi. Biroq, bunday siyosatda zarar budjetga va umuman moliya tizimiga haddan tashqari og'irlik tushishi, aholida ortiqcha umidlarning paydo bo'lishi, buning asosida ijtimoiy va siyosiy keskinlikning yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitda ijtimoiy sohadagi tub o'zgarishlar quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak:

— ijtimoiy jihatdan yaxshi himoya qilinmagan uy xo'jaliklarining eng yuqori darajadagi samarali himoyasini ta'minlash, chunki ular ijtimoiy muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatlariga ega emaslar va shuning uchun davlatning qo'llab-quvvatlashiga obyektiv ravishda muhtojdirlar;

— asosiy ijtimoiy boyliklarning yalpi ommabopligini va ijtimoiy jihatdan maqbul sifatini ta'minlash, ular qatoriga eng avvalo tibbiy xizmat va umumiy ta'lim kiradi;

— mehnatga layoqatli aholi uchun fuqarolarga xususiy daromadlari hisobiga ijtimoiy iste'molning yuksakroq darajasini, jumladan, qulay uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning yuqori sifatini, keksa yoshda munosib turmush darajasini ta'minlashga imkon beruvchi iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

— ijtimoiy-madaniy sohada aholi va korxonalarning mablag'larini eng yuqori darajada to'la ishga solishga, bu mablag'lardan

samarali foydalanishga imkon beruvchi institutlarni shakllantirish va shu asosda taqdim qilinuvchi ijtimoiy boyliklar va xizmatlarning yuksak sifatini va aholining ularning keng turlari imkoniyatlaridan tanlab foydalanishini ta'minlash.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishi uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga va balanslangan ijtimoiy tarkiblarni ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun ayrim chora-tadbirlarga alohida ahamiyat beriladiki, ular quyidagilarga yordam beradi:

- jamiyatning mehnat imkoniyatlarini rivojlantirishga va undan oqilona foydalanishga;

- iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga, uning haqiqatan beradigan foydasining aholi turli guruhlariga, shu jumladan, budjet sohasi xodimlari daromadlarida nisbatan bir xil aks etishiga;

- zamonaviy ta'limning, malakali va munosib to'lanuvchi mehnatning, shuningdek, tadbirkorlikning ommabopligi hisobiga iqtisodiy imkoniyatlarni tenglashtirishga va ijtimoiy qamrovni kuchaytirishga;

- mehnatga layoqatsizlar, nuroniylar va boshqa ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashni, o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning zarur sharti sifatida jiddiy ravishda kuchaytirishga;

- ijtimoiy xizmatlarni taqdim qilish va ularni mablag' bilan ta'minlashda, ularning sifatini nazorat qilishda, ijtimoiy zaif himoyalangan fuqarolarni alohida qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda fuqarolik jamiyatlari tarkiblari bilan o'zaro birgalikdagi harakatga.

Ijtimoiy islohotlar dasturi davlatda haqiqatan mavjud zaxiralar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy siyosatni barpo qilishga imkon beruvchi yordamni berishga qaratilgan. Faqat bu o'rinda faol ijtimoiy siyosat iqtisodiy o'sishning cheklovchisi emas, balki katalizatori (kuchaytirgichi) bo'lib maydonga chiqadi. Ko'rsatilgan yo'nalishga asoslanuvchi siyosatni izchil amalga oshirish ijtimoiy siyosatning «subsidiar-sug'urtali» modeliga o'tishni taqozo qiladi, u aholining eng himoyaga muhtoj guruhlariga foydasiga ijtimoiy xarajatlarni qayta taqsimlash imkoniyatini ta'minlaydi. «Subsidiar-sug'urtali» model davlat, notijorat sektor va tadbirkorlar o'rtasida ijtimoiy

javobgarlikni qayta taqsimlashni talab qiladi. Bu modelning asosiy elementlari:

1. Aniq ijtimoiy muammolarni hal qilish sohasidagi asosiy ijtimoiy guruhlar o'rtasida sherikchilikning yaxshilanishi, davlat, notijorat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi harakatlarning rivojlantirilishi, ijtimoiy sohaning demonopolashtirilishi, nodavlat sektorni faol jalb qilish asosida xizmatlar taqdim qilish shakllarining diversifikatsiyalanishi.

2. Bir paytning o'zida ta'minlangan oilalarga ijtimoiy transfertlarni qisqartirish asnosida ijtimoiy xarajatlarning kam ta'minlangan oilalar foydasiga qayta taqsimlanishi. Bunday yondashuv chog'ida ijtimoiy ehtiyojlarni mablag' bilan ta'minlashning mustaqil manbalariga ega fuqarolar uy-joy va kommunal to'lovlari bo'yicha deyarli barcha xarajatlarni, shuningdek, tibbiy xizmat, ta'lim, pensiya sug'urtasiga xarajatlarning bir qismini o'zlari, o'z daromadlari hisobiga to'lashlari kerak.

Samarali ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy sharti mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatning amaliy va kompleks ravishdagi tahlili bo'lib, unda aholi ko'z oldida u yoki bu siyosiy kuchning jozibasini oshirish emas, balki mamlakatning kelajagi uchun zarur bo'lgan tub o'zgarishlarni to'xtatishga olib boruvchi ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadi ko'zlanadi. Ijtimoiy siyosat sohasidagi chora-tadbirlar barcha turdagi imkoniyatlardan samaraliroq foydalanish asosida iqtisodiy o'sishni yangidan boshlash va bir maromda saqlash jarayonlariga ko'p jihatdan bevosita yoki bilvosita xizmat ko'rsatishi kerak. Ijtimoiy siyosatning jamiyat iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini hisobga olish zarur va bu ta'sirni kuchaytirish uchun ijtimoiy boyliklarni taqdim qilishning mavjud zaxiralarini nafaqat tejashga, balki ulardan samaraliroq foydalanishga, xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'proq hisobga olishga imkon beruvchi yangi tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish borasida tadbirlar avj olmoqda. Natijada ijtimoiy siyosatning turli vazifalari mazmuni va ularning o'zaro nisbati yangilanishi kerak. Bu bilan jamiyat iqtisodiy o'sishning mustahkam daliliy asosi bo'lib xizmat qilishga qodir hamda aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarining yangi, bozor iqtisodiga mos tizimini

shakllantirish yo'lidan muvaffaqiyatli ilgariylaydi. Uzoq muddatli istiqbolida ijtimoiy rivojlanishning eng muhim muammolarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini yaratishga, turmush darajasini o'lchashda faqatgina iste'mol qilingan boyliklar yig'indisini aks ettiruvchi oqimlarni mo'ljallab ish tutish va ijtimoiy jihatdan muhim naqd boyliklarning butun majmui zaxiralarining harakatini o'rganishga qoniqarli yondashuvlarning yo'qligi to'sqinlik qiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy kafolatlar qonun tomonidan iste'molchining u yoki bu ijtimoiy boyliklar bilan ta'minlanishining miqdoriy ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Aholiga pensiya, nafaqa, moddiy yordam, stipendiyalar ko'rinishidagi pul to'lovlarini taqdim etish davlat kafolatlari hisoblanadi. Biroq, bu kafolatlarning ikkita asosiy turlari: eng kam ish haqi va eng kam pensiya miqdori amaliy jihatdan hisob ko'rsatkichlaridir. Bu davlat budjetidan tashqari fondlarning barcha darajalarini va budjetdan moliyalash miqdoriga qo'yiluvchi mablag'larni hisoblash uchun asosdir.

Davlatning minimal ijtimoiy standartlar tizimi o'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, foydalanish budjet tashkilotlari tomonidan hududlar miqyosida ko'rsatiladigan xizmatlar sohasining rivojlanishini rejalashtirish chog'ida zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ro'yxatidan iboratdir. Ular aholining ijtimoiy xizmatlarning har xil turlariga ehtiyojlarini qondirishning davlat tomonidan kafolatlangan darajasini ta'minlash maqsadida budjet muassasalarini rivojlantirish uchun mo'ljaldir. Shu munosabat bilan xodimlarning alohida guruhlari, ayniqsa fan, maorif, loyihaviy-tadqiqotchilik faoliyat sohasida, shuningdek, muhandis-texnik xodim va iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan boshqa guruhlarning ish haqlari nisbatida oqilona o'zaro nisbatlarni saqlab turishning maqsadga qaratilgan siyosati alohida ahamiyatga ega. Oqilona budjet uzoq, maqsadga qaratilgan mo'ljal sifatida, ijtimoiy mulohazalardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotga ma'lum ma'noda chetdan aralashadi. Oqilona me'yorlar esa ishlab chiqarishdan tashqarida o'rnatiladi va asosan ijtimoiy kafolatlar mafkurasini aks ettiradi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy tub o'zgarishlar dasturiga qo'shilishi iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim shartidir. Ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish mezonini ijtimoiy

samara, ijtimoiy «renta» bo'lishi mumkin, ular quyidagilar kabi ko'rsatkichlarni ifodalaydi:

- aholi keng qatlamlarining iqtisodiy transformatsiyaga aynan mos manfaatlari, asoslari va axloqiy qadriyatlari tizimi;

- aholining iqtisodiy faolligi va xo'jalik faoliyati uchun shaxsiy javobgarligi darajasi;

- ijtimoiy maqsadga qaratilgan bozor jamiyatining asosi sifatida o'rta sinfning shakllanishi;

- turmush sifati (aholi daromadlari, ijtimoiy kafolatlar, mehnatning iqtisodiy jihatdan adolatli bahosi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash);

- to'plangan noashyoviy milliy boylik (ilmiy-texnik, maorif, ma'naviy-axloqiy imkoniyatlar va salomatlik imkoniyatlari);

- ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilish uchun sharoitlar yaratuvchi mexanizmlar.

Shunday qilib, aholini ijtimoiy muhofaza qilishda ijtimoiy siyosatning o'rni katta. Bu siyosat mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar natijasida aholi boshiga tushishi muqarrar bo'lgan mushkulliklarni yengillashtirishga yordam berishi shuhbasizdir.

Demak, ijtimoiy muhofaza davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy kafolatlar yig'indisini tashkil etadi.

Ijtimoiy muhofazaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- mehnatga layoqatli uchun ish joylarini tashkil etish (ishsizlikdan muhofaza qilish);

- mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar bilan ta'minlash;

- mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida normal turmush darajasini ta'minlash (bunga asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo, oziq-ovqat mahsuloti iste'moli ham kiritiladi);

- turar-joy, madaniy va sog'liqni saqlash xizmatlarini minimal teng me'yorda ta'minlash;

- zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumot olish.

Davlat va uning tuzilmalari yana ko'p masalalar hal etilishini ham ta'minlaydi. Birinchidan, fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga ish joyiga zarur resurslarga ega bo'lish va mehnatga yarasha haq to'lash kafolati ham kiritiladi. Ikkinchidan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish keksalik, mehnat qobiliyatini yoki boquvchisini yo'qotishdan sug'urta tizimi (pensiya ta'minoti, shu jumladan, xususiy pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalarga nafaqa), vaqtincha ishlamayotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik bo'yicha nafaqa), aholining ayrim toifalariga ularning moddiy ta'minoti va xizmatlarini hisobga olib imtiyoz va afzalliklar berish (patronaj xizmatlar shaklidagi ijtimoiy yordam, oziq-ovqat, yoqilg'i berish va boshqalar), onalikni muhofaza qilish (tug'ishdan oldingi va tug'ishdan keyingi ta'tillar berish), sog'liqni sug'urta qildirish (tibbiy sug'urta, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlar uchun) ham davlat zimmasidagi vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida ijtimoiy siyosat masalasi turadi. Bu siyosatning zarurati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida aholi boshiga tushishi muqarrar mushkulliklarni yengillashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, har qanday jamiyatda doimo shunday shaxslar toifasi mavjudki, ular obyektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'lig'ining yomonligi, mamlakatdagi ishsizlik darajasi va boshqalar) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ular to'g'risida qayg'urishni davlat o'z zimmasiga oladi, ya'ni yaratilgan milliy daromadning bir qismini ular foydasiga qayta taqsimlanadi.

Respublikada chindan ham muhtoj odamlarga manzilli, tabaqalashgan yordam berishga adolat g'oyasiga og'ishmay amal qilish qoidasi asos qilib olindi. Ijtimoiy yordam tizimining adolat mezoniga bo'ysundirilishi aholi uchun g'oyat oddiy va ravshan bo'lgan taqsimot vositalarini talab qildi va ular ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillari aholini ijtimoiy muhofaza etish tizimi tubdan o'zgartirildi. Mazkur o'zgarish islohotlar ijtimoiy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichining eng muhim yakuni bo'ldi hamda bozor munosabatlari rivojlanishiga mos

yangi ustuvor yoʻnalishlarga oʻtilganligidan dalolat berdi. Yangi tizim ijtimoiy yordamdan aniq foydalanuvchilarga puxtaroq yoʻnaltirilgan. Bular, avvalo, mamlakat kelajagi — bolalar, shuningdek, koʻp bolali va kam taʼminlangan oilalardir. Ijtimoiy oʻzaro yordam tizimida oila asosiy boʻgʻinga aylandiki, bu esa dunyoviy asosiy insoniylik qoidalariga, milliy anʼanalar va xususiyatlarga, jamiyatda oila mavqeiga muvofiqdir.

Oʻzbekistonning oʻziga xosligi shundaki, bu yerda bir uyda birgalikda yashashni afzal koʻradigan, umumiy xoʻjalikka ega boʻlgan, umumiy oilaviy budjet sarflaydigan murakkab oilalar koʻp uchraydi. Bunday sharoitda esa oilani yordamga muhtoj, kam taʼminlangan oilalar toifasiga kiritish mezonini tanlash juda murakkab ish boʻlib chiqdi. Daromadlarni deklaratsiya qilishdan iborat maʼlum usul respublika uchun juda kam darajada maqbul ekan. Maʼlumotnomalardagi rasmiy alomatlariga qarab oilalarga nafaqa berilishi adolat ustuvor mezonidan muqarrar chekinishlarga sabab boʻlar edi. Boisi shundaki, respublikaning koʻpchilik aholisi qishloq joyda yashab, tomorqa xoʻjaligidan hisobga olish mushkul boʻlgan daromadlar koʻradi. Undan tashqari, daromad hisobini yaratish kishilarni yordamchi daromadni yashirishga undar, boqimandachilikni ragʻbatlantirar edi. Barcha daromad manbalarini toʻla va aniq hisobga olish imkonini beruvchi uy xoʻjaliklarini tekshirish vositasi esa hozircha ishlab chiqilmagan.

Ijtimoiy himoya va qoʻllab-quvvatlash shakli:

- imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoyalash;
- oʻzgalar yordamiga muhtoj yolgʻiz keksa fuqarolarni ijtimoiy himoyalash;
- ota-onalar qarovisiz qolgan va yetim bolalarni ijtimoiy himoyalash;
- ishsizlarni ijtimoiy himoyalash;
- kam taʼminlangan va koʻp bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash;
- nogironlarni va nogiron bolalarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash;
- pensiya tizimi bilan qamrab olinmagan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash;
- pensionerlarni ijtimoiy himoyalash;

- imtiyozlar va yengilliklar.

Ijtimoiy islohotlarni o'tkazishning taktik jihatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar ko'rish;

- ijtimoiy soha ahvolini davlat tomonidan nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash;

- bozor iqtisodiyotiga kirib borgan sari yuzaga keladigan vaziyat va yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy muhofaza qilish ustuvorliklari va mexanizmlarining o'zgarishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, ko'rilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi va ta'sirini ta'minlash natijasida:

- kishilarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga, respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo'lindi;

- aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishning qat'iy tizimi yaratildi;

- aholi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga ko'niktirildi;

- iqtisodiy faollik oshdi, tadbirkorlik rivojlanmoqda, aholining ish bilan bandlik tizimi bozor tizimiga yaqinlashmoqda;

- inson manfaatlarini yanada kengroq ro'yobga chiqarishni ta'minlash uchun yangi sharoit va imkoniyatlar yaratildi;

- mutlaq yangicha yondashuvlar asosida zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi.

4.3. Ijtimoiy sohaning tarmoqlarida davlat va bozorning roli

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bilan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi shug'ullanadi. Joylarda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari va tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyat yuritadi. Mazkur idoralarga ayrim aholi guruhlar uchun imtiyoz va kafolatlar belgilash hamda to'lash, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish vazifalari yuklatilgan.

Pensiya ta'minoti tizimi bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi direksiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari, jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari shug'ullanadi. Aholiga nafaqalar turiga qarab, ish joyidan, o'zini-o'zi boshqarish organlaridan, mehnat organlaridan, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armalarining tuman (shahar) bo'limlari orqali to'lanadi.

Yangi ijtimoiy muhofaza tizimining eng muhim xususiyati aholining turli qatlamlariga qat'iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashish xususiyati bilan ajralib turadi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, uning samarasini ko'tarish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog'liq:

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;
- davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat, xayriya tashkilotlari va jamg'armalarning mablag'larini keng jalb etish.

Shu bilan birga, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari quyidagilarga asoslangan holda ancha kengaytirilishi lozim:

- odamlarning kuchi va qobiliyatlari to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish (har bir kishining iqtisodiy erkinligini shakllantirish);
- aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo'l qo'ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish;
- qashshoqlikka qarshi kurash. Eng muhtoj aholi qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Shunday qilib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo'lini vujudga keltirish aholini ijtimoiy muhofaza qilishning shunga mos keladigan yaxlit tizimini barpo etishni talab qiladi. Bu tizim fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini ta'minlashning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini o'z ichiga oladi. Amalga oshirilish usuliga ko'ra ijtimoiy siyosatni aktiv va passiv turlarga ajratish mumkin:

- passiv ijtimoiy siyosat narxlarni sun'iy ravishda tutib turish, shuning hisobiga aholi turmush darajasini ma'lum darajada tutib

turish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga narxlarni sun'iy ravishda tutib turish natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida dotatsiyalarni oshirishni ko'zda tutadi;

- aktiv ijtimoiy siyosat esa tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berishda, aholi bandligini oshirishda, yangi ish o'rinlarni ochishda, aholining nozik qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishda, pensionerlar, qariyalar, nogironlar, bolalar, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalashda va qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotda bir necha kamchiliklar paydo bo'ladi. Mana shu kamchiliklar va iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarni yo'qotish uchun davlat iqtisodiyotga aralashadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli quyidagilardan iborat:

- davlat milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini, sohalarni iqtisodiy jarayonlarni rejali tartibga soladi. Masalan: ishsizlik bilan kurashish dasturlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlari va hokazolar;

- davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning huquqiy norma va qonunlarini ishlab chiqadi. Masalan: O'zbekistonda antimonopol qonun, bankrotlik to'g'risidagi qonun va hokazolar;

- davlat milliy iqtisodiyotni boshqarishda har xil ma'muriy chora-tadbirlardan foydalandi;

- ijtimoiy sohani boshqarishda ham davlatning roli juda katta, u bir qator ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi;

- bozor tizimi samarali rivojlanishi uchun, ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun davlat qonuniy asosni ta'minlaydi;

- mamlakatda yashaydigan fuqarolarning iqtisodiy erkin kurashi va erkin raqobatini himoya qiladi;

- milliy daromad va milliy boylikni ijtimoiy adolatlilik asosida yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlaydi;

- inflyatsiya, ishsizlik jarayonlari ustidan nazorat qilish asosida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi;

- aholini bozor iqtisodiyotining salbiy natijalaridan himoya qilish uchun ijtimoiy mexanizmni takomillashtirish.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida ijtimoiy sohalarida davlatning roli har xil. Davlatning ko'p sonli funksiyalari ichidan eng asosiylaridan biri davlatning ijtimoiy siyosat funksiyasidir. Davlatning ijtimoiy siyosati deganda, biz aholining ijtimoiy himoya qilish tizimini bajarish uchun aholini barqaror va yuqori turmush darajasini yaratish uchun davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlarning yig'indisini tushunamiz. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy siyosati har xil davrlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va shu siyosatning natijalari ham har xil bo'lgan.

Lekin ijtimoiy siyosatning xususiyatlariga qaramasdan biz eng asosiy belgilovchi yo'nalishlarni ajratishimiz mumkin. Bu quyidagilar bilan bog'liq:

1. Moddiy va ma'naviy boyliklarning taqsimlanishi shu maqsadda olib borilishi kerakki, u jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlasin.

2. Demografik siyosatni shunday olib borish kerakki, natijada mehnat resurslaridan ratsional foydalanish mumkin bo'lsin.

3. Jamiyatning ratsional (unumli) ijtimoiy tarkibini tuzish uchun davlatning ijtimoiy yo'nalishining asosiy vazifasi bo'lib har xil manbalar orqali aholi daromadlarini tashkil etish hisoblanadi.

Ular quyidagi yo'nalishlar orqali tashkil etiladi:

- mehnatga to'lovlar orqali;
- ijtimoiy iste'mol fondlar orqali;
- shaxsiy mulkchilik orqali;
- korxonalarning daromadlari orqali.

Aholi daromadlarining bir qismi mehnat sifati bilan bog'liq bo'lsa, yana bir qismi mehnat sifatiga bog'liq bo'lmaydi.

4.4. O'zbekistonda ijtimoiy muhofaza tizimining rivojlanish konsepsiyasi

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofaza tizimi mavjud iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, aholining moddiy va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qismini himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini qamrab olgan.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Kuchli, ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biridir. O'zbekistonda ijtimoiy himoyani amalga oshirishning asosiy manbai davlat budjeti, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, korxona va jamoat tashkilotlari ajratayotgan mablag'laridan tashkil topadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish masalalarini hal etishda barcha xayriya jamg'armalarining («Mahalla», «Sog'lom avlod uchun», «Salomatlik va mehr-shafqat» va hokazo) ishtiroki bor.

Respublikada aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid bir necha qonunlar, nogironlarni qo'llash bo'yicha 1996–2000-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilindi va joriy qilindi. Oqibatda bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa, nochor guruhlarini aniq, manzilli va maqsadli ijtimoiy muhofaza qilish tizimi barpo etildi. Ijtimoiy muhofaza tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, 12 viloyat va Toshkent shahri ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari, 233 tuman va shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi, 34 qariyalar va nogironlarning internat uylari, urush va mehnat faxriylari Respublika pansionati «Olti-ariq» va «Tovoqsoy» sanatoriylari, «Ortopediya» ilmiy-tibbiy-texnikaviy majmuasi, uning viloyatlardagi ustaxonalari, har bir tumanda ijtimoiy muhofaza bo'linmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada ijtimoiy muhofaza asosan kam ta'minlangan oilalar uchun turli nafaqalar berish, aholining ba'zi guruhlari uchun imtiyozlar yaratish, davlat hisobidan yolg'iz qariya va nogironlarni boqish va shu kabi vositalar asosida amalga oshiriladi. O'zbekistonda bulardan tashqari norasmiy ijtimoiy yordam turlari ham mavjud; ularga qarindoshlarning o'zaro yordami, milliy va diniy urf-odatlar asosida qilinadigan yordam, korxona va idoralarning vaqti-vaqti bilan nafaqaxo'rlarga yordam puli berishi kiradi. Bunday yordamlar faqat mehnatga layoqatsizlarga emas, balki kam ta'minlangan ko'p bolali oilalar-

ga, beva-bechoralarga ham beriladi. O'zbekistonda Respublika aholisini ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unda Respublikada mavjud bo'lgan ijtimoiy himoyaga va ijtimoiy yordam tizimi – pensiya ta'minoti, bolalarga nafaqa, yolg'iz keksalarga xizmat ko'rsatish, nogironlarning protez-ortopediya buyumlari, harakat vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, tibbiy, mehnat reabilitatsiya va klinikasi O'zbekiston Respublikasidan tashqari qo'shni Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalaridan kelgan bemorlarga xizmat ko'rsatmoqda. Aholi nafaqa, shuningdek, sanatoriy, pansionatlar, dam olish uylari va bazalari, bolalar lagerlari, profilaktoriylar, parhez taomlar, sayohat yo'llanmalari bilan davlat tomonidan ta'minlanadi.

Mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlagach, pensiya ta'minotida ham islohotlar o'tkazilishi boshlandi. Yoshga doir pensiya 25 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan 60 yoshga to'lgan erkaklarga, 20 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan 55 yoshga kirgan ayollarga beriladi. Nogironlik nafaqasi mehnat qilish qobiliyatini vaqtincha yoki uzoq vaqtga yo'qotgan ishchi-xizmatchilar va boshqalarga tayinlanadi. Boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga beriladigan nafaqa ishchi-xizmatchi, nafaqaxo'rlarning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga beriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunida fuqarolarga yoshga doir pensiya, boquvchisini yo'qotganlik, nogironlik, shaxsiy va ijtimoiy nafaqalar tayinlash ko'zda tutildi va nafaqa xizmati ko'rsatganlarga, madaniyat, fan va texnika sohasida xizmati katta bo'lgan shaxslarning nafaqalariga qonunchilik va hukumat qarorlari bilan qo'shimchalar va imtiyozlar berish joriy qilindi. Mavjud shaxsiy nafaqalar va bunday nafaqa oluvchilar va ularning oila a'zolariga beriladigan imtiyozlar (turar joy, kommunal xizmat haqlari va elektr energiyasi haqining 50 foizini to'lash va boshqalar) saqlanib qoldi.

Shuningdek, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, ijtimoiy nafaqalar, daromadlar indeksatsiyasi kabi yangi tuzilmalar amal qila boshladi. Amaldagi ijtimoiy muhofaza tizimi bolalar uchun nafaqalar, nogironlar uchun imtiyozlar, yolg'iz keksalar va nogironlarni

davlat hisobiga boqish, yolg'izlarga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy yordam kabi nafaqa turlaridan iborat.

Ijtimoiy yordam ko'rsatishda davlat tizimi va xizmat idoralari, jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ishtirok etmoqda. Davlat tizimi xizmatini mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning bo'linmalari, Pensiya jamg'armasi, Moliya vazirligi va ularning joylardagi xizmat idoralari olib boradi. O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barchasi jamiyat a'zolari manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu jumladan, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish ham aholining o'tish davri davomidagi ijtimoiy jihatdan himoyalanganligini ta'minlashni ko'zda tutadi. O'zbekistondagi ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi bosqichlilik tavsifiga ega bo'lib, uning asosiy bosqichlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

I bosqich — 1991–1994-yillar;

II bosqich — 1994–1997-yillar;

III bosqich — 1997-yildan hozirgacha.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki pallasi uchun birinchi bosqichdan ko'zlangan asosiy maqsad bu ishlab chiqarishning pasayishi hisobiga ishsizlikning yuqori darajasiga hamda aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik edi. Bu bosqichda amalga oshirilgan ijtimoiy himoyaning o'ziga xos tomoni shundaki, aholi daromadlari indeksatsiya qilindi, asosiy iste'mol tovarlari talonlar yordamida berildi. Bu ijtimoiy siyosat aholining barcha qismini qamrab olgan edi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj yana bir guruh oliygoh kunduzgi talabalariga bir mahal ovqatlanish uchun talon berildi. Barcha uchun umumiy tarzda qo'llanilgan ijtimoiy yordam o'tish davrining salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qildi. Bu davrda O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi qonuni qabul qilinishi rasman ishchi kuchi bozorini tashkil etish va shakllantirishda, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilishda o'z ahamiyatiga ega bo'ldi.

II bosqichning asosiy maqsadi — bu ishlab chiqarish hajmi barqarorligini ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalashda davlat kafolatlari saqlanishi, ijtimoiy das-

turlarga mo'ljallangan ijtimoiy xarajatlarni pasaytirmaslik edi. O'zbekistonda 1994-yil 1-iyuldan milliy valuta – so'mning muomalaga kiritilishi shu yilning 1-sentabridan boshlab bolali oilalarga davlat kafolatlarini kuchaytirish maqsadida respublikada bolali aholini yagona tizimdagi davlat ijtimoiy yordamning bir qator nafaqalaridan foydalanish imkonini berdi.

Bu bosqichning asosiy xususiyati umumiy ijtimoiy himoyadan aniq, yo'naltirilgan ijtimoiy muhofaza qilishning mahalla tizimiga o'tilgani bo'ldi. Bu ijtimoiy muhofazani amalga oshirishda kam ta'minlangan aholini ijtimoiy muhofaza qilishni tartibga solish uchun muhim bosqich hisoblandi.

III bosqichning ijtimoiy siyosatdagi asosiy maqsadi bu iqtisodiy o'sish, YMMning o'sishi, aholi yashash darajasini oshirish va manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirishdir. 1997-yilning yanvaridan boshlab manzilli ijtimoiy yordamni kuchaytirish maqsadida nafaqalar faqat muhtoj oilalarga va yashash joyidagi mahalliy qo'mitalari tomonidan berila boshlandi. Bu nafaqalarni moliyalashtirish manbasi Davlat budjeti hisoblangan.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy siyosat, ijtimoiy siyosat tamoyillari, passiv ijtimoiy siyosat, aktiv ijtimoiy siyosat, demografik siyosat, ijtimoiy muhofaza.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy siyosat deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
3. Davlat ijtimoiy siyosatining mazmuni va maqsadlari nimalardan iborat?
4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o'rnini tushuntirib bering.
5. O'zbekistonda ijtimoiy muhofazaning rivojlanish konsepsiyasi nimalardan iborat?
6. O'zbekistondagi ijtimoiy siyosatning amalga oshirilish bosqichlarining maqsadlarini tushuntirib bering.

V bob. IJTIMOIIY SOHADA REJALASHTIRISHNING MOHIYATI

Reja:

1. Ijtimoiy sohada rejalashtirish tizimi shakllanishining obyektiv zaruriyati.
2. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishni tashkil etishning yoʻnalishlari va mohiyati.
3. Ijtimoiy soha muassasalarida moliyaviy rejalashtirishning qoʻllanilishi va tartibi.

5.1. Ijtimoiy sohada rejalashtirish tizimi shakllanishining obyektiv zaruriyati

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish doimiy ravishda maʼlum bir doirada va chegarada boshqaruvni talab etadi. Har qanday boshqarish prognoz (istiqbolni belgilash) yoki reja shaklida ilmiy oldindan koʻra bilishni talab qiladi. Bu xoʻjalik yuritishning istalgan sohasini boshqarish aksiomasi hisoblanib, unda amaliyot uchun istalgan prognoz yoki reja emas, balki kelajakning yaxshi asoslangan timsolini yorita bilish zaruratini aks ettiruvchi maʼlum bir meʼyoriy nisbatlarga asoslangan hujjatni shakllantirish talabini qoʻyadi. Shuning uchun davlat doimiy ravishda oʻziga xos boshqaruv dastaklarini qoʻllagan holda boshqaruvning turli usullaridan foydalanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan davrdan boshlab, uning mustahkamlanishi uchun mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish zarurati yanada qatʼiylashdi. Yangi sharoitda davlatning tartibga soluvchi roli iqtisodiyotni rivojlantirishning qonunchilik va huquqiy asoslarini yaratish, faol sanoat, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish hamda hayotni taʼminlovchi muhim tizimlar infratuzilma, fan-texnika sohasi, fuqarolar xavfsizligini toʻgʻridan toʻgʻri davlat yoʻli bilan boshqarishdan iborat boʻlgan tadbirlarni amalga oshirishda oʻziga xos yoʻlni tutishiga olib keldi.

Barcha rivojlangan mamlakatlar yoʻli va tajribasi koʻrsatishicha mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun rejalashtirishning oʻziga xos va mos usullaridan foydalanish iqtisodiyotni tartibga solishning eng keng tarqalgan shakli hisobla-

nadi. Davlat jamiyatning rivojlanish darajasi, demografik vaziyat va mavjud resurs salohiyatini hisobga olgan holda iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish choralarini ko'radi. Davlat miqyosida iqtisodiy jarayonlar hisoblangan raqobat, talab va taklifni shakllantirish, iqtisodiy rag'batlantirish bilan bog'liq va ayrim boshqa hodisalarning istiqbollari prognoz qilinadi. Demakki, kishilik jamiyati yashashini ta'minlash imkoniyatini beruvchi moddiy ne'matlar yaratuvchi tarmoqlar rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib boriladi. Davlat bu jarayonga to'g'ridan to'g'ri rejalashtirish orqali aralashmasada, uni himoya qilish va rag'batlantirish, raqobat muhiti yaratishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va me'yoriy hujjatlar orqali tartibga solib turadi. Binobarin, shu jarayon asosida davlat manfaati saqlangan holda, tadbirkorlar va mahsulot ishlab chiqaruvchilarning faoliyatiga bevosita aralashuvsiz rivojlanish imkoniyati berilsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotda bozor mexanizmining qonuniyatlari asosida rivojlanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shunday bo'lsada, iqtisodiyotga davlatning to'g'ridan to'g'ri aralashuvi talab etiladigan, doimiy ravishda davlat tomonidan stixiyali bozor ta'siriga tashlab qo'ya olmaydigan qator faoliyat sohalari ham mavjud, bunday sohalar jumlasiga milliy mudo-faa, huquq-tartibot, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim, shuningdek, ayrim energetika tarmoqlarining faoliyati kiradi. Ushbu soha rivojlanishini doimiy ravishda tartibga solish va uning bir me'yorda tartibli shakllanishini nazorat qilib borish uchun sohaning rivojlanishini kuzatib borish hamda unda rejalashtirish, yaqin va uzoq istiqbol uchun dasturlar tuzib chiqish muhim masalalardan hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yaqin va uzoq istiqbollari ni belgilab olish jarayoni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand ravishda hayotning obyektiv shart-sharoitlarini, iqtisodiyot subyektlari manfaatlarini aks ettiruvchi obyektiv omillarni o'z ichiga oluvchi rejalashtirish jarayoniga aylanib bora-di. Bozor iqtisodiyotida omillarning ijtimoiy sohada, ya'ni insonning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan sohada rivojlanishni ta'minlash moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va

nomoddiy tarmoqlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda tuziladigan rejalar orqali erishiladi.

Biz bilamizki, ijtimoiy soha o‘zida maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, madaniyat va san’at, turar-joy, kommunal xo‘jaligi, savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish, boshqaruv, jismoniy-tarbiya, sport va boshqalar kabi o‘ziga xos sohalarni jamlaydi. Jamiyatning rivojlanishi va aholi turmush farovonligi darajasini aniqlash ma’lum bir ko‘rsatkichlar va indikatorlar bilan baholanayotgan sharoitda mamlakatning faqat iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilangina emas, balki ijtimoiy sohalar taraqqiyoti darajasi bilan ham ifodalanadi. Ijtimoiy sohada davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning natijasi o‘z aksini topadi va amalga oshiriladi. Iqtisodiy siyosat esa barcha aholi manfaatini ko‘zlaydi. Aynan ijtimoiy sohada davlatning insonparvarlik darajasi har tomonlama yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy soha taraqqiyotining qay darajadaligi ma’lum jihatdan mamlakatdagi siyosiy va psixologik muhitni, aholining umumiy kayfiyatini belgilaydi. Ammo bu o‘rinda shunday muammo kelib chiqadi: bozor iqtisodiyotini shakllantiruvchi ikki subyektning – erkin bozor va davlatning mas’uliyati mavjudligi o‘ta shartli deb hisoblanadi. Bunday iqtisodiy tizim faoliyati bozor va uni davlat tomonidan tartibga solish o‘rtasidagi nisbatning optimal bo‘lishiga bog‘liq: davlatning iqtisodiy jarayonlarga haddan tashqari aralashuvi, qanday maqsadda qilinmasin, baribir iqtisodiyotning samaradorligini pasaytirishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma’lum bir nisbiy chegaralar doirasida ham iqtisodiy tizim faoliyati, ham ijtimoiy soha rivojlanishi tartibga solinib turilishi talabi yuzaga chiqadiki, bu asosan rejalashtirish dasturlari orqali amalga oshirib boriladi.

Davlat tomonidan, mamlakatning bevosita ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sohasini tashkil etishi uchun iqtisodiyot va u bilan bog‘liq sohalar rivojining prognozlarini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar va yirik ko‘p tarmoqli majmualarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Har bir xo‘jalik faoliyati tashkil etilar ekan, uning asosida xo‘jalik yuritish subyekti va obyekti sifatidagi tashkilot faoliyati, ya’ni iqtisodiyotning tashkiliy tizimi doi-

rasidagi iqtisodiy manfaati ko'rib chiqiladi. Umuman davlat dasturlarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llashning negizida, kelajakni oldindan bashorat qilish tamoyillari amal qilsada — bu aksariyat hollarda o'zining kutilgan natijalarini bermasligi ham mumkin, shuning uchun ushbu holatda kelajakni aniq asoslash imkonini beruvchi hisob-kitoblar metodologiyasini aniqlash imkonini beruvchi usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dasturlarni ishlab chiqish va uni yaqin va uzoq istiqbol uchun asoslashning negizida prognozlashtirish va rejalashtirishning ma'lum bir qoidalari va mazmuni asos qilib olinadi. Rejalashtirish shakliy tuzilishi menejmentga bog'liq bo'lib, u rejalashtirishni boshqaruvning bir qismi sifatida ko'rib chiqadi, lekin barcha reja va prognoz hisob-kitoblari tamoyillari, usullari, ularning bosqichma-bosqichligini, iqtisodiy oldindan ko'ra bilish indikatorlarini tanlashni belgilab beruvchi yagona uslubiyo'tga amal qiladi. Iqtisodiy oldindan ko'ra bilish tabiati, ko'rsatkichlar va parametrlar tasnifi, mutaxassislarning prognozlashtirish va rejalashtirish masalalari bo'yicha fikrlari va qarashlari, xorijiy mamlakatlarining ushbu sohadagi tajribasi, faoliyatning turli sohalarini iqtisodiy jihatdan asoslash, shu jumladan rivojlanish strategiyalarini tanlashga nisbatan tavsiya etilayotgan yondashuvlar, tanlangan qarorlarning iqtisodiy samarasini aniqlash, reja tarkibi, mamlakatda rejali ishni takomillashtirish vazifalari — bularning barchasi va qator boshqa masalalar o'rganilayotgan fanning mazmunini tashkil qiladi.

5.2. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishni tashkil etishning yo'nalishlari va mohiyati

Ijtimoiy soha muassasalarining asosiy vazifasi bo'lib, markazlashtirilgan holda ajratiladigan mablag'larni zarur manbalarga o'z vaqtida va maqsadli ravishda sarflashni tashkil etish hisoblanadi. Shu sababli ijtimoiy soha tashkilotlari o'zining funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda faoliyatini yo'lga qo'yish orqali faoliyat yuritadilar. Davlat ichida ijtimoiy soha, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish bosqichlari hamda shakllaridan kelib chiqqan holda ularning vazifasiga mos ravishda rejalashtirish tizimi qo'llaniladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishning turli darajalariga muvofiq indikatorlarning quyidagi tizimi belgilanishi mumkin:

1. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari tizimi (1-daraja – «Respublika»). U umumlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va respublika ko'rsatkichlarining cheklangan doirasi (yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiyotda ko'zda tutilayotgan tarkibiy siljishlar, iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining rivojlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar va ijtimoiy ko'rsatkichlar) bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tavsiflovchi aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

2. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi (2-daraja – «Vazirlik», «Tarmoq»). Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari tizimi tarmoqlar, tarmoqlararo majmualar, shuningdek, respublika aholisiga xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanishining muhim yo'nalishlarini aks ettiradi.

3. Respublika tumanlari va shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi respublika mahalliy tuzilmalari hududlari iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining rivojlanishini tavsiflaydi (3-daraja – «hudud»). U hudud tumanlari (shaharlari), aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikatorlari tizimi (4-daraja – «Xo'jalik yurituvchi subyekt»).

Mazkur tizim iqtisodiyot real sektorining nodavlat va davlat korxonalari hamda ijtimoiy soha tarmoqlari budjet tashkilotlari (muassasalari)ning rivojlanish indikatorlarini o'z ichiga oladi. Indikatorlar tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishning ushbu darajasi uchun indikatorlarning yagonaligi va majburiyligi. Ikkinchidan, indikatorlar yiriklashish va maydalashish qobiliyatiga ega bo'lishi, qiyoslanadigan bo'lishi lozim. Indikatorlar aniq o'lchovga ega bo'lishi, ya'ni aniq va o'lchanadigan bo'lishi kerak. Umuman olganda indikatorlar tizimi ijtimoiy-iqtisodiy soha faoliyatining barcha jihatlarini yalpi tavsiflanishini

ta'minlashi zarur. Shuningdek, indikatorlar tizimi ixcham, moslashuvchan, boshqaruvning har bir darajasida sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarni aks ettirishga qodir bo'lishi lozim. Indikatorlar manzilli bo'lishi hamda vazirliklar va idoralar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining funksional faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. Indikatorlar ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini, xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va respublika aholisining turmush darajasini oshirishga yo'naltirishi lozim. Boshqaruvning har bir darajasi uchun indikatorlar soni cheklangan bo'lishi kerak. Indikatorlarni shakllantirish vaqtga ko'ra bog'langan jarayon. Ushbu holatda boshqaruv obyektining holatini tavsiflovchi yagona indikatorga erishish maqsadi qo'yiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va boshqaruv organlarining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va hududni rivojlantirishdagi boshqa muammolarni hal etish yuzasidan o'zaro munosabatlari iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish jarayonining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq muammolar majmui ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish predmeti hisoblanadi.

Rivojlanish dasturlari va unga mos ravishda rejalashtirishni joriy etishdan maqsad davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini va xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish va respublika aholisining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarining uyg'unligini ta'minlashdan iborat.

Rejaning asosiy maqsadini amalga oshirilgan voqea tashkil etadi. Rejalashtirishning asosiy vazifasi ijrochilar, vaqt va resurslar bo'yicha muvozanatlashgan mavjud resurs cheklovlari sharoitida harakatlarni tanlashdan iborat.

Rejalashtirish maqsadlarni shakllantirish, unga erishishning ustuvor yo'nalishlari, vositalari va usullarini belgilash jarayonini o'zida aks ettiradi. Unga ko'pincha prognozlashtirishning yakuniy bosqichi sifatida qaraladi.

Rejalashtirish ham ustunliklarga, ham kamchiliklarga ega.

Rejalashtirishning ustunlik tomonlari:

- xo'jalik yuritish muhitining bo'lajak ustunliklaridan foydalanishga chuqur o'ylab tayyorgarlik ko'rish;

- ijrochilar harakatlarini muvofiqlashtirishni yaxshilash;

- manfaatdor shaxslarning birgalikdagi sa'y-harakatlari hisobidan kuchlarni sarflashning jamoaviy imkoniyatlarini kuchaytirish;

- cheklangan resurslardan oqilona foydalanish;

- voqealarni nazorat qilish imkoniyati va faoliyatdagi muam-molarni aniqlash.

Rejalashtirishning kamchiliklari:

- rejada, ayniqsa murakkab tashkil etilgan tizimlarda ha-yot sharoitlarining barcha xillarini aks ettirish imkoniyatining yo'qligi;

- qabul qilingan qarorning barqarorligi, bu biznesning o'zgaruvchan sharoitida zarar keltirishi mumkin;

- rejani ishlab chiqish uchun resurslar (vaqt va mablag'lar) zarurligi.

Shuning uchun foydalanishning qulayligi nuqtayi nazaridan rejaning quyidagi shakllari mavjud:

- zaruriy hujjatlar to'plami;

- tuzilmaning ichki mantiqini aks ettiruvchi tuzilmalar;

- tabaqalangan vazifalari ko'rsatilgan holda ijrochilar ro'yxati;

- nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan harakatlar ro'yxati;

- zarur harakatlarning izchilligiga muvofiq ko'rsatilgan ijro etish muddatlari;

- xarajatlar smetalari;

- oldinga qo'yilgan vazifalar sonli ifodalanishi iqtisodiy sa-marasining hisob-kitobi.

Zamonaviy prognozlar va rejalar o'tmishdagilaridan birinchi galda asoslash metodologiyasi bilan farq qiladi. Prognozlar va rejalarini asoslash darajasining oshishi kelajak timsolini ishlab chiqishga nisbatan to'plangan va bashariyat tomonidan foydalaniladigan ilmiy yondashuv tajribasidan dalolat beradi. Tajribani ijodiy o'zlashtirish esa faoliyatning istalgan sohasida muvaffaqiyat

garovidir. Agarda muayyan iqtisodiyotni oladigan bo'lsak, u holda ushbu sohada prognozlashtirish va rejalashtirish natijalari iqtisodiy munosabatlar qonunlari va tendensiyalarini to'g'ri tushunishga, muayyan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati sharoitlarini yaxshi bilish va hisobga olishga bog'liq.

Prognozda va rejada eng asosiysi bu ularda obyektiv hayotni, shu jumladan uning turli holatlarini aks ettirishning aniqligi. Biroq iqtisodiy muhit hamma vaqt ko'plab turli o'zaro ta'sir etuvchi va bir-birini istisno etuvchi omillar ta'siriga duchor bo'ladi va barcha ushbu sa'y-harakatlar xo'jalik yuritish obyektini ishning o'zgarib turuvchi sharoitlariga uzluksiz ravishda moslashtirishga yo'naltirilishi lozim. Lekin, agar prognoz uchun bu, uning ehtimoliy xususiyatga egaligi tufayli, qo'rqinchli bo'lmasa, reja uchun esa bu barbod bo'lishni anglatadi.

Haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy holatni baholashdan tashqari, indikatorlar quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

- iqtisodiyotning samarali rivojlanishi va aholining ijtimoiy farovonligi darajasini belgilash;

- ijro etuvchi hokimiyat organlarining harakatlarini rejalashtirish;

- rejalashtirilgan natijalarga erishish ustidan nazorat qilish;

- tartibga soluvchi ta'sir etish choralarini ko'rish;

- ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini baholash.

Prognozlar va rejalar voqealardan ilgarilab tuziladi, lekin ularning asosiligi ushbu voqealarga mos kelish darajasiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotida voqealarning prognoz qilinish darajasi ushbu holat stoxastik (ingl. tasodifiy va ehtimoliy jarayon) xususiyatga ega bo'lganligi bois, past. Shuning uchun eski axborotni hisobga olgan holda tuzilgan prognozlar va rejalar real hayotda o'zgarishlar yuz berganida, aniqliklar kiritilishi kerak.

5.3. Ijtimoiy soha muassasalarida moliyaviy rejalashtirishning qo'llanilishi va tartibi

O'zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishgach mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat yo'li bilan tartibga solish o'ziga xos tarzda olib borildi. Dunyo iqtisodiyoti-

da yuz berayotgan turli xil iqtisodiy o'zgarishlar, inqirozlar doimiy ravishda mamlakatlar ichki iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Yuz beradigan iqtisodiy inqirozlar o'z navbatida bir tomondan, ishlab chiqarish sohalarida pasayishga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan aholining ijtimoiy himoyalanmagan qismiga ham ta'sir etmay qo'ymaydi. Shuning uchun davlat tomonidan ijtimoiy sohada bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan nazorat qilib borish va uni rejali tarzda tashkil etish kabi muhim masala ko'ndalang turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida ta'kidlaganidek, «O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik».

Shu jumladan, O'zbekiston hukumati maqsadli ravishda iqtisodiyotni bozor dastaklarini qo'llagan holda tartibga solish amaliyotini qo'llagan holda iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishni yo'lga qo'ygani holda, mos ravishda iqtisodiyotni markazlashgan tarzda boshqarish hamda an'anaviy rejalashtirish tartibotlaridan voz kechdi.

Ijtimoiy soha tizimi tashkilotlarida rejalashtirishning asosiy sharti bo'lib, maqsadli moliyaviy mablag'larni taqsimlash va ularidan oqilona foydalanishni tashkil etishning maqbul yo'llarini ta'minlash hisoblanadi. Moliyaviy rejalashtirish mavjud moliyaviy resurslar hamda ularning taqsimoti o'rtasidagi o'zaro muvozanatni ta'minlash bilan bir qatorda, uning sarfi bo'yicha zarur davlat organlari oldidagi javobgarlikni ham yuzaga chiqaradi.

Moliyaviy rejalashtirish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

— hisobot yili moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili va istiqbol uchun zarur bo'lgan asosiy hujjatlarni tuzish, joriy qarorlarning oqibatlarini prognozlash;

— istiqbol rejalarni aniqlashtirish va joriy moliyaviy rejalarni tuzish;

— operativ rejalashtirish.

Tashkilotda moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifasi bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

— zarur moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashni tashkil etish;

— mablag'larning maqsadli sarflanishini tashkil etish hamda uning ishlatilishini baholash;

— qo'shimcha mablag'ga talab paydo bo'ladigan sharoitda uni hosil qilishi chora-tadbirlarini oldindan rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy sohaning asosiy tashkilotlari bo'lgan budget muassasalarida moliyaviy mablag'lar harakatini va xarajatlar ko'lamini rejalashtirish budget muassasalari faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan muhim vositalardan biri hisoblanadi. Muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati mana shu rejalashtirish tizimining qay tarzda muvaffaqiyatli tashkil etilishi bilan ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, bu muassasa oldida turgan vazifalarni bajarish uchun qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Budget jarayonini isloh qilish tadbirlari tahlili ko'rsatishicha aynan, muassasalar faoliyatini rejalashtirish budget mablag'laridan oqilona hamda maqsadli foydalanish jarayonida asosiy dastak bo'lib xizmat qilayapti. Budget mablag'larini rejalashtirish va undan jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini mujassamlashtirgan maqsadli foydalanishni tashkil etish masalasi amaliyotchi moliya mutaxassislarining diqqat markazida turibdi.

Yaqin vaqtlargacha budget tashkilotlarida rejalashtirish o'zida daromad va xarajatlar smetasini aks ettirgani holda, uning boshqaruv tashkiloti tomonidan tasdiqlangan hamda cheklangan budget majburiyatlari doirasida ajratilgan mablag'lar hajmi bilan faoliyat yuritishi tarzida tuzilib kelingan.

Rejalashtirish budget moddolari tasnifi asosida o'tgan moliyaviy yildagi haqiqiy mablag'larni mamlakatda qabul qilinayotgan inflyatsiya darajasi hajmiga mos ravishda indeksatsiyalash yo'li bilan amalga oshirib kelingan edi, vaholanki mablag'lar talab etilishi zarur bo'lgan tadbirlar yildan-yilga bir-biridan farqlanib

borish xususiyatiga ega bo'ladi. Rejalashtirishning bunday tartibi muassasalarning keyingi faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'ni olish uchun zarur edi. Shu sababli rejalashtirilgan mablag'lar harakati muassasalar tomonidan amalga oshirilgan tadbirlarning turlari bilan amalda mos kelmaslik holatlari ko'p sodir bo'ladigan hodisa sifatida baholanar edi. Mablag'lar nazorati va tahlili faqatgina amalda va rejada bajarilgan ko'rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslash orqali aniqlanishi va amalga oshirilishi mumkin edi. Muassasalar rahbariyati tomonidan u yoki bu xarajatlar bandi yil boshida so'ralgan mablag' miqdorini bandga o'tkazib berish uchun murojaatlar yuqori boshqaruv organida muammolar tug'ilishiga olib kelar edi. Hozirgi vaqtda budjet tashkilotlari uchun maxsus davlat budjet tasnifi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra budjet mablag'lari budjet muassasalarining hisobot yili yoki ma'lum bir davr uchun tasdiqlangan smetalari asosida yo'naltiriladi.

Davlat budjeti ijrosida qatnashuvchi barcha organlarda davlat budjetining daromadlari va xarajatlarini hisobga olish asosida budjet tasnifi yotadi. Budjet tasnifi davlat budjeti tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budjet ma'lumotlarini bir tizimga solish uchun foydalanish va u budjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlash maqsadida davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash hisoblanadi. Budjet tasnifi hamma budjetlarni bir yagona davlat budjetiga jamlash imkoniyatini tuzatadigan asosiy tashkiliy funksiyani amalga oshiruvchi hujjatgina bo'lib qolmay, u katta iqtisodiy ahamiyatga ham egadir. Tasnifda davlat budjeti daromadlari va xarajatlari bir xil alomatlari bo'yicha guruhlanadi va ular bo'linmalar deb yuritiladi. Bo'limlar, paragraflar, boblar va moddalar budjet tasnifi bo'linmalari bo'lib hisoblanadi.

Budjet tasnifi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Turli darajadagi budjetlar yagona budjet tasnifi ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi, ya'ni tasnif obyektlariga

berilgan guruhlashtirish kodlari bo'yicha daromadlar va xarajatlar guruhlanadi. 2010-yildan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008-yil 15-maydagi 80-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tasnifi, xarajatlarini funksional va iqtisodiy tasniflari hamda budjetlar mablag'lari manbalari va bo'g'inlari tasnifi» amal qilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008-yil 15-maydagi 80-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tasnifi, xarajatlarini funksional va iqtisodiy tasniflari hamda budjetlar mablag'lari manbalari va bo'g'inlari tasnifi» davlat moliyasini tasniflash bo'yicha xalqaro standartlarga moslashtirilgan va u quyidagi budjet tasniflarini:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tasnifini;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining funksional tasnifini;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifini;

- budjet mablag'larini bosh tasarruf qiluvchilar;

- budjet mablag'larini ikkinchi darajali tasarruf qiluvchilar;

- budjet mablag'larini uchinchi darajali tasarruf qiluvchilarni o'z ichiga oladi.

Budjet mablag'larining bosh tasarruf qiluvchilar ikki darajaga bo'linadi, ya'ni:

- budjet mablag'larini bosh tasarruf qiluvchilar;

- budjet mablag'larini uchinchi darajali tasarruf qiluvchilar.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti bo'yicha budjet mablag'larini bosh tasarruf qiluvchilar bo'lib vazirliklar, idoralar va boshqa markaziy tashkilotlarning rahbarlari hisoblanadi.

Mahalliy budjetlar bo'yicha budjet mablag'larini bosh tasarruf qiluvchilari bo'lib hokimiyatlarning boshqarma (bo'lim) boshliqlari hisoblanadi.

Budjet mablag'larini ikkinchi darajali tasarruf qiluvchilar bo'lib tasarrufida tashkilotlari bo'lgan markaziy idoralarning rahbarlari hisoblanadi.

Budjet mablag'larini bosh va ikkinchi darajali tasarruf qiluvchilar tasarrufidagi tashkilotlarning rahbarlari budjet mablag'larini uchinchi darajali tasarruf qiluvchilar (budjet mablag'lari oluvchilar) bo'lib hisoblanadi. Budjet mablag'larini uchinchi darajali tasarruf qiluvchilarga budjetdan olgan budjet mablag'larini mustaqil g'aznachilik organlarida ochilgan shaxsiy hisob varaqlari orqali sarflash huquqi berilgan. Mahalliy budjetlar bo'yicha budjet mablag'larini tasarruf qiluvchilarning ikki darajaga bo'linishi mahalliy organlarning ikki bo'g'inga bo'linishi bilan bog'liqdir.

Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimiga o'tilishi munosabati bilan budjet mablag'larini tasarruf qiluvchi (yuqori budjet mablag'lari oluvchi) va budjet mablag'lari oluvchi (quyi budjet mablag'lari oluvchi) kabi bir qancha yangi atamalar qo'llanila boshlandi. Budjet mablag'larini tasarruf qiluvchi (yuqori budjet mablag'lari oluvchi) deganda xarajatlar smetasida o'zini saqlashga hamda yuridik maqomga ega bo'lmagan o'zining tasarrufidagi quyi tashkilotlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan (aniqlangan) reja bo'yicha budjet mablag'larini oluvchi yuqori budjet mablag'lari oluvchi tushuniladi. Budjet mablag'lari oluvchi (quyi budjet mablag'lari oluvchi) deganda xarajatlar smetasida tashkilotni saqlashga va boshqa tadbirlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan (aniqlangan) reja bo'yicha budjet mablag'lari oluvchi yuridik maqomga ega bo'lgan subyekt tushuniladi.

Davlat budjeti bu davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag'larining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori ko'zda tutiladi:

Davlat budjeti:

- respublika budjeti;
- Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli fondlari ham jamlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti hamda respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi.

Viloyatning budjeti viloyat budjeti, viloyat tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi.

Tumanlarga bo'linadigan shahar budjeti shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o'z ichiga oladi.

Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning budjeti tuman budjeti va tuman tarkibiga kiruvchi shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi.

Respublika budjeti bu davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti bu davlat budjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budjet bu davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat maqsadli fondlari bu davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi me'yorlari va shartlari, shuningdek, shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun bo'yicha belgilanadi.

Budjet jarayoni bu davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayonidir.

Budjet tashkiloti bu o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun davlat budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moli-

yalashtirishning asosi hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkilotidir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi o‘zining hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda davlat budjetining g‘azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligi tizimiga bevosita unga bo‘ysunadigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri g‘aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) g‘aznachilik bo‘limlari kiradi.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy soha, resurs salohiyati, indikatorlar tizimi, iqtisodiyot real sektorlari, moliyaviy rejalashtirish, operativ rejalashtirish, moliyaviy mablag‘lar, g‘aznachilik tizimi, budjet jarayoni, budjet tashkiloti, davlatning maqsadli fondlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy sohada rejalashtirish tizimi shakllanishining obyektiv zaruriyati nimada?
2. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishni tashkil etishning yo‘nalishlari va mohiyatini tavsiflab bering.
3. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy soha muassasalarida moliyaviy rejalashtirishning qo‘llanilishi va tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Moliyaviy rejalashtirish jarayoni qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
6. Mahalliy budjet va Davlat maqsadli fondlari vazifalari nimalardan iborat?
7. Budjet tashkilotlarida rejalashtirishning ahamiyati.

VI bob. IJTIMOIIY SOHA MUASSASALARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH USULLARI VA MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIIY ASOSLARI

Reja:

1. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishning usullari.
2. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirish shakllari hamda modellari.
3. Budjet mablag'larini tasarruf qiluvchilar va budjet mablag'lari oluvchilarni xarajatlar rejasiga muvofiq moliyalashtirishning yo'nalishlari.
4. Budjet tashkilotlarida xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan moliya organlari bilan o'zaro munosabatlar.

6.1. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishning usullari

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini hamda jamiyat doirasida yuz beradigan hodisalar ma'lum bir usullar yordamida rejalashtirib boriladi. Bu rejalashtirishning usullari deb yuritiladi. Rejalashtirish usullari bu barcha darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va reja ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish tizimining vaqt chegaralarini ishlab chiqish, asoslash va tahlil qilish usullarining yig'indisi hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rejalashtirish muammolarining tarkibida farqlar mavjudligi tufayli prognozlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqishning bir necha usullaridan foydalaniladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: me'yorlashtirish (normativ) usuli, hisob-tahlil usuli, balans usuli; iqtisodiy-matematik usullar; tizimli tahlil va sintez usuli; rejali qarorlarni muvofiqlashtirish usuli.

1. Me'yorlashtirish (normativ) usuli — ma'lum bir kuzatuvlar va xulosalar asosida ilgaridan o'rnatilgan va qabul qilingan me'yorlar, texnik-iqtisodiy normativlar yordamida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini aniqlash hisoblanadi. Bunday normativlar sifatida o'rnatilgan soliqlar stavkasi, ta'riflar va yig'imlar stavkasi, amortizatsion ajratmalar me'yorlari, aylanma mablag'larga bo'lgan talablar me'yorlarini ko'rsatish mumkin.

Moliyaviy rejalashtirishda bir qator tizimli me'yorlar va normativlar qo'llaniladi, jumladan:

- Xalqaro me'yorlar;
- Respublika doirasidagi me'yorlar;
- Mahalliy me'yorlar;
- Tarmoq doirasidagi me'yorlar;
- Xo'jalik yurituvchi subyekt doirasidagi me'yorlar.

Rejalashtirishning normativ usuli eng oddiy usul hisoblanib, me'yorlar va hajm ko'rsatkichlarini bilgan holda rejalashtirish ko'rsatkichlarini osonlik bilan tuzish mumkin bo'ladi.

2. Hisob-tahlil usuli – bazaviy ko'rsatkich sifatida qabul qilinadigan joriy yildagi moliyaviy holat hajmi va rejalashtirilayotgan yildagi indekslarining o'zgarish darajasini bilgan holda istiqbol-da muassasaning rejaviy ko'rsatkichlari hajmi aniqlab olinadi. Ushbu usul ko'pincha texnik-iqtisodiy normativlar va me'yoriy ko'rsatkichlar bo'lmagan sharoitda, ko'rsatkichlarning o'zaro aloqadorligi va o'zgarish dinamikasini taqqoslash asosida qo'llaniladi. Hisob-tahlil usuli xarajat va daromadlar qiymatini rejalashtirishda, turli fondlarga ajratmalar miqdori bo'yicha qo'llash jarayonida foydalaniladi. Rejalashtirishning bu usuli xo'jalik yuritishning o'zgarishi sharoitida to'liq ravishda xo'jalik yurituvchi muassasaning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini aniqlab olish imkoniyatini bermaydi va ularning haqqoniyligini ta'minlamaydi.

3. Balans usuli – balans usuli deganda o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning bog'lanishini va muvofiqlashtirilishini ta'minlash uchun foydalaniladigan usullar yig'indisi tushuniladi. Ushbu usullarning maqsadi – ko'rsatkichlar o'rtasida muvozanatga erishishdan iborat. Balans usuli milliy iqtisodiyotning va unda faoliyat yurituvchi muassasalarning rivojini tahlil va prognoz qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Uning yordamida moddiy va moliyaviy oqimni belgilash, ijtimoiy ehtiyojlar, bozorning moddiy ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning moddiy asosini yaratish uchun ishlab chiqarish turli omillarining zarur o'sishini hisoblab chiqish mumkin.

4. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar. Iqtisodiy-matematik usullar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni, iqtisodiyotning

muvozanatini tahlil qilish, iqtisodiy o'sishni prognoz qilishning o'ziga xos usullarini namoyon etadi. Quyidagilar muhim iqtisodiy-matematik modellar hisoblanadi: milliy hisoblar tizimi, balans jadvali, mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni taqsimlashning tarmoqlararo balansi, moliyaviy resurslar va xarajatlar balansi, tarmoq modellari va h.k. Chiziqli va chiziqsiz matematik dasturlash usullaridan ham keng foydalaniladi. Chiziqli dasturlash yordamida ishlab chiqarishni rejalashtirish vazifalari muvaffaqiyatli hal etiladi: belgilangan mehnat va moddiy resurslar bilan mahsulot ishlab chiqarishning optimal dasturini tuzish, uskunalarni optimal darajada ish bilan ta'minlash. Iqtisodiyotdagi bog'liqlarning aksariyat ko'pchiligi chiziqsiz xususiyatga ega. Shuning uchun dasturlashning chiziqsiz (parametrik), dinamik, stoxastik kabi boshqa turlaridan ham foydalanish mumkin.

5. Tizimli tahlil va sintez usuli. Strategik rejalashtirish usuli sifatida tahlil va sintezning o'ziga xosligi iqtisodiy tizimlar va ularda kechayotgan jarayonlarni ularning tarkibiy qismlariga ajratishdan iborat bo'lib, shu asosda istiqboldagi rivojlanishning muhim muammolari aniqlanadi. Turli darajalardagi tizimlarni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish bilan bog'liq yalpi muammolar istiqbolli yalpi tahlil orqali hal etiladi. Yalpi tahlil istiqboldagi rivojlanish oldida turgan muammolarni sintez qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Tahlil va sintez yagona uslubiy yaxlitlikni o'zida namoyon etadi. Tizimli tahlil va sintez rejalashtirishning balans va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil kabi barcha muammolarini hal etishda qo'llanilishi mumkin.

6. Rejali qarorlarni muvofiqlashtirish usuli. Bu usulning mazmuni shundaki, unga ko'ra rejalashtirilayotgan hisob-kitoblarni bir nechta variantda ishlab chiqqan holda ularning ichidan eng maqbulini tanlash imkoniyati paydo bo'ladi. Istiqbol rejalarini ishlab chiqish o'xshash modellar asosida amalga oshiriladi, hisob-kitob ishlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro bog'liq bo'lmagan omillar va bazaviy ko'rsatkichlarni o'zgartirilgani holda tayyorlanadi, natija esa bir necha variantda istiqbol rejasini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

6.2. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirish shakllari hamda modellari

Keyingi yillarda Respublikamizda bozor munosabatlari-ga asoslangan iqtisodiy tizim shakllantirildi hamda xususiy va aralash turdagi korxonalar tashkil etilib bozorning amal qiluvchi qoidalari doirasida bir-biri bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlar yo'lga qo'yildi. Shu davr mobaynida iqtisodchilar reja va bozorni uyg'unlashtirish muammosi borasida bahs-munozaralar olib bo-rishdi. Bozor munosabatlari haqiqatga aylangach, reja va bozor – bu bir-biriga qarama-qarshi unsur emasligi, balki iqtisodiy ti-zimning bir-birini to'ldiruvchi unsurlari ekanligi tushunib yetildi. Muvozanatlashgan umumdavlat rejalarisiz pul-kredit, soliq, boj-xona siyosati asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish qiyin bo'lishligi namoyon bo'ldi.

Davlat tomonidan rejalashtirilishi lozim bo'lgan obyektlar doi-rasi ancha keng. Birinchi galda bu ijtimoiy soha bo'lib, u o'ziga xos tarzda yondashuvni talab etadi. Bozorning mavjud bo'lishi ulushlar va tarkibiy siljishlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin va davlat ulushlarning qanday yuzaga kelishiga befarq emas. Ijtimoiy so-hada esa, eng asosiysi iqtisodiyotning kelgusidagi rivoji aholining turli ijtimoiy guruhlari turmushiga qanday ta'sir ko'rsatishini ol-dindan ko'ra bilish, ushbu ta'sirning salbiy tomonlarini aniqlash va muhtojlarni himoyalash choralarini ko'rishdan iborat.

Respublikamizdagi ijtimoiy soha muassasalari davlat budjeti va turli ijtimoiy yo'nalishda tashkil etilgan jamg'armalar orqali moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sohadagi muassasalar va tashkilotlar budjet tashkilotlari maqomida bo'lib, ularning faoliyati maqsad-li mablag'larni taqsimot qilish va aholining kam ta'minlangan qatlamiga zarur moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatish hisobla-nadi.

Budjet muassasasi Respublika hukumati tomonidan tashkil etilgan notijorat tashkiloti bo'lib, bu o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun davlat budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mab-lag' moliyalashtirishning asosi hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkilotidir.

Budjet muassasasida moliyaviy rejalashtirish o'zida uchta asosiy bo'linmani aks ettiradi:

- istiqboldagi moliyaviy rejalar;
- joriy moliyaviy rejalar;
- operativ tarzdagi moliyaviy rejalar.

Moliyaviy rejalarining vazifasi quyidagilar hisoblanadi:

— iqtisodiy subyektning faoliyatini ta'minlaydigan zarur moliyaviy resurslar hajmi va ularning manbalari aniqlanadi;

— maxsus pul mablag'lari miqdori va turlari, shuningdek, ularning ishlatilish yo'nalishlari va shakllantirish usullari belgilanadi;

— ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish mutanosibligini va zarur sur'atlarini ta'minlash maqsadida markazlashtirilgan va nomarkazlashtirilgan moliyaviy mablag'lar taqsimotining o'zaro maqbul nisbati o'rnatiladi;

— moddiy, mehnat va pul mablag'laridan oqilona foydalanish zaxiralari ochiladi;

— muassasa, tashkilot va korxona faoliyati moliyaviy-iqtisodiy faoliyati yuzasidan doimiy ravishdagi nazorat shakllantiriladi.

Moliyaviy rejalashtirishning tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy rejalashtirishning oshkoraligi va ommabopligi;
- moliyaviy rejalar bajarilishi yuzasidan nazorat;
- moliyaviy rejalashtirish jarayonlarida amaldagi qonunchilikka qat'iy ravishda amal qilish;
- moliyaviy rejalarni ilmiy asoslangan ravishda tayyorlash hamda ularning asoslanganligi va ishonchliligi;
- rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlarni haqiqiy ko'rsatkichlar bilan maksimal darajada tafovutini kamaytirish.

Shuni ta'kidlash joizki, budjet tashkilotlarining faoliyatidan maqsad daromad olish hisoblanmaydi, shuning uchun ularning rejalarida foyda va rentabellik kabi qiymat ko'rsatkichlari mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun foyda haqidagi reja emas, balki moliyaviy reja asosiy hujjat sifatida shakllantiriladi. Budjet tashkilotlarida bugungi kunda moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy boshqaruvning ikki modeli qo'llanilmoqda. Birinchisi, xarajatlar modeli bo'lib, unga ko'ra xarajatlarni boshqarish, ya'ni xara-

jatlarning barcha kichik ikir-chikirlarigacha nazoratni amalga oshirish bo‘lib, bu smeta bo‘yicha moliyalashtirish yoki «budjet resurslarini boshqarish» deb yuritiladi. Bunday moliyalashtirishda maqsadli moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot tomonidan maxsus kodlar orqali maqsadli moliyalashtirishni nazorat qilish tadbirlari hisoblanadi.

Moliyalashtirishning ikkinchi modeli natijalarni boshqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, budjet mablag‘lari oluvchilar darajasida «mablag‘-natija» ko‘rinishidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqaga asoslangan, bunda mablag‘lar maqsadli-dastur usuli doirasida ajratiladi. Natija esa aniq maqsadga ajratilgan mablag‘ yordamida bajarilgan pirovard tadbirlar hisoblanadi.

6.3. Budjet mablag‘larini tasarruf qiluvchilar va budjet mablag‘lari oluvchilarni xarajatlar rejasiga muvofiq moliyalashtirishning yo‘nalishlari

Mablag‘ bilan ta‘minlash budjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro‘yxati va smetasiga kiritiladigan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan budjet parametrlariga hamda budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan budjet xarajatlarning choraklar bo‘yicha taqsimlangan yillik ro‘yxatiga binoan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlash normativlari asosida smeta va shtatlar jadvalini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar. Smetalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to‘liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha tuziladi. Ilova smetaning ajralmas qismi hisoblanadi, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslash uchun xizmat qiladi va hisobot maqsadlari uchun foydalaniladi. Budjet tashkilotlari tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yoki uning hududiy moliya organlariga taqdim etadilar. Tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish,

ilovalarni kelishish taqdim etilgan hujjatlarning tasdiqlangan budget xarajatlari limitlariga va normativlariga hamda budget parametrlariga muvofiqligi tahlili asosida tegishli moliya organlarida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Budget tashkilotlarining tasdiqlangan smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish mazkur budget tashkiloti mablag' bilan ta'minlanadigan, budget parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirmay tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Budget tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek, amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o'zgartirishlar ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida yoki hududiy moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi.

Respublika budgetidan moliyaviy mablag'lar budget muassalariga davlat g'aznachilik tizimi orqali yo'naltiriladi. Davlat budgeti ijrosining g'aznachilik tizimida budget mablag'larini tasarruf qiluvchi va budget mablag'lari oluvchi muassasaning shaxsiy hisobvarag'i, xarajatlarni to'lashga ruxsatnoma, yuridik majburiyat va moliyaviy majburiyat kabi iqtisodiy terminlar qo'llaniladi.

Budget mablag'larini tasarruf qiluvchi xarajatlar smetasida o'zini saqlashga hamda yuridik maqomga ega bo'lmagan o'zining tasarrufidagi quyi tashkilotlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan (aniqlangan) reja bo'yicha budget mablag'larini oluvchi yuqori budget mablag'lari oluvchi tushuniladi.

Budget mablag'lari oluvchi deganda xarajatlar smetasida tashkilotni saqlashga va boshqa tadbirlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan (aniqlangan) reja bo'yicha budget mablag'lari oluvchi yuridik maqomga ega bo'lgan subyekt tushuniladi.

Budget mablag'larini tasarruf qiluvchining yoki budget mablag'lari oluvchining shaxsiy hisobvarag'i deganda, muayyan budget mablag'larini tasarruf qiluvchi yoki budget mablag'lari oluvchi uchun Moliya vazirligi g'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan ochiladigan, budget mablag'larini tasarruf qiluvchining yoki budget mablag'lari oluvchining budget va budgetdan tashqari mablag'larini belgilangan tartibda amalga oshiriladigan harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni qayd qilish uchun tayinlangan analitik hisob registri tushuniladi.

Xarajatlarni to'lashga ruxsatnoma deganda, budget mablag'lari oluvchi tomonidan Moliya vazirligi g'aznachiligiga yoki uning hududiy bo'linmalariga taqdim etilgan belgilangan tartibda tasdiqlangan unga berilishi ko'zda tutilgan budget mablag'lari miqdorini qayd qiluvchi hujjat asosida tuziladigan va shu ruxsatnomada o'rnatilgan davr ichida xarajatlarni to'lash uchun tegishli g'azna hisobvarag'idan budget mablag'larini tasarruf qiluvchi yoki budget mablag'lari oluvchi o'ziga ajratilgan budget mablag'larini sarflashi mumkinligi to'g'risidagi hujjat tushuniladi.

Yuridik majburiyat deganda tuzilgan xo'jalik shartnomasi (kontrakt) budget organining qarori natijasida yuridik shaxsning ikkinchi taraf oldida paydo bo'lgan mazkur yuridik shaxsning majburiyati tushuniladi.

Moliyaviy majburiyat deganda tovarning berilganligi; ishini bajarib topshirilganligi, xizmatini qilib berganligi, ish haqi hisoblanishi natijasida xodimlarga haq to'lash zarurligi, sud qaroriga muvofiq amalga oshirish kerakligi va boshqalarni tasdiqlovchi hujjatlar asosida ikkinchi taraf oldida paydo bo'lgan mazkur yuridik shaxsning majburiyati tushuniladi.

Budget mablag'lari oluvchilarning (yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchilarning) shaxsiy hisobvaraqlarida:

1) xarajatlar smetasida tashkilotni saqlashga va markazlashtirilgan tadbirlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan (aniqlangan) reja bo'yicha ajratiladigan budget mablag'lari;

2) yuridik maqomga ega bo'lmagan o'zining tasarrufidagi quyi tashkilotlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan (aniqlangan) reja bo'yicha ajratiladigan budget mablag'lari;

3) kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning oylik yoyilmasida nazarda tutilgan tasdiqlangan reja bo'yicha ajratiladigan budget mablag'lari;

4) zaxira fondi mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lar;

5) ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar;

6) budget mablag'lari oluvchilar yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchilar tomonidan taqdim etilgan moliyaviy majburiyatlar summasi;

7) xarajatlarni to'lashga ruxsatnomalar;

8) budget mablag'lari oluvchilar (yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchilar) tomonidan amalga oshiriladigan kassa xarajatlari hisobga olinadi. Budget mablag'lari oluvchilarning (yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchilarning) shaxsiy hisobvaraqlarida hisob davlat budjeti budget tasnifining bo'limlari, boblari va paragraflari bo'yicha olib boriladi.

Budget mablag'lari oluvchining (yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchining) shaxsiy raqam kodi avtomatik ravishda «Davlat budjeti g'azna ijrosi bo'yicha dasturiy majmua» orqali beriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kodlari belgilangan, jumladan, 03-Andijon viloyati; 06-Buxoro viloyati; 08-Jizzax viloyati; 10-Qashqadaryo viloyati; 12-Navoiy viloyati; 14-Namangan viloyati; 18-Samarqand viloyati; 22-Surxandaryo viloyati; 24-Sirdaryo viloyati; 26-Toshkent shahri; 27-Toshkent viloyati; 30-Farg'ona viloyati; 33-Xorazm viloyati va 35-Qoraqalpog'iston Respublikasi belgilash rejalashtirilgan.

Budget mablag'lari oluvchi (yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchi) budget mablag'lari bo'yicha o'zining shaxsiy hisobvarag'ini ochish uchun tegishli g'aznachilik organiga:

- budget mablag'lari oluvchi shaxsiy hisobvaraqlar ochish to'g'risidagi arizani, budget mablag'larini tasarruf qiluvchi esa o'zining shaxsiy hisobvaraqlar ochish to'g'risidagi arizasiga yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan quyi budget mablag'lar oluvchilarning ro'yxatini ilova qilib beradi (bu hisobvaraqlar ochish to'g'risidagi arizalarga mazkur g'aznachilik organi rahbarining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning ruxsat beruvchi yozuvi qo'yilgan bo'lishi kerak;

- xarajatlar smetasi nusxasi, jumladan vaqtinchalik va aniqlangan damda unga moliya organlarining mansabdor shaxslari tasdiqlagan va moliya organlarining muhri qo'yilgan zarur hujjatlarning ilovalari bilan, zaxira fondi mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalari nusxalarini;

- kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning oylik yoyilmasi, qurilishlarning manzilli ro'yxati (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro'yxati) nusxasi, qurilishlarning titul ro'yxati nusxasini;

– bir nusxada yuqori tashkilot tomonidan yoki notarial tasdiqlangan moliyaviy hujjatlarga imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan tashkilotning mansabdor shaxslarining imzo namunalari va shaxsiy hisobvaraqlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdagi tashkilotning muhri tushirilgan kartochnasini topshiradi.

6.4. Budjet tashkilotlarida xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan moliya organlari bilan o'zaro munosabatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budjet muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori va unga ilova qilingan «Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibi»ga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi 490-sonli, 2002-yil 30-dekabrdagi 455-sonli va 2004-yil 28-dekabrdagi 610-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi PQ-532-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-iyuldagi 148-sonli qarori bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan muvofiq budjet mablag'lari oluvchilar Davlat budjetidan mablag'lar bilan xarajatlarning 4 ta guruhi bo'yicha ta'minlanishi belgilab qo'yilgan:

1. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar).

2. Ish beruvchilarning ajratmalari.

3. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan manzilli ro'yxatlarga muvofiq).

4. Boshqa xarajatlar (oziq-ovqat, dori-darmonlar, kommunal xizmatlar va boshqa xarajatlar).

Budjet mablag'lari oluvchilarning smetalari bo'yicha iqtisod qilingan (foydalanilmagan) budjetdan ajratilgan rejalashtirilgan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) hisobot chora-gining oxirgi ish kunida rivojlantirish fondiga o'tkaziladi va belgilangan qonunchilik doirasida xarajat qilinadi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning budjetdan ajratilgan mablag'lardan iqtisod qilingan qismi moliya organi rahbarining

xulosasiga asosan ularning budjetdan tashqari mablag'lar rivojlantirish fondi talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlariga o'tkaziladi. G'azna hisobvaraqlaridan (hududiy g'azna hisobvaraqlaridan) davlat budjeti xarajatlarini to'lashni amalga oshirish uchun g'aznachilik organi tegishli bankka g'aznachilik organi boshlig'i va moliyaviy boshqarish vazifasini amalga oshiruvchi mas'ul shaxsning imzo nusxalari kartochkasini taqdim etadi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda, I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirilmaydi. Muayyan budjet mablag'lari oluvchi mablag' bilan ta'minlanadigan tegishli budjet bo'yicha I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun g'azna hisobvaraqlarida zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda hamda I va II guruh xarajatlari to'liq to'lab bo'lingandan so'ng uning IV guruh bo'yicha xarajatlarini to'lashga ruxsat etiladi.

IV guruh «Boshqa xarajatlar» bo'yicha mablag'larning sarflanishi o'rnatilgan limitlar doirasida belgilangan navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Hududiy g'azna hisobvarag'ida oziq-ovqat xarajatlari bo'yicha to'lanmagan mablag'lardan oshib qolgan mablag'lar mavjud bo'lgan xillarda, ushbu oshib qolgan mablag'lar doirasida dori-darmonlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning (budjet tashkilotlarining) shaxsiy hisobvaraqlarida chorak (yil) oxirida qolgan, iqtisod qilingan budjet mablag'lari (kapital qo'yilmalarning to'lovi uchun nazarda tutilgan ajratilgan mablag'lar bundan mustasno) budjet tashkilotlarining rivojlantirish fondiga o'tkazib beriladi.

Iqtisod qilingan budjet mablag'larining budjet tashkilotlarining rivojlantirish fondiga o'tkazilishi budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) tomonidan yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band qilinmagan ajratilgan budjet mablag'lari doirasida hisobot choragining keyingi oyi davomida amalga oshiriladi. Budjet mablag'larining iqtisodi tegishli o'tgan davr uchun belgilangan budjet mablag'lari limitlari va qabul qilingan yuridik majburiyatlar o'rtasidagi farq doirasida aniqlanadi. Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar ro'yxatga olinadi. Chek raqami im-

zo va muhr izi namunasi kartochkasida ro'yxatga olingan chek daftarchasi raqami va seriyalariga muvofiq bo'lishi lozim. Pul cheklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Banklar tomonidan cheklar bo'yicha naqd pul mablag'larini berish ularda imzo namunasi kartochkasida ko'rsatilgan imzo qo'yish huquqiga ega g'aznachilik organining mansabdor shaxslari imzosi va g'aznachilik organining muhri bilan tasdiqlangandan keyingina amalga oshiriladi. G'azna hisobvaraqlaridan mablag'lar berish uchun cheklarga g'aznachilik organi rahbari va mas'ul xodimining imzosi va g'aznachilik organining muhri qo'yiladi. Budjet mablag'lari oluvchilarga (budjet tashkilotlariga) faqat nomi ko'rsatilgan cheklar beriladi xolos. Nomi ko'rsatilgan cheklar bo'yicha naqd pullar faqat chekda ko'rsatilgan shaxsga beriladi. Nomi ko'rsatilgan cheklar bo'yicha budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) bosh buxgalteriga naqd pul berilishiga yo'l qo'yilmaydi. G'aznachilik organi pul cheklarining orqa tomonidagi summalar maqsadini tekshirishi lozim. Pul cheklarining orqa tomonidagi to'lov maqsadlari to'g'risidagi ma'lumot g'aznachilik organining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Budjet mablag'lari oluvchi (budjet tashkiloti) ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun naqd pul mablag'lari olishga g'aznachilik organiga budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) rahbari va bosh buxgalteri imzosi bilan, ikki nusxada ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun naqd pul mablag'lari olishga so'rovnoma va unga to'ldirilgan chek ilova qilingan holda taqdim qiladi. G'aznachilik organlarining moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi (guruhi) mas'ul xodimlari to'lov uchun so'rovnoma va boshqa hujjatlarni qabul qilishda ushbu hujjatlarning ikkinchi nusxasiga hujjatlarni qabul qilganligi to'g'risida o'z imzolarini qo'yadi va ular qabul qilingan ko'rsatgan holda budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) tegishli xodimiga qaytaradi.

Budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) naqd pul olish uchun moddiy javobgar shaxsga (kassirga) berilgan ishonchno-

mani g'aznachilik organlariga taqdim qilinadi. Naqd pul berilganidan so'ng reyestrning ikkinchi nusxasi (kassa chiqim jurnali) chek ijro etilganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan holda bank ko'chirmasi bilan birga g'aznachilik organiga qaytariladi. G'aznachilik organi bank ko'chirmasi, reyestr va chek koreshogiga asosan tegishli shaxsiy hisobvarag'iga belgi qo'yadi va budjet mablag'lari oluvchiga (budjet tashkilotiga) uning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma beradi, shu bilan birga, budjet mablag'lari oluvchi (budjet tashkiloti) buxgalteriyasida keyingi hisoblarni yuritish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun berilgan so'rovnomaning ikkinchi nusxasiga «to'landi» belgisini qo'yib budjet mablag'lari oluvchiga (budjet tashkilotiga) qaytaradi.

Budjet mablag'lari oluvchi (budjet tashkiloti) pul mablag'larini xarajatlar smetasida nazarda tutilgan summadan oshmagan, umumiy summaga yozilgan bir nechta chekni tan olish huquqiga ega. Buning uchun budjet mablag'lari oluvchi (budjet tashkiloti) o'ziga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik organiga tegishli sumмага so'rovnomalarni taqdim etadi.

Budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) naqd pul mablag'larini olish uchun cheklarni o'zlarining so'rovnomalari bilan ko'rsatilgan summalarga va umumiy summasi xarajatlar smetasining tegishli limitidan summalarga yozib beradi.

G'azna ijrosi bilan qamrab olingan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) o'tgan moliya yili bo'yicha to'lov Moliya yilining tugashiga besh kun qolgunga qadar (ya'ni, 26-dekabrgacha) budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari), tegishli moliya organlari va g'aznachilik organlari budjet mablag'larining har bir xarajatlar smetasi bo'yicha aniqlangan rejali budjet mablag'larini o'zaro solishtirishni amalga oshiradi va uch nusxada rejali budjetdan ajratilgan mablag'lar bo'yicha solishtirma dalolatnoma tayyorlaydi. Solishtirma dalolatnoma budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) rahbari va bosh buxgalteri (reja xizmati boshlig'i) tomonidan imzolana-di va tegishli moliya organiga tasdiqlash uchun taqdim qilina-di. Moliya organlari tomonidan tasdiqlangan solishtirma dalolatnomalarning nusxalari g'aznachilik organlariga taqdim qilinadi.

Rejali ajratilgan budjet mablag'lari summasida farqlar aniqlanmasa, u holda g'aznachilik organlari solishtirma dalolatnoma nusxasini tasdiqlaydi va ularni budjet mablag'lari oluvchilarga (budjet tashkilotlariga) qaytaradi, bunda solishtirma dalolatnomaning ikkinchi nusxasi g'aznachilik organlarida qoladi.

O'tgan moliya yili davlat budjetining g'azna ijrosini amalga oshirish uchun qo'shimcha davr keyingi yilning yanvar oyi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'rnatilgan tartibda qo'shimcha davr mobaynida o'tgan moliya yilini yakunlash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish muddatlarini belgilaydi.

Qo'shimcha davrda moliya organlari, g'aznachilik organlari hamda budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) tomonidan hisobot yili uchun davlat budjetining ijrosi bo'yicha: (1) budjetlararo hisob-kitoblarni tartibga solish; (2) budjet mablag'lari oluvchilarning (budjet tashkilotlarining) o'tgan moliya yili bo'yicha kreditor qarzlarni to'lash; (3) iqtisod qilingan budjet mablag'lari summasini budjet tashkilotlarining rivojlantirish fondlariga o'tkazish va (4) davlat budjeti ijrosi bo'yicha boshqa operatsiyalar amalga oshiriladi.

Qo'shimcha davrda barcha operatsiyalar solishtirilgan aniqlangan budjetdan ajratilgan mablag'lar asosida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha davrda kreditor qarzni to'lash va budjet tashkilotining rivojlantirish fondiga iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish g'azna ijrosi bilan qamrab olingan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) bo'yicha tegishli g'azna hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi.

Keyingi moliya yiliga o'tadigan kreditor qarzlari mavjud bo'lgan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) ularga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik organlariga qo'shimcha davrda operatsiyalar amalga oshirilguncha mahsulot yetkazib (ishlar bajarib, xizmatlar ko'rsatib) beruvchilar bilan 1-yanvar holatiga tuzilgan solishtirma dalolatnomalarni taqdim etadi.

Keyingi moliya yilida, qo'shimcha davr mobaynida g'azna hisobvarag'iga o'tgan moliya yilining budjet mablag'lari bo'yicha budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) qaytarilgan debitor qarzi summasiga budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) kassa xarajatlari kamaytiriladi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning (budjet tashkilotlarining) kommunal xizmatlari bo'yicha o'tgan moliya yiliga doir kreditor qarzlari to'lash, shu bilan birgalikda, ular bo'yicha shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish, o'tgan moliya yili limitlari doirasida qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha (dekabr oyi bo'yicha keyingi yilga o'tadigan qarzlardan tashqari) to'lovlar qo'shimcha davrda o'tgan moliya yili bo'yicha xarajatlar smetasida ajratilgan budjet mablag'lari qoldiqlari doirasida, xarajatlar smetasining kreditor qarz mavjud bo'lgan moddasidan amalga oshiriladi. Budjet mablag'lari oluvchilarning (budjet tashkilotlarining) mahsulot yetkazib (ishlar bajarib, xizmatlar ko'rsatib) berish bo'yicha tuzilgan boshqa shartnomalariga doir o'tgan moliya yiliga doir kreditor qarzlarning qoplanishi qat'iy ravishda xarajatlar smetasida nazarda tutilgan budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

O'tgan moliya yili bo'yicha xarajatlar smetasida ajratish nazarda tutilgan budjet mablag'lari summalaridan qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar summalari oshib ketgan hollarda g'aznachilik organlari bu haqda Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasining tegishli organlariga choralar ko'rish uchun ma'lumot beradi.

Topshiriqnomalarni g'aznachilik organlariga Moliya yiliga berilgan qo'shimcha davr tugashiga 5 ish kun qolgunga qadar taqdim etishlari lozim.

Qo'shimcha davrda kreditor qarzlari o'tgan moliya yili bo'yicha xarajatlar smetasining qaysi xarajat moddalari bo'yicha kreditor qarzlari mavjud bo'lsa, aynan shu xarajat moddalari bo'yicha qoplanadi. Budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) tomonidan o'tgan moliya yili hisobidan moliya yiliga qo'shimcha davrda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha to'lov topshiriqnomalarni to'ldirishda, ularning to'lov maqsadi ustunida «20 yil bo'yicha kreditor qarzni qoplash» yozuvi yozib qo'yilishi shart. Qo'shimcha davr mobaynida budjet tashkilotlari tomonidan kreditor qarzlarning qoplanishi yoki iqtisod qilingan mablag'larni budjet tashkilotining rivojlantirish fondi hisobvarag'iga o'tkazilishi bo'yicha to'lov topshiriqnomalarga rasmiylashtirishda, to'lov topshiriqnomalarining to'lov maqsadi

ustunida «o'tgan yilning kreditor qarzlari qoplash» yoki «o'tgan yilda iqtisod qilingan mablag'larni budjet tashkilotining rivojlantirish fondiga o'tkazish» yozuvi yoziladi. Qo'shimcha davrda o'tgan moliya yili bo'yicha iqtisod qilingan mablag'larning budjet tashkilotining rivojlantirish fondiga o'tkazilishi bo'yicha to'lov topshiriqnomalari tegishli g'aznachilik organiga qo'shimcha davr tugashiga 5 ish kuni qolgunga qadar taqdim qilinadi. Bunda, iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalariga: (1) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlanadigan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) tegishli hududiy moliya organining xulosasini (2) respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) muayyan budjet mablag'lari oluvchining (budjet tashkilotining) rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va iqtisod qilingan mablag'lar summasi ko'rsatilgan xatni taqdim etishlari lozim. «Quyidagilar zaxira fondidan ajratilgan mablag'larning ishlatilmagan qismining qaytarilishi», o'tgan moliya yili uchun davlat tashqi qarzlarning qoplanishiga yo'naltirilgan to'lovlar bo'yicha esa «O'tgan yil uchun davlat tashqi qarzlari qoplash hisobiga mablag'larning o'tkazilishi» yozuvi yoziladi.

Qo'shimcha davr tugagunga qadar budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) tomonidan kreditor qarzlarni qoplanishi va ularning depozit hisobvaraqlarida (shaxsiy hisobvaraqlarida) budjet mablag'lari bo'yicha qolgan iqtisod qilingan budjet mablag'larini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalari taqdim qilinmagan taqdirda bu mablag'lar o'z maqsadini yo'qotadi va yangi moliya yilida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) bo'yicha foydalanilmagan budjet mablag'lari qo'shimcha davr tugaguniga qadar respublika budjetining asosiy hisobvarag'iga qaytariladi. Bunda, to'lov topshiriqnomaning to'lov maqsadi ustunida «respublika budjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan o'tgan yilda foydalanilmagan mablag'lar» yozuvi yozilishi shart. Qo'shimcha davrda kreditor qarzni to'lash, shuningdek, budjet tashkilotlarining rivojlantirish fondiga iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish bo'yicha

operatsiyalar o'tgan moliya yilining kassa xarajatlari sifatida hisobga olinadi. G'aznachilik organlari qo'shimcha davrda amalga oshiriladigan: (1) kreditor qarzlarni to'lash; (2) budjet tashkilotlarining rivojlantirish fondiga iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish; (3) respublika budjetiga ishlatilmagan mablag'larni qaytarish kabi operatsiyalar hisobini olib boradi, qo'shimcha davr yakunlangandan so'ng g'aznachilik organlari o'rnatilgan muddatlarda va tartibda tegishli Moliya vazirligiga yoki hududiy moliya organlariga qo'shimcha davrda amalga oshirilgan operatsiyalar summalari to'g'risidagi ma'lumotni taqdim qiladi. G'aznachilik organlari tomonidan taqdim qilingan yig'ma ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga o'rnatilgan muddatlarda taqdim qilinadi.

Budjet mablag'larining erkin qoldiqlari: (1) hududiy g'azna hisobvaraqlaridagi moliya yili yakuniga mavjud qoldiq mablag'lari (Budjetdan tashqari Pensiya fondi mablag'lari, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun ota-onalarning to'lovlari hamda musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun to'lovlar, moliya yiliga qo'shimcha davrda amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olgandan tashqari) hududiy g'azna hisobvaraqlaridagi mavjud mablag'lar doirasida; (2) O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar bo'yicha moliya yili yakuniga, qo'shimcha davrda amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Keyingi moliya yiliga o'tadigan kreditor qarzlari mavjud bo'lgan budjet mablag'lari oluvchilar (budjet tashkilotlari) ularga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik organlariga qo'shimcha davrda operatsiyalar amalga oshirilgandan keyingi holatga (ya'ni 1-fevral holatiga) mahsulot yetkazib (ishlar bajarib, xizmatlar ko'rsatib) beruvchilar bilan tuzilgan solishtirma dalolatnomalarni taqdim etadi. O'tgan moliya yili bo'yicha xarajatlar smetasi hisobidan kreditor qarzlarni qoplashning imkoniyati bo'lmagan hollarda, kreditor qarzlarning qoplanishi qo'shimcha davr tugagan-

dan so'ng budget tashkilotlarining rivojlantirish fondi mablag'lari hisobidan, budget tashkilotining rivojlantirish fondida mablag'lar mavjud bo'lmaganda yoki yetarli bo'lmagan hollarda esa keyingi moliya yilining xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda, keyingi moliya yili xarajatlar smetasining tegishli moddasi bo'yicha qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar summasi o'tgan yilgi kreditor qarzlar summasini qoplashga yo'naltirilgan summaga majburiy yo'naltirish bilan o'tgan yilda qoplanmagan kreditor qarzlari summasiga kamaytiriladi.

Tayanch tushunchalar:

Rejalashtirish usullari, Me'yorlashtirish (normativ) usuli, hisob-tahlil usuli, balans usuli; iqtisodiy-matematik usullar; Tizimli tahlil va sintez usuli; rejali qarorlarni muvofiqlashtirish usuli, Budget muassasasi, xarajatlar ro'yxati va smetasi, to'lov topshiriqnomalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy soha muassasalarida rejalashtirishning qanday usullari mavjud?

2. Moliyaviy rejalashtirishda qanday tizimli me'yorlar va normativlar qo'llaniladi?

3. Rejalashtirish usullarining farqli jihatlari nimada?

4. Budget muassasasida moliyaviy rejalashtirish o'zida qanday bo'linmalarni aks ettiradi?

5. Moliyaviy rejalarning vazifalari nimalardan iborat?

6. Budget mablag'lari oluvchilarni xarajatlar rejasiga muvofiq moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari.

7. Budget mablag'larini tasarruf qiluvchi organlar vazifalari nimalardan iborat?

8. Budget mablag'lari oluvchilarning (yoki budget mablag'larini tasarruf qiluvchilarning) shaxsiy hisobvaraqlarida nimalar qayd etiladi?

9. Budget tashkilotlarida xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan moliya organlari bilan o'zaro munosabatlarini tushuntiring.

VII bob. MAHALLIY BUDJET MABLAG‘LARI HISOBIDAN IJTIMOIIY HIMOYA XARAJATLARINI ISTIQBOLLASHTIRISH VA MOLIALASHTIRISH

Reja:

1. Davlat budjeti tarkibidagi mahalliy budjetlarning vazifalari.
2. Mahalliy budjetlarning tarkibiy tuzilishi.
3. Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini ishlab chiqish tartibi.

7.1. Davlat budjeti tarkibidagi mahalliy budjetlarning vazifalari


Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida o‘z tasarrufidagi hududlarni har tomonlama va barqaror rivojlantirish, sanoatning izchil taraqqiy topishini ta‘minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va mahalliy mehnat bozorini tashkil etish masalalarida mahalliy hokimiyat va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining roli o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet siyosatining ahamiyati, budjet jarayonlarida mahalliy budjetlarning roli, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati, moliya va budjet siyosati masalalari hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti va mahalliy budjetlar muammolarini hal etishning dolzarb masalalaridir. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish mahalliy budjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Mahalliy budjetlar Davlat budjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy budjetlar daromadlarni oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga juda katta hissa qo‘shish bilan bir qatorda xalqimiz farovonligining oshishiga hamda mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq qo‘shilishiga yordam beradi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mahalliy hokimiyatlar vakolatini kengaytirish asosida boshqaruv organlari faoliyatini isloh qilish islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘z navbatida, mahalliy hokimiyatlari vakolatini kengaytirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri budjet jarayonidagi vakolatlarini oshirish

bilan bevosita bog'liq, chunki, mahalliy budjetlar hokimiyatlar faoliyatida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun iqtisodiy negiz hisoblanadi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarning samarali boshqarilishini talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir. Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldi olinishidir, ikkinchidan, mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, «Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy inqirozlarsiz hal etish mahalliy budjetlar daromad bazasining barqarorligini, shu jumladan, ulardagi investitsion, soliq, valuta imkoniyatlarining bir tekis taqsimotini talab etadi va bu nisbatdoshlikda hududlarning iqtisodiy faolligi rag'batlantirilishi lozim». Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy budjetlarning shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy va huquqiy rolini oshirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budjetlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, budjetga «bu — turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat» deb ta'rif berilishida aynan mahalliy budjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy

va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi. Mahalliy budjetlar mahalliy hokimiyatning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi, davlatning ijtimoiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Moddiy ma'noda budjet tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budjet hisobidan moliyaviy ta'minlash deganda budjetning aynan ana shu moddiy ma'nosi ko'zda tutiladi. Budjet huquqiy kategoriya sifatida tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan, huquqiy me'yorlardan iborat asosiy moliyaviy rejadir. Ma'lumki, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Huquqiy bazalarni ta'minlash yuridik va jismoniy shaxslarga huquq berish va ularning majburiyatlarini belgilash va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mahalliy budjetlarni samarali boshqarish, huquqiy va iqtisodiy me'yorlarni belgilash va korxonalarning faoliyat ko'rsatishlari uchun tartib-qoidalarini ishlab chiqish tegishli davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Shunday ekan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar,

chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy zaxiralarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat budjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalarni bajaradi (1-chizмага qarang).

1-chizma



O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Shunday ekan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy davlat hokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli budjetlarni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, o'z hududidagi davlat idoralari, korxonalari, tashkilotlar, moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tegishli ma'muriy hududiy birlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi tadbirlar ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, pul-kredit siyosatini

amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi. Budget tamoyillarining barchasi budget barqarorligini ta'minlash va xo'jalik sohalari, iqtisodiy hududlar o'rtasida mablag'larni taqsimlash, zarur nisbatlarni (proporsiyalarni) tashkil qilish, budget xarajatlarini daromadlariga mos balanslashtirish, moliyaviy rezervni tashkil qilish uchun xizmat qiladi. Bu esa davlat moliyaviy siyosatining bosh maqsadidir. Albatta, ushbu ishlarni amalga oshirish asosan mahalliy budgetlar mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotganligidan hammamiz xabardormiz. Aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budgetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Shunday ekan, mahalliy budget daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini moliyalashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budgetlarning roli O'zbekiston uchun «hududiy iqtisodiyot», «Munitsipal iqtisodiyot», «Munitsipal tuzilma», «Munitsipalitet» atamalari ma'lum darajada yangi tushuncha hisoblanadi. Sobiq Sovet nazariyasi va amaliyotida an'anaga ko'ra, shahar va tumanga faqat ma'muriy hududiy bo'linish nuqtayi nazaridan yondashilgan. Iqtisodiyot ko'proq milliy darajada tilga olingan. Tuman va shahar darajasi haqida so'z ketganda esa, asosan «mahalliy xo'jalik» atamasi qo'llanilgan. Mahalliy xo'jalikka, o'z navbatida, kommunal xo'jaligi korxonalari majmui, ba'zan esa mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlarining obodonchilik ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyati deb qaralgan. Maxsus adabiyotlarda «Munitsipal iqtisodiyot» tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shunga qaramay mahalliy sohaga bog'liq iqtisodiy masalalar bilan ishlashda qulaylik tug'dirish nuqtayi nazaridan mazkur tushunchadan foydalanilgan. Mazkur tushunchani iqtisodiyotda ma'lum makonda ro'y bergan hodisalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan jahon iqtisodiyoti, davlat iqtisodiyoti, mintaqaviy iqtisodiyot, korxona iqtisodi, oila iqtisodi singari o'xshash tushunchalar qatorida qo'llash mutlaqo tabiiy tuyuladi. Ya'ni mahalliy tuzilmaga xos bo'lgan muayyan shahar, tuman hududlari-

dagi iqtisodiy jarayonlarni ifodalash uchun shahar yoki tuman iqtisodi hamda «munitsipal iqtisodiyot» singari tushunchalar mutlaqo tabiiy bo'lib ko'rinadi. Bundan tashqari, mahalliy o'z-o'zini boshqarishga mamlakatning rivojlanish resursi deb qaralsa bu tushuncha zaruriyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni paytda, «munitsipal iqtisodiyot» tushunchasi mahalliy miqyosda sodir bo'ladigan jarayonlar miqyosidagi iqtisodiy hodisalarni o'rganish uchungina zarur emas. «Munitsipal iqtisodiyot» tushunchasi-ning mazmuni masalasi bugungi kunda bahsli bo'lib qolmoqda. Ma'muriy boshqaruvning an'anaviy sxemalari nuqtayi nazaridan sodda va tushunarli bo'lgan birinchi qarashga ko'ra, munitsipal iqtisodiyot — mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan bevosita nazorat qilinadigan barcha iqtisodiy jarayonlardan iborat. Boshqacha aytganda, munitsipal iqtisodiyot predmetini faqatgina munitsipal xo'jalikni, ya'ni munitsipal tuzilma ixtiyorida bo'lgan mulkni va mahalliy budjetni boshqarish tashkil etadi. Hudud doirasida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy korxonaning rivojlanish yo'nalishlarini e'tiborga olmasdan, munitsipal tuzilmaning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash mumkin emas. Munitsipal iqtisodiyotning predmetiga nisbatan ikkinchi qarash mahalliy hokimiyatga tobe korxona va obyektlar ro'yxati bilan emas, balki hal qilinadigan vazifalar yoki bajariladigan funksiyalar ro'yxati bilan belgilanadi. Mazkur xizmatlarning mahalliy xususiyatidan kelib chiqib, ular munitsipal xizmatlar deb ataladi. Uy-joy kommunal, transport va ijtimoiy-madaniy xizmatlar majmui, jamoat tartibini saqlash, obodonchilik masalalari, shahar va tumanlar hududida ekologik muvozanat va tozalikni ta'minlash munitsipal xizmatlar jumlasiga kiradi. Bunday yondashuvdan kelib chiqib, munitsipal iqtisodiyot bu aholiga xizmatlar ko'rsatish iqtisodiyoti deb xulosa chiqarish mumkin. Munitsipal xizmatlar ko'rsatishga hududning barcha iqtisodiy resurslarini safarbar qilish munitsipal iqtisodiyotning faoliyatidir. Munitsipal iqtisodiyotning mazmuniga berilgan mazkur ta'rif birinchi ta'rifga qaraganda maqbulroq bo'lsada, u munitsipal iqtisodiyotning predmetini munitsipal xizmatlar ko'rsatish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar bilan bog'laydi. Uchinchi qarashga muvofiq, «munitsipal iqtisodiyot» — hudud doirasida sodir bo'luvchi va aholining farovonligiga

ta'sir ko'rsatuvchi barcha iqtisodiy jarayondir. Munitsipal iqtisodiyotning mazmunini ta'riflashga nisbatan mazkur yondashuv jarayonlarni boshqarish ehtiyoji deb ta'riflangan tushuncha maqsadlari haqidagi umumiy tasavvurlardan kelib chiqadi. Mahalliy miqyosda, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish miqyosida jarayonlarni boshqarishning umumiy maqsadi — aholining farovonligini oshirish, ayni paytda, hamda istiqbolda ham ta'minlashdir. Mazkur maqsadga faqat iqtisodiy farovonlik asosida erishish mumkin. Iqtisodiy farovonlik hududda yashaydigan fuqarolarning iqtisodiy farovonligidan, hududda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy farovonligidan va munitsipal tuzilma — ma'lum ijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy farovonligidan tashkil topadi. Tabiiyki, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, munitsipal tuzilma hududida joylashgan barcha korxonalarda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar kiradi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari mazkur jarayonlarning barchasini bevosita boshqara olmaydi. Ammo, aholi farovonligini ta'minlashning ta'riflangan maqsadlari nuqtayi nazaridan, mazkur jarayonlarga befarq qarash mumkin emas, chunki yuqorida zikr etilgan korxonalarda ishlaydigan odamlarning farovonligi avvalambor, mana shu jarayonlarga bog'liq. Agar korxona mahalliy tuzilma hududida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, u fuqarolarning farovonligini kamida uch usulda belgilaydi:

- ish joylari bilan ta'minlaydi;
- munitsipal tuzilma budjeti uchun soliq negizini ta'minlaydi;
- munitsipal tuzilma hududida yashaydigan xodimlarning daromadlarini ta'minlaydi.

Munitsipal tuzilma va unda yashaydigan aholining rivojlanish istiqbollari shahardagi asosiy korxona yoki tarmoqning samarali faoliyat ko'rsatishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ayni holda, munitsipal tuzilma hududidagi iqtisodiy jarayonlar haqida gapirganda, shaharni hosil qiluvchi asosiy korxonalar iqtisodini ko'rib chiqish va e'tiborga olish zarur. Ya'ni, munitsipal iqtisodiyot tushunchasi munitsipal xo'jalik bilangina kifoyalanmasdan, hududdagi barcha jarayonlarni o'z ichiga olishi shart. Munitsipal iqtisodiyot tushunchasiga bunday qarash yana bir jihatdan muhim. U mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish

organlarining vakolatlari doirasiga kirmaydigan iqtisodiy jarayonlarni boshqarish masalalarini ham ko'rib chiqishga majbur qiladi. Munitsipal iqtisodiyotning rivojlanishi, uning mahalliy aholi farovonligini ta'minlash qobiliyati munitsipal iqtisodiyot subyektlari orasidagi aloqalar samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liq. Hududlardagi mahalliy budjetning ahamiyati esa uning bajaradigan vazifalari orqali namoyon bo'ladi. Mahalliy budjetlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hududiy boshqaruv organlari faoliyatini moliyaviy ta'minlaydigan pul fondlarini shakllantiradi;
- mazkur mintaqaning xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida bu fondlarni taqsimlaydi va ishlatadi;
- mahalliy hokimiyat organlariga bo'ysunadigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi.

Viloyat budjeti unga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi. Tumanlarga bo'linadigan shaharning budjeti shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o'z ichiga oladi. Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning budjeti tuman budjetini va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi. Shu tariqa, mahalliy budjetlar har bir mahalliy davlat hokimiyati organining faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydigan aniq moliya bazasini yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talabni iloji boricha e'tiborga olinishiga imkon beradi, davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyaviy ta'minlashni to'g'ri hisobga oladi. Mahalliy hokimiyat organlari doimiy ravishda mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirishga va bu mablag'larni iqtisod qilib ishlatishga harakat qiladilar, chunki joylarda iqtisod va madaniyatning o'sish sur'atlari to'g'ridan to'g'ri mahalliy xo'jalik zaxiralarini qay tarzda yo'naltirishga, o'z navbatida, aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini samarali ijro etishda katta rol o'ynaydi. Budjet tizimi yagonaligi tamoyili haqida gap ketayotgan bo'lsa, huquqiy baza, budjet tasnifi, budjet hujjatlari shakli, budjet jarayoni tamoyillari, pul tizimi birligi, Davlat budjeti mablag'lari bilan hisob yuritish, hisobot tayyorlash va nazorat qilishda yagona tartib amal

qiladi. Amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, barcha daromadlar va xarajatlar davlat budjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlanadi. Budjet daromadlari va xarajatlarini taqsimlash deganda, har bir darajadagi budjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlangan hamda moliyaviy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan islohotlarni hozirgi davrida davlat moliyasi va ayniqsa, budjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi». Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida budjetning va mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi.

7.2. Mahalliy budjetlarning tarkibiy tuzilishi

Davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlarni qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan, aholining turmush darajasini ko'tarish uchun rejalashtirilgan, ijtimoiy vazifalarni bajarishga ajratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga qaratilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Ushbu umumdavlat xarajatlari budjet orqali moliyalashtirilishi barchamizga ayon. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budjetlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir mamlakat budjetining tarkibi avvalo uning davlat qurilishiga bog'liqdir. Unitar tuzumga ega bo'lgan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bo'g'inli qurilmaga — davlat

budjeti va mahalliy budjetlarga ega bo'ladi. Federativ tuzumga ega bo'lgan mamlakatlarda (AQSH, GFR) oraliq bo'g'in – shtatlar, o'lkalar (viloyatlar) va ularga muvofiq ma'muriy tuzilmalarining shtatlari mavjud.


Budjet tizimi bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, ma'muriy-hududiy tuzilishlarning, budjet munosabatlarida mustaqil bo'lgan davlat tashkilotlari va fondlarining majmuidir. Budjet tizimi davlat moliyaviy tizimining asosiy zvenosi hisoblanadi. Quyidagi chizmada O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari berilgan (2-chizmaga qarang). O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Shunday ekan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat budjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari vazifalariga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

2-chizma

O'zbekiston Respublikasi Mahalliy budjetlari tuzilishi



7.3. Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini ishlab chiqish tartibi

Mahalliy budjet daromadlari mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi bo'lib xizmat qiladi, xarajatlar esa mintaqaviy ehtiyojlarni ta'minlaydi. Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari alohida mustaqil kategoriya hisoblanadi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mamlakatimiz

demokratik Davlat qurilishini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan ekan, bunda mahalliy o'z-o'zini boshqarish muhim o'rin tutadi. Mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirish bevosita ularni moliya-budjet huquqlarini oshirishni, ularga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda yetarli mablag'lar bilan ta'minlashni talab etadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mahalliy budjetlar, daromadlar va xarajatlar tarkibi ma'lum o'zgarishlarga duch kelmoqdaki, budjet xarajatlarini minimal xarajatlar bilan maksimal samaraga erishish, budjet ajratmalarini ishlatishning maqsadli xususiyati, budjet mablag'larini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini bajarish o'lchami va oldin berilgan ajratmalardan foydalanishni hisobga olib borish kabi tamoyillar asosida moliyalashtirilmoqda. Iqtisodiyotimizning hozirgi sharoitidan kelib chiqqan holda, budjet tizimining barcha bo'g'inlarini boshqarishni takomillashtirishning muhim xarakterli tomonlari mavjud.

Birinchidan, ijtimoiy soha xarajatlarini, o'z vaqtida va kerakli miqdorda moliyalashtirish uchun budjetga yetarli bo'lgan tushumlarni ta'minlash lozim.

Ikkinchidan, aholining birinchi navbatdagi ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan iqtisodiy sohalarini zarur darajada rivojlantirishni ta'minlash lozim.

Uchinchidan, tadbirkorlar xo'jalik faoliyatini rag'batlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish lozim. Bugun mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatimizning budjet-soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada ularni yanada qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati idoralarining barcha bo'g'inlari o'z budjetlarini tayyorlash va ijro etishda mustaqil bo'lsalarda, budjet loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish, tasdiqlash, qabul qilish va ijro etish masalalarini tartibga soluvchi protsessual huquqiy qoidalar, barcha budjet bo'g'inlari uchun umumiy bo'lgan tartiblar belgilab qo'yilgan. Bunday umumiy qoidalar O'zbekiston budjet qonunchiligi bilan belgilangan bo'lib, ularning mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Budjetlar muayyan hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbolini belgilash ko'rsatkichlari hamda dasturlariga muvofiq ravishda amalga oshirilib, budjet loyihasi tayyorlanguniga qadar tegishli milliy-davlat hamda ma'muriy-hududiy birliklar taraqqiyoti rejalari, taxminlari ishlab chiqiladi. Ular asosida hokimiyatning ijroiya idoralari tegishli budjetning daromadlari, xarajatlari, jamlama budjet, quyi hududiy idoralarning minimal budjet ko'rsatkichlari to'g'risida hokimiyatning vakillik idoralariga takliflar hamda axborotlar taqdim etadi. Bunday axborotlarning taqdim etilish muddatlari va tartiblari qonunchilik yo'li bilan belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tegishli hokimiyatlarning ijroiya va vakillik idoralariga belgilab qo'yilgan muddatlarda keyingi yil budjetining o'ziga xos xususiyatlari, budjet loyihasi hisob-kitoblari, ijtimoiy va moliyaviy me'yorlari haqida xabarlar yuboradi.

Budjet loyihasi tayyorlanayotgan paytda quyidagilar asos qilib olinadi:

- tartibga solinadigan daromadlardan ajratiladigan ulush (foiz)lar loyihasi va bu daromadlar tarkibi;
- tegishli yuqori turuvchi budjet hisobiga amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan dotatsiya va subvensiyalar ko'rsatkichlari;
- tegishli hududiy budjet daromadlari ro'yxati va bu daromadlarning hissasi (foizda);
- yuqori turuvchi budjet birligi tomonidan berilgan xarajatlarning ro'yxati.

2. Hokimiyatning ijroiya idoralari o'zlariga yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan budjet ko'rsatkichlarini chuqur va har tomonlama tahlil qiladi, ularga aniqlik hamda tuzatishlar kiritish xususida o'z taklif-mulohazalarini bildirishlari mumkin bo'ladi. Budjet loyihasiga aniqliklar va o'zgartirishlar kiritishlar to'g'risida taklif-mulohazalar tegishli yuqori turuvchi ijroiya idoralari tomonidan ko'rib chiqiladi va ular rad etilgan taqdirda manfaatdor ijroiya organ ishtirokida mavjud kelishmovchiliklar to'g'risida tegishli bayonnoma tuziladi. Bayonnomada budjet loyihasiga tuzatish kiritish asoslari ham, bu takliflarni rad etish asoslari ham ko'rsatiladi. Kelajakda ushbu muammoni hal qilish uchun tegishli

quyi va yuqori hokimiyat vakillik idorasi o'rtasida o'zaro tenglik (paritet) asosida kelishtirish komissiyasi tashkil etiladi va uning kelishmovchilik bo'yicha qabul qilgan qarori quyi va yuqori ijroiya idoralariga ma'lum qilinadi.

3. Tegishli hududni rivojlantirish rejalari va istiqbol ko'rsatkichlari asosida ijroiya idora hokimiyat vakillik idorasiga budjet xarajatlari yuzasidan moddama-modda takliflar taqdim etadi. Ayni paytda budjet daromadlarini belgilash yuzasidan ham o'z hisob-kitoblarini ma'lum qiladi. Bu takliflar tegishli vakillik idorasi qo'mitalari va komissiyalarida maqsadga muvofiqligi, dolzarbligi, ularni moliyaviy va moddiy jihatdan ro'yobga chiqarish mumkinligi nuqtayi nazaridan qaralgan holda muhokama etiladi.

4. Budjetlarni tasdiqlash daromadlar va xarajatlarning har bir moddasini muhokama qilish, ular yuzasidan qaror qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Budjetlarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tegishli budjet tasnifiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

3-chizma

Mahalliy budjetning tartibga solinadigan daromadlari




5. Budget loyihasini tayyorlashga oid amaliy ishlar tegishli moliya idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Turli darajadagi budgetlarning barcha daromad manbalari va xarajat yoʻnalishlari belgilanadi. Budget tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

6. Budgetlarni qabul qilish Oʻzbekiston Respublikasining «Budget tizimi toʻgʻrisida»gi qonun bilan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi budgeti Qoraqalpogʻiston Respublikasi Juqorigi Kengesi qonuni bilan, mahalliy budgetlar esa tegishli xalq deputatlari kengashlari qarorlari bilan rasmiylashtiriladi

4-chizma

Mahalliy budget daromadlarining manbalari



Mahalliy budget — Davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablagʻlari jamgʻarmasini tashkil etuvchi qismi boʻlib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Moliya yili — 1-yanvardan 31-dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Respublika budjeti — Davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Tayanch tushunchalar:

Davlat budjeti, mahalliy budjet, hududiy iqtisodiyot, hududiy birlik, munitsipal iqtisodiyot, budjet tizimi, mahalliy ehtiyojlar, mahalliy budjet vazifalari, budjet tizimi yagonaligi, budjet qurilishi, minimal xarajat, maksimal natija.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Davlat budjeti tarkibidagi mahalliy budjetlarning vazifalari.
2. «Munitsipal iqtisodiyot» tushunchasining mazmunini qanday ifodalash mumkin?
3. Mahalliy budjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli qanday?
4. Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari qanday sohalar-ga yo'naltiriladi?
5. Mahalliy budjetning tartibga solinadigan daromadlari nimalardan iborat?
6. Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini ishlab chiqish tartibi qanday amalga oshiriladi?

VIII bob. BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASINING IJTIMOIIY SOHA RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI VA O'RNI

Reja:

1. Budjetdan tashqari fondlarning mohiyati va ahamiyati, ularning turlari.
2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mohiyati va vazifalari.
3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari.

8.1. Budjetdan tashqari fondlarning mohiyati va ahamiyati, ularning turlari

Mamlakat iqtisodiyotida Budjetdan tashqari fondlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyati yuqori bo'lib, u umumiy davlat moliyasining tarkibiy qismi sifatida davlat tomonidan maqsadli dasturlarni moliyalashtiriladigan asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda ayni paytda ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, bandlik jamg'armasi, Budjetdan tashqari Pensiya Jamg'armasi kabi budjetdan tashqari maxsus ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar mavjud. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida 20 tadan ortiq ishlab chiqarish bilan bog'liq budjetdan tashqari fondlar va jamg'armalar mavjud bo'lib, ular o'z yo'nalishlari va xususiyatlaridan kelib ma'lum bir doiradagi tadbirlarni moliyalashtirish kabi muhim vazifani bajaradi. Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy muhofaza tadbirlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga xizmat qilib, Respublikada tarmoqlararo manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarga mo'ljallangan moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Umumdavlat miqyosida moliyaviy resurslarni tashkil etishning muhim ko'rinishi bo'lib, davlat va mahalliy budjetlar tomonidan mablag'larni shakllantirish va ularni to'plash hisoblanganda, Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar tashkil etish ham muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Tarmoqlar doirasida, ayniqsa, ijtimoiy himoya tadbirlarini amalga oshirish jarayonida

moliyaviy resurslarni cheklanganligi, zaxiraviy moliyaviy resurslarni hosil qilish va uni qayta taqsimlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalarni shakllantirish, budjet taqchilligini oldini olishda ham muhim omil bo'ladi, xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi, ularni qoplash uchun nafaqat qo'shimcha moliyaviy resurslarni qidirib topishni, shuningdek, korxona, tashkilot, muassasalarda tushadigan resurslarni qayta guruhlarga ajratish asosida xarajat turlarini kamaytirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, xo'jalik yuritish shakllarining xilma-xilligi sharoitida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlanishini budjet usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bajaradigan vazifalariga muvofiq Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar iqtisodiy va ijtimoiy boshqarish darajasiga qarab esa davlat hamda mintaqaviy fondlarga bo'linadi.

Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar yordamida, korxonalar ishlab chiqarish jarayoniga moliyalashtirish, subsidiyalash, kreditlash orqali ta'sir etish maxsus yo'naltirilgan manbalar va jarimalar orqali ijtimoiy yo'nalishdagi turli tadbirlarini belgilash va moliyalashtirish kabi chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar faoliyatini tashkil etish davlat hokimiyat organlari respublika va mahalliy organlar tomonidan amalga oshiriladi. Ularni shakllantirish va foydalanish tegishli qonunchilik asosida tartibga solinadi. Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalarni shakllantirish ularning bajarilayotgan vazifalariga va faoliyat xarakteriga bog'liq bo'ladi. Manbalar va ularning miqdorlari muayyan davrdagi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy holatiga ta'sir etadi.

Shunday qilib, Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar shakllantirish manbalari doimiy nisbiy, shuningdek, vaqtinchalik xarakterga ega. Ular davlatning turli hududlarida ma'muriy birliklar bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Budjetdan tashqari tashkil etilgan jamg'armalar tushadigan mablag'larning sarflaniishi konkret iqtisodiy vaziyatlardan kelib chiqib hamda ishlab chiqilgan va tatbiq etilayotgan dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Mablag'larning ayrim qismi ta'sischi faoliyatiga ham yo'naltiriladi.


8.2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mohiyati va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi «Fuqarolarning Pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-№4161-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2009-yildagi «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PQ-1252-sonli qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, u Moliya vazirligi huzurida faoliyat yuritishi belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuzilishiga va tashkiliy asosiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari ijtimoiy ta'minot tuman (shahar) bo'limlari bazasida tashkil etilib, ularning huquqiy vorislari sifatida tashkil etildi.


2010-yil 19-fevralda Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi «Fuqarolarning Pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-№ 4161-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2009-yildagi «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PQ-1252-sonli qarorida keltirilgan topshiriq va vazifalarni bajarish yuzasidan «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi to'g'risida»gi nizom ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarda yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek, Tibbiy-Mehnat ekspertizasi

xizmatlari TMEK faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalarni bajaradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi.



2-rasm. Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati

Tashkiliy jihatdan Moliya vazirligiga bo'ysunib, o'zida jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va

Toshkent shahar boshqarmalarini, jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarini hamda Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va bosh, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlarini biriktirishi belgilab berildi (2-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tashkil etilganidan so'ng respublikada amalda bo'lgan bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritildi va ayrimlari takomillashtirildi, jumladan:

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 28-moddasiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 180 va 275-moddalariga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi 2010-yil 20-maydagi O'zbekiston Respublikasining O'R№ - 247-sonli qonuni;

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2010-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasining O'R№ - 272-sonli qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2010-yil 19-fevralda 30-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2010-yil 23-dekabrda 307-sonli qarori;

- Vazirlar Mahkamasining «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 2011-yil 8-sentabrda 252-sonli qarori;

- Vazirlar Mahkamasining «Tibbiy-Mehnat ekspertiza xizmati faoliyatini tashkil etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2010-yil 2-sentabrda 193-sonli qarori;

- Vazirlar Mahkamasining «Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilish samaradorligini yanada oshirish cho-

ra-tadbirlari to'g'risida»gi 2010-yil 23-dekabrda 307-sonli qarori shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- qonunda belgilangan tartibda Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorini qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

- pensiyalar va boshqa to'lovlarni moliyalashtirishni va to'lanishini tashkil etish, ularning hisob hisobotini yuritish;

- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanishini ta'minlash;

- mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

- Tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Jamg'arma o'ziga belgilangan va yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

A) Jamg'armaning daromadlari bo'yicha:

- Jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'lar va boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligidagi hisobraqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtiradi;

- har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;

- davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi.

«Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda ma-

yib bo'lgan yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladilar;

- badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi.

B) Pensiyalar tayinlash hamda qayta hisoblash bo'yicha:

- pensiyalar tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga mos rasmiylashtiradi;

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi;

- jamg'armaning tuman shahar bo'limlarida pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

- zarur tarzda rasmiylashtirilgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

- pensionerlarning pensiya ishlarini oluvchi shaxslarning ishlarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi;

- pensiyalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rioya etilishini nazorat qiladi;

- tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchlilikini tekshiradi.

D) Pensiyalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha:

- aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar o'z vaqtida va to'g'ri yetkazib berilishi hamda to'lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

- tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga

(vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko'rgan fuqarolarga kompensatsiya to'lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarga xarajatlarini moliyalashtiradi.

E) Fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha:

- ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xabardor qiladi;

- imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

- «O'zbekiston pochta» ochiq aksiyadorlik jamiyati va O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo'linmalarida pensiyalar, kompensatsiya to'lovlari hamda boshqa to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi;

- Jamg'armaning mablag'larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;

- Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiradi.

F) Jamg'armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha:

- Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha e'tiroz-da'vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi;

- Jamg'arma vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

- majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar miqdorlarini belgilash, shuningdek, pensiya ta'minotiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritish.

Jamg'arma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8.3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari;

- alohida yuridik shaxslarning sug'urta badallari;
- fuqarolarning sug'urta badallari;
- jismoniy shaxslarning ayrim toifalarining sug'urta badallari;
- majburiy ajratmalar;
- boshqa to'lovlar.

– «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

– «Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risida»gi 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;

– «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;

– hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari);

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan Davlat budjeti mablagʻlari va ixtiyoriy badallar.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

– manbalar turlari va toʻlovchilar boʻyicha Jamgʻarmaga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlar hisobi yuritilishini;

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarni hisoblash tartibi va toʻlash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va maʼmuriy javobgarlik choralari qoʻllanilishini.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi Jamgʻarmaning ijro etuvchi apparatiga: majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarni hisoblash va toʻlash toʻgʻrisidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.

Jamgʻarma mablagʻlari:

a) ishlamaydigan Fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya taʼminotiga huquqi boʻlmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamgʻarma mablagʻlaridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya toʻlovlari va boshqa toʻlovlarni toʻlash uchun;

b) ishlaydigan Fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha boʻlgan nogiron bolaning ota-onalaridan (vasiy, homiyga) biriga bir oyda qoʻshimcha dam olish kuni uchun toʻlovlar;

• qonun hujjatlariga muvofiq Jamgʻarma mablagʻlaridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya toʻlovlari va boshqa toʻlovlarni moliyalashtirish.

Ishlaydigan va ishlamaydigan fuqarolarga Pensiyalar va kompensatsiya toʻlovlari va boshqa toʻlovlarni toʻlash uchun Jamgʻarmaning hududiy boʻlimlari tomonidan gʻaznachilikning

bo'linmalarida hisobraqamlarini ochadi. Jamg'armaning hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

Joriy to'lov oyining 15-kunigacha o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari pensiyalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun mablag'larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisobraqamlariga o'tkazadi.

Jamg'armaning hisobraqamlaridan mablag'larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o'tkazish va vaqtincha olib qo'yish taqiqlanadi.

Jamg'armaning hududiy boshqarmalari har yili 15 iyundan kechikmay Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga joriy yil uchun xarajatlarning kutilayotgan ijrosini va kelgusi yilga Jamg'arma xarajatlari prognozini taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti belgilangan tartibda qabul qilingandan va kelgusi yilga uning asosiy parametrlari tasdiqlangandan keyin Jamg'armaning ijro etuvchi apparati besh kun muddatda Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlariga — turlar va mintaqalar bo'yicha kelgusi yilga Jamg'arma xarajatlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini (yo'nalishlarini) yetkazadi.

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan ko'rsatkichlarini bajarish uchun:

- davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar tushishining va yig'ilishining to'liqligi yuzasidan nazorat olib boriladi;

- jamg'armaning mablag'larini belgilangan tartibda o'z vaqtida moliyalashtirilishi va manzilli ravishda sarflanishini nazorat qilish hududiy boshqarmalar va tuman bo'limlari tomonidan olib boriladi.

Jamg'armaning hududiy boshqarmalari Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga:

– har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha – hududlar bo'yicha to'langan pensiyalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'g'risidagi tezkor axborotni;

– tasdiqlangan shakl bo'yicha yuridik shaxslarning choraklik va yillik hisobotlari taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida – mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

Jamg'armaning Kuzatuv kengashi Jamg'armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jamg'arma Kuzatuv kengashining majlislari yil choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi.

Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda:

– Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari prognoz parametrlarini, shuningdek, Jamg'arma xarajatlarining har yilgi smetasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

– Vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, Tibbiy-Mehnat ekspertizasi xizmatlari va boshqa tashkilotlar mas'ul xodimlarining Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha hisobotlarini eshitish;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg'armaning ijro etuvchi direktorini, uning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish to'g'risida taqdimnoma kiritish;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining Pensiyalar tayinlash bo'yicha tuman (shahar) bo'limi komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash;

– Topshiriqnomalar, vedomostlar va pochta o'tkazmalari bo'yicha to'lanadigan pensiyalar jo'natilishi va yetkazib berilishi

bo'yicha xizmatlarga haq to'lash miqdorlarini tasdiqlash kabi masalalarni amalga oshiradi.

Tayanch tushunchalar:

Budjetdan tashqari fondlar, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, tashkiliy tuzilma, Jamg'arma daromad va xarajatlari, Kuzatuv kengashi, Hududiy boshqarmalar, TMEK.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Budjetdan tashqari jamg'armalarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini gapirib bering.
4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi qanday manbalar hisobidan shakllanadi?
5. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining badallar ajratish mexanizmi qanday?
6. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari nimalarga yo'naltiriladi?
7. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad va xarajatlarni tasarruf etish qanday organlar tomonidan amalga oshiriladi?

IX bob. BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATIDA IJTIMOIIY MUHOFAZA TADBIRLARI

Reja:

1. Ish bilan ta'minlash jamg'armasining mohiyati, asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish.
2. Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlarini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish.
3. Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari prognozini ko'rib chiqish va kelishish hamda uning mablag'laridan foydalanish tartibi va javobgarligi.
4. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari

9.1. Ish bilan ta'minlash jamg'armasining mohiyati, asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Ish bilan ta'minlash jamg'armasi deb yuritiladi) aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish hamda mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) bo'limlarining (keyingi o'rinlarda Mehnat bo'limlari deb ataladi) samarali faoliyat ko'rsatishi tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tarkibida tashkil etilgan.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi budjetdan tashqari maqsadli davlat jamg'armasi hisoblanadi, mahalliy va respublika darajalarida tashkil etiladi va uning mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolingan holda Davlat budjeti tarkibida jamlanadi hamda Jamg'armaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining budjetdan tashqari maqsadli maxsus hisobraqamlarida

jamlanadi. Bunda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda ish beruvchilar deb yuritiladi) ajratmalari hisobiga tashkil topadigan Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larining yetmish foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari ixtiyorida qoladi, keyinchalik tumanlar va shaharlar o'rtasida taqsimlanadi, o'ttiz foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, tegishli hududiy Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarining to'lov topshiriqnomalari bilan pul o'tkazish yo'li bilan respublika darajasida markazlashtiriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tasarruf etadilar.

Quyidagilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafoflatlarini amalga oshirish;
- mehnat bo'limlari ta'minotini moliyalashtirish;
- tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo'li bilan ish o'rinlarini saqlab qolish va yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun kreditlar berish;
- fuqarolarni ishga joylashtirish, mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, sotsiologik kuzatuvlar o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning joylardagi organlari:

- ish beruvchilarning majburiy ajratmalarini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat

va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining budgetdan tashqari maqsadli maxsus hisobraqamlarida jamlaydilar;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan ishsizlik nafaqalarini, ishsiz fuqarolarga moddiy yordamni va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa to'lovlarni o'z vaqtida tayinlaydilar, moliyalashtiradilar va to'laydilar;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy maqsadli foydalanadilar;

- ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish uchun oldini oluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida Ish bilan ta'minlash jamg'armasining moliyaviy ahvolini prognozlash bo'yicha aktual hisob-kitoblarni amalga oshiradilar;

- majburiy ajratmalar miqdorlarini belgilash to'g'risida takliflar tayyorlaydilar;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasining kelgusi yil uchun daromadlari manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari prognozi loyihasini ishlab chiqadilar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadilar;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasi budgetining ijrosi to'g'risidagi har oylik hisobotlarni, shuningdek, yiliga bir marta ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari va ulardan foydalanishning ahvoli to'g'risidagi mustaqil auditorlik tekshiruvi natijalarini tayyorlaydilar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadilar;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasi vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadilar;

- joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarini amalga oshirishda, haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etishda qatnashadilar;

- majburiy ajratmalar va to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini va o'z vaqtida Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga to'liq to'lanishini hisobga oladilar va nazorat qiladilar;

- ish beruvchilar tomonidan majburiy ajratmalar va to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishini, shuningdek, amaldagi qonun huj-

jatlariga muvofiq Ish bilan ta'minlash jamg'armasi bilan o'zaro hisob-kitoblarning ahvolini tekshiradilar;

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish tartibini va to'lov muddatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma'muriy choralar qo'llaydilar;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasining to'lov subyektlari va moliyalashtirish obyektlari bo'yicha to'liq hisob-kitobni va elektron ma'lumotlar bazasi yuritilishini ta'minlaydilar. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ish bilan ta'minlash jamg'armasiga taalluqli masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

Ish beruvchilar:

– majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda hisoblab chiqarish va Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga to'lashga;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasining kreditlashga, haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etishga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ajratilgan mablag'larini sarflashning maqsadli yo'naltirilishiga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash bo'yicha belgilangan shakldagi hisobotlarning ishonchliligini va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashga majburdirlar.

9.2. Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlarini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish haqi fondidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdordagi majburiy ajratmalari, ushbu xarajatlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi;

- tegishli budjet mablag'larini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va joylardagi davlat hokimiya-

ti organlari tomonidan belgilanadigan miqdorlarda respublika va mahalliy budjet mablag'laridan dotatsiyalar;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablar buzilganligi uchun joylardagi Mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda solinadigan moliyaviy sanksiyalar va qo'shilgan penyalarning summasi;

- qo'shimcha va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznes subyektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalaridan foizlar;

- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar.

Quyidagilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga ajratmalar to'lashdan ozod etiladilar:

- nogironlar jamoat tashkilotlariga qarashli o'quv-ishlab chiqarish va ishlab chiqarish korxonalari;

- protez-ortopediya buyumlari ishlab chiqarishga, nogironlarga protez qo'yish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan korxonalar;

- tarbiya va ta'lim muassasalari huzuridagi o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va o'quv-ishlab chiqarish korxonalari;

- budjet ta'minotidagi teatr-tomosha tashkilotlari.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini jamlash va ulardan foydalanish uchun banklarda hisobraqamlari ochiladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari hisobiga quyidagilar amalga oshiriladi:

- Mehnat organlarida ishsizlik maqomini olgan va ish qidiruvchi sifatida ro'yxatda turgan shaxslarni kasbga tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini mablag' bilan ta'minlash;

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, mehnat organlarining taklifi-ga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish uchun kompensatsiyalar to'lash va qonun hujjatlariga muvofiq ishsizlarga moddiy yordam berish;

- ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash;

– haq to‘lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag‘ bilan ta‘minlash;

– nogironlar va Fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlari (ishlab chiqarishlar) tashkil etish tadbirlarini mablag‘ bilan qisman ta‘minlash;

– Mehnat organlari ta‘minoti, barcha darajalardagi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarini (tuman va shahar ijtimoiy ta‘minot bo‘limlaridan tashqari) joylashtirish uchun binolar qurish va ularni rekonstruksiya qilish, ularni moddiy-texnikaviy ta‘minlash, kompyuterlar, nusxa ko‘chirish va boshqa zarur texnika bilan jihozlash;

– axborot-ma‘lumotlar va reklama-noshirlik ishlarini amalga oshirish;

– demografiya, aholini ish bilan ta‘minlash va ijtimoiy himoya qilish, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash va unga haq to‘lash masalalari bo‘yicha normativ-uslubiy va yo‘riqnoma materiallar ishlab chiqishni mablag‘ bilan ta‘minlash;

– belgilangan tartibda respublika darajasida va hududiy darajada ijtimoiy kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish, ish bilan ta‘minlash masalalari bo‘yicha aholining ayrim guruhlarida o‘rtasida anketa so‘rovlari o‘tkazish;

– respublika va hududiy mehnat bozori axborot tizimlarini yaratish va ularning dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish, shu jumladan texnika vositalari sotib olish;

– ish bilan band bo‘lmagan aholiga yordam ko‘rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko‘maklashish va maslahat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash;

– aholini ish bilan ta‘minlashga doir muammolar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni mablag‘ bilan ta‘minlash;

– ishchi kuchi eksport qilish masalalari bo‘yicha xalqaro loyiha va shartnomalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining chet ellarga ishga yuborilgan Fuqarolarini ishga joylashtirishni tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini ko'paytirishga yo'naltirilgan, aholini ish bilan ta'minlashga bevosita ko'maklashuvchi tijorat va xo'jalik hisobidagi faoliyatni amalga oshirish, mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalar tashkil etish;

– tijorat banklari tomonidan ochiladigan kredit liniyalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shu jumladan kichik biznes subyektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga, oilaviy tadbirkorlik subyektlariga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lov, ta'minlash va qaytarish shartlarida yangi ish o'rinlari yaratish uchun qisqa muddatli va o'rta muddatli kreditlar berish.

Bunda Ish bilan ta'minlash jamg'armasidan kreditlar ustuvor tartibda va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning hududiy bosh boshqarmalari takliflariga ko'ra yangi ish o'rinlari ustuvor ravishda yaratiladigan hududlarda, uzoqda joylashgan, borish qiyin bo'lgan va chegara tumanlarda, murakkab vaziyatda va ekologik noqulay sharoitli mintaqalarda yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasida ko'rsatilgan aholining alohida toifalarini ish bilan ta'minlash bilan bog'liq maqsadlar uchun beriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi hisobraqamlariga:

– tekshirishlar natijasida majburiy ajratmalarga qo'shimcha hisoblangan mablag'lar summasidan;

– mehnat va aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun undirilgan ma'muriy va moliyaviy sanksiyalar summasidan tushadigan mablag'larning 15 foizi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining moddiy yordam jamg'armasiga yo'naltiriladi. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari respublika va hududiy darajada ishlab chiqilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ish bilan ta'minlash dasturlari asosida belgilanadi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari hisobraqamlarida yetishmagan mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larining Respublika qismi hisobidan qoplanadi. Yil boshida zarur hollarda Ish bilan ta'minlash jamg'armasi hisobraqamidagi bo'sh mablag'lar Davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun yo'naltirilishi mumkin.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.3. Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari prognozini ko'rib chiqish va kelishish hamda uning mablag'laridan foydalanish tartibi va javobgarligi

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda har yili, lekin joriy yilning birinchi iyulidan kechikmay kelgusi yil uchun Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari manbalari va uning mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha prognozni Moliya vazirligiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi, ushbu prognoz:

- daromadlar manbalari bo'yicha mablag'larning o'tgan yilda va joriy yilning birinchi yarim yilida hududlar bo'yicha haqiqiy tushumini;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga ajratmalar va yig'imlar bo'yicha moliyaviy hisobot yili oxirida ish beruvchilarning hududlar bo'yicha kreditorlik qarzlarini;

- o'tgan yilda va joriy yilning birinchi yarim yilida Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan tasdiqlangan prognozlar bilan taqqoslaganda hududlar bo'yicha maqsadli foydalanilishini;

- o'tgan yilda xodimlar soni va ish haqining o'sish sur'atini e'tiborga olgan holda hisoblangan ish haqi fondi prognozini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Moliya vazirligi taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish chog'ida Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga kelgusi yil uchun majburiy ajratmalar va yig'imlar stavkalarining prognoz qilinadigan o'zgarishini va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ta'sirini hisobga oladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari va uning mablag'laridan foydalanishning ko'rib chiqilgan va kelishilgan prognozi kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlari tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti Oliy Majlis sessiyasida tasdiqlangandan so'ng, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi budjeti parametrlari to'g'risidagi qarori qabul qilingandan keyin Moliya vazirligi Ish bilan ta'minlash jamg'armasining kelgusi yil uchun daromadlari va uning mablag'laridan foydalanishning tasdiqlangan asosiy parametrlarini o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yetkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Ish bilan ta'minlash jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan daromadlari va uning mablag'laridan foydalanishning parametrlari Moliya vazirligidan olingan kundan boshlab bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari, Mehnat bo'limlari uchun kelgusida, Vazirlikning hay'at majlisida ularning ish yakunlarini ko'rib chiqqan holda, Jamg'arma daromadlari manbalari va uning mablag'laridan foydalanishning yo'nalishlari bo'yicha yillik prognozni choraklarga bo'lgan holda tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari, Mehnat bo'limlari Ish bilan ta'minlash jamg'armasining tasdiqlangan budjet ko'rsatkichlarini bajarish uchun:

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari va xarajatlari-ning tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini;

- ish beruvchilardan majburiy ajratmalar, jarimalar va penyalarning to'liq yig'ilishi va tushishini;

- Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan qonun hujjatlariga qat'iy muvofiq holda maqsadli foydalanilishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari, Mehnat bo'limlari Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga tushumlarning to'liq yig'ilishi ta'minlanishi, shuningdek, Jamg'arma mablag'larining qat'iy maqsadga muvofiq ravishda moliyalanishi va foydalanilishi uchun javob beradilar.

Ish beruvchilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasining o'z hisobraqamlariga o'tkazilgan mablag'laridan maqsadli foydalanilishi, shuningdek, majburiy ajratmalarining to'g'ri hisoblaniishi va Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga o'z vaqtida to'lanishi uchun javob beradilar.

9.4. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari

Ishsizlik mehnat bozorining asosiy muammolaridan biri bo'lib, biror-bir mamlakat iqtisodiyotning bu «nuqsoni»dan hali qutulgani yo'q. Bu tushuncha tarkibiga kiradiganlar sonini kamaytirish, ularning ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishdan avval tushunchaning mohiyatini aniqlash muhimdir.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan ishsizlik iqtisodiy faol aholining ma'lum bir mehnat daromadi keltiradigan ish o'rniga ega bo'lmaslik holatidir. «Ishsizlik» tushunchasi xalqaro tashkilotlarda, shuningdek, turli mamlakatlarda turlicha sharhlanadi. Masalan, AQShda ishsiz shaxs deb oxirgi bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan va so'nggi to'rt hafta ichida ishga joylashish uchun bevosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash agentliklariga murojaat qilgan, mehnat layoqatiga ega fuqarolarga aytiladi. Yaponiyada esa so'nggi haftada bir soat ham ishlamagan va ish qidirayotgan, Buyuk Britaniyada oxirgi bir haftada ish bilan band bo'lmagan hamda ish izlayotgan shaxs ishsiz sifatida belgilangan.

Bizning mamlakatimiz mehnat qonunchiligida 16 yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga layoqatli shaxslar ishsiz deb e'tirof etiladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, ishsizlikning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjuddir. Ijobiy tomoni ish bilan band bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga, ularning mehnatga munosabatlarini yaxshilashga, fuqarolarni bilim olishga va malakalarini oshirib borishga harakat qilishlari, ish beruvchilarni past ish haqida o'z istaklaridagi xodimni yollash imkoniyatlari bo'lib hisoblanadi.

Ishsizlikning salbiy tomonlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy jihatdan ishsizlikning ortishi natijasida YIMning kamayishi (A. Oukening qonuniga ko'ra, ishsizlik darajasining 1% oshishi YMMni 2,5 foizga kamaytirishi mumkin), hukumatning ishsizlarga qiladigan nafaqa, kasbga tayyorlash, malaka oshirish xarajatlari ortadi, ayrim hollarda mehnat bozorida keraksiz mutaxassislik tayyorlash uchun hukumat va fuqarolarning xarajatlari ortadi, aholi daromadi va turmush darajasi pasayadi;

- ijtimoiy jihatdan ishsizlik shaxsning ijtimoiy mavqeini pasaytiradi, uzoq davom etadigan ishsizlik fuqarolarning hukumatga noroziligini uyg'otadi va kuchaytirib boradi, aholi orasida jinoyatchilik ortadi, xodimlarda ertangi kunga ishonch yo'qoladi, ish beruvchilarning xodimlarni rag'batlantirish, mehnatni muhofaza qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash tadbirlari sustlashadi;

- psixologik jihatdan ishsiz shaxs o'z bilim va ko'nikmalarini yo'qotib boradi, hamisha ruhan tushkunlik holatida bo'ladi, o'zini oila va jamiyatda ortiqcha his qiladi, oilalarda notinchlik yuzaga keladi, ajralishlar soni ortadi.

Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish ikki tizim orqali amalga oshiriladi. Birinchisi, ish haqi darajasini hisobga olgan holda mehnat va sug'urta stajiga asoslangan ishsizlik bo'yicha sug'urtalash, ikkinchisi, ehtiyojni tekshirgandan so'ng taqdim

etiladigan turmush darajasini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy ta'minot.

Birinchi holatning maqsadi o'z aybiga ko'ra bo'lmagan holda ishdan bo'shatilgan xodimning turmush darajasi keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik, unga o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasiga mos ravishda ish haqi bilan ish topishi uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Bu holda ishsizlik bo'yicha nafaqa ilgari maoshi va ish stajini hisobga olgan holda belgilanadi.

Ikkinchi holatda esa ehtiyojlikni tekshirib yoki tekshirmasdan muayyan minimal turmush darajasini ta'minlashdir. Bunday ishsizlarga moddiy yordamni taqdim etish ijtimoiy ta'minot tizimi doirasida ko'rsatiladi, moliyaviy manba sifatida davlat budjeti hisoblanadi.

Mazkur ikki tizim aniq iqtisodiy sharoitlarga tegishli ravishda turlicha qo'llaniladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishda sug'urta tizimi samaraliroq. Qisqa va o'rta muddatli ishsizlik uzoq muddatli bo'lgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa fondlar mablag'lari kamaygan iqtisodiy tanazzul holatida asosiy e'tibor sug'urtalash fondlaridan ishsizlik bo'yicha nafaqalarni yuqori darajadagi maoshni o'rnini qoplashdan ijtimoiy muhofazalash tizimlaridan davlat budjet mablag'lari ishtirokida davomiy himoyaga qaratiladi.

Davlat ishsiz shaxslarga quyidagilarni kafolatlaydi:

- ishsizlik nafaqasini to'lash;
- mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;
- ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda moddiy yordam berish;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;
- mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini bajarib boradigan davlatimizning ish bilan bandlik xizmati tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligida bayon qilinishi bo'yicha

mamlakatimizdagi ish bilan ta'minlash xizmati uch xil darajada amal qiladi:

- hukumatning ish bilan ta'minlash xizmati;
- mintaqaviy ish bilan ta'minlash boshqarmalari;
- bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazi.

Hukumat ish bilan ta'minlash xizmatini Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi orqali amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda mintaqaviy ish bilan ta'minlashni boshqaradigan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizning turli shahar va tumanlarida Bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari mahalliy ish bilan ta'minlash muassasalari hisoblanadi.

Bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazida ishsiz aholini ro'yxatga olish va ishga joylashtirish, kasbga o'qitish sho'basi bevosita mehnat bo'limi boshlig'iga bo'ysunadi.

Davlat mehnat texnik inspeksiyasi (1–3 kishi).

Bandlikning samarali shakllarini rivojlantirish bo'limi (1–2 kishi).

Ishsizlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish, kasbiy o'qitish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'limi (1–3 kishi).

Qishloq fuqarolar yig'inlari hududidagi aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha muqim punktlarda doimiy ishlaydigan inspektorlar (1–30 kishi).

Ish bilan ta'minlanishga muhtoj aholini hisobga olish va ular bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirish bo'limi (2–4 kishi).

Bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazining tashkiliy tuzilmasi:

Bandlikka ko'maklashuvchi markaz direktori

Direktor o'rinbosari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish guruhi (1–2 kishi)

Mehnat davlat huquqiy inspeksiyasi (1 kishi)

Buxgalteriya (1 kishi)

Yuristkonsult (1 kishi)

Bandlikka ko'maklashuvchi markazda ish bilan ta'minlanmagan aholi hisobga olib boriladi, ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni ishga joylashtirish, ishsizlarga kasb o'rgatish, shu jumladan, «us-

ta-shogird» usulida kasbga tayyorlashni tashkil etish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sho'basiga mehnat bo'limi boshlig'ining o'rinbosari umumiy rahbarlik qiladi. Sho'ba tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga qabul qilishga mo'ljallangan eng kam miqdordagi ish o'rinlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi, fuqarolarni ishga joylashtirish uchun korxona va tashkilotlarga yuboriladi, ishsizlarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Davlat mehnat huquqi inspektori markaz boshlig'iga bo'ysunadi va rejali kompleks tekshirishlar davomida korxona va tashkilotlarda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunning bajarilishini tekshirish, yo'l qo'yilgan qonun buzilishlarini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar bajarishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar berish va ularning faoliyatini nazorat qilish ishlarini bajaradi.

Davlat texnika inspektori bosh boshqarmaga bo'ysunib, nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida korxona va tashkilotlarda mehnat muhofazasiga doir olib borilgan ishlarni o'rganib chiqadi, ekspertizadan o'tkazadi.

Mehnat inspektorlari o'zini-o'zi boshqarish organlarida tuman, shahar hokimining vakillari hisoblanadi. Hududda ish bilan band bo'lmagan fuqarolar hisobini yuritadi, ularga ishga joylashish uchun yo'llanmalar beradi, turli maslahatlar berib boradi, bo'lim sho'balari bilan birgalikda ishsizlarni kasbga o'qitish, haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'llash bo'yicha takliflar kiritadi.

Xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi sababli; texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi sababli; xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noloyiqligi sababli; shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga qayta tiklanishi sababli mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ish qidirish davrida ikki oydan ortiq

bo'lmagan davr mobaynida xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi saqlanib qoladi, bunda xodimga to'langan bir oylik ishdan bo'shatish nafaqasi ham qo'shib hisobga olinadi. Agar ish beruvchi nochor (bankrot) deb topilsa, u bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan xodimlar ish haqi va o'zlariga tegishli boshqa to'lovlar xususida boshqa barcha kreditorlarning talablariga nisbatan imtiyozli huquqdan foydalanadilar. Tugatilayotgan korxonalarining mablag'i bo'lmagan taqdirda xodimlarga kompensatsiyalar Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tugatilishi, xodimlar soni (shtati) qisqartirilishi munosabati bilan ishdan ozod etilgan, mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin o'n kun ichida mehnat organlarida ro'yxatga olingan hamda kasbi bo'yicha qayta o'qitilayotgan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda malakasini oshirayotgan xodimlarga mehnatga oid munosabatlar to'xtatilgan kundan boshlab dastlabki uch oy davomida oldingi ishidagi o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

Mehnat organi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ishdan bo'shatilayotgan shaxslarni ishga qabul qilishda ularning o'qishini tashkil etish xarajatlarini to'la yoki qisman qoplashi mumkin. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli yoki o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra kasb kasalligiga yo'liqish natijasida ishdan mahrum bo'lgan hamda ishga joylashishga, kasbga tayyorlashga va qayta tayyorlashga, malakani oshirishga muhtoj shaxslar ishdan ozod etilgan xodimlarga tenglashtiriladi. Texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan, pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonun hujjatlarida belgilangan umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin) pensiyaga chiqish huquqi beriladi.

Ishidan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan, mehnat organlarida ro'yxatga olingan, qaramog'ida voyaga yetmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan shaxslarga kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish davrida oldingi ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqining kamida yetmish besh foizi (qaramog'ida bolalari va boshqa kishilar bo'lmaganlarga esa ellik foizi) miqdorida, biroq qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan oz bo'lmagan va o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

Uzoq vaqt (bir yildan ko'proq) ishlamayotgan, birinchi marta ish qidirayotgan hamda kasbga tayyorlashga va qayta tayyorlashga, malaka oshirishga muhtoj shaxslarga aholining shu toifasi uchun nazarda tutilgan ishsizlik nafaqasidan oz bo'lmagan va qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda stipendiya tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasi ishsizlarga mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan birinchi kundan e'tiboran yoziladi va to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasi ko'pi bilan ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan yoki uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxslarga o'n ikki oylik davr mobaynida yigirma olti kalendar hafta; ilgari ishlamagan va birinchi bor ish qidirayotgan shaxslarga esa o'n ikki oylik davr mobaynida o'n uch kalendar hafta to'lanadi.

Ishsiz shaxs nafaqa olish davrida ish qidirishi va har ikki haftada kamida bir marta mahalliy mehnat organida yo'qlamadan o'tishi kerak. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori o'n foizga oshiriladi.

Ish haqiga koeffitsientlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsientni qo'llagan

holda aniqlanadi. Ishdan va ish haqidani (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan taqdirda, ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga oldingi ish joyidagi o'rtacha ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidani oz bo'lmagan va nafaqani hisoblash paytida tarkib topgan o'rtacha ish haqidani ortiq bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi to'lash kafolatlanadi.

Harbiy xizmatdan, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan bo'shatilgan hamda mahalliy mehnat organlariga murojaat qilishdan oldin ishlamagan shaxslarga nafaqa miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdori darajasida hisoblab chiqariladi.

Ilgari ishlamagan, birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularga qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida yetmish besh foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz shaxslarga quyidagi miqdorda nafaqa to'lash kafolatlanadi:

- mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek, o'n ikki oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi o'n ikki kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatishni yoki malakasini oshirishni talab qilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidani oz bo'lmagan miqdorda;

- boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining yetmish besh foizi miqdorida.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishlab chiqarishdan ajralgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tgandan, malaka oshirishni tugatgandan keyin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidani oz bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Quyidagi hollarda ishsizlik nafaqasini to'lash bekor qilinadi:

- ishsiz shaxs ishga joylashganda;
- ishsiz shaxs taklif qilingan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgan taqdirda;
- qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan, o'ttiz besh yoshga to'lmagan ishsiz erkak haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etishni rad etgan taqdirda;
- ishsiz shaxs qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lgan taqdirda;
- ishsiz shaxs sudning hukmi bilan qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoga hukm etilgan taqdirda;
- ishsizlik nafaqasini olib turgan davrda mahalliy mehnat organini xabardor qilmay vaqtinchalik bajariladigan ishga joylashilgan taqdirda;
- ishsizlik nafaqasini aldov yo'li bilan olgan taqdirda;
- ishsiz shaxs vafot etgan taqdirda.

Quyidagi hollarda ishsizlik nafaqasini to'lash to'xtatib qo'yiladi:

- ishsiz shaxs kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga yuborilgan bo'lsa, stipendiya olgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tish yoki malaka oshirish davrida;
- ishsiz shaxs ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasida davolash kursini o'tayotgan bo'lsa, bunday muassasada bo'lgan davrida;
- ishsiz shaxs haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etayotgan bo'lsa, bunday ishlarda ishtirok etgan davrida.

Ishsiz shaxs uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda mahalliy mehnat organiga kelmagan taqdirda, ishsizlik nafaqasini to'lash uch oygacha muddatga to'xtatib qo'yilishi yoki nafaqa miqdori kamaytirilishi mumkin.

Ishsizlik nafaqasini to'lashning belgilangan muddati o'tishi munosabati bilan ishsizlik nafaqasini olish huquqidan mahrum bo'lgan ishsiz fuqarolarga Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan yoki mahalliy budjetlardan ajratiladigan moddiy yordam ko'rsatilishi mumkin.

Tayanch tushunchalar:

Ishsiz shaxs, Ishsizlik nafaqasi, Bandlikka ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi, moddiy yordam, Mehnat bo‘limlari, ish haqi, mahalliy budjetlar, Mehnat inspektorlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Bandlik fondini tashkil etishning zarurligi.
2. Bandlik fondining asosiy vazifalari.
3. Fondning mablag‘lari qanday manbalar hisobidan shakllanadi?
4. Fond mablag‘lari qanday maqsadlarga sarflanadi?
5. «Ishsizlik» tushunchasiga ta’rif bering.
6. Davlat ishsiz shaxslarga nimalarni kafolatlaydi?
7. Ishsizlik nafaqasining qanday turlari mavjud?
8. Ishsizlik nafaqasini tayinlash va to‘lash tartibini tushuntirib bering.
9. Ishsizlarga moddiy yordam ko‘rsatish tizimi qachon shakllangan?
10. Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarning faoliyatini tushuntirib bering.
11. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi nimalardan iborat?
12. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining xususiyatlarini tushuntirib bering.

X bob. RESPUBLIKADA VASIYLIKKA OLINGAN SHAXSLARNI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING ASOSIIY YO‘NALISHLARI

Reja:

1. «Saxovat» uylarida vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlari.
2. «Muruvvat» uylarida vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlari.
3. Faxriy va nafaqadagi fuqarolarni ijtimoiy himoya tadbirlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

10.1. «Saxovat» uylarida vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlari

Respublika miqyosida olib borilayotgan ijtimoiy sohada-gi tadbirlar xalqimizning bag‘rikenglik va bir-birini qiyinchilik tug‘ilgan paytda qo‘llab-quvvatlash tamoyili asosiga qurilgan bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining turli ravishdagi muhtoj qatlamlariga zarur ijtimoiy yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiyotda olib borilayotgan tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, bozor iqtisodiyotini shakllantirish shunchaki maqsad emas, balki barcha islohotlar jarayonida — inson uchun munosib hayot tarzini, turmush sharoitlarini yaratishdan iborat bo‘lmog‘i darkor. O‘z navbatida, aholining eng nochor va yordamga muhtoj qatlamlarini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash islohotlarning muvaffaqiyati garovi bo‘lib, olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Islohotlarning dastlabki bosqichidan boshlab Respublika hukumati tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlari amalga oshirildi. Mustahkam ijtimoiy himoya tamoyilini asos qilgan holda Respublika hukumati ijtimoiy vaziyatni nazorat qilish va ijtimoiy sohani mustahkamlash bo‘yicha o‘z vaqtida qat’iy chora-tadbirlarni olib bordi. Jumladan, Respublikaning qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholisini mustaqillikning dastlabki yillaridanoq shaxsiy xo‘jalik yuritish va uy-joy barpo etish uchun o‘rtacha 0,15 ga dan 0,25 ga gacha bo‘lgan hajmda yer maydonlari ajratilishi va ularni bir umr meros qoldirish huqu-

qiga ega bo'lishi ushbu tadbirlarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bu esa aholi turmush tarzining keskin pasayib ketishini bartaraf etishda muhim rol o'ynadi, respublikada tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishning muhim omili bo'ldi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy tadbirlarning boshqa ko'rinishlari ham davlat tomonidan olib borilib, iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani tartibga solishning xilma-xil usullari va tartib-qoidalaridan foydalaniladi. Xususan, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va turli nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini muntazam oshirib borilishi bilan bevosita pul to'lovlaridan, shuningdek, imtiyozlar va turli dotatsiyalar ko'rinishidagi bilvosita to'lovlardan keng foydalanildi. Bu ko'rinishdagi tadbirlar mustaqilligimizning mustahkamlanib borishi va Respublikaning xalqaro darajada o'z o'rnini topib borishi sharoitida rivojlantirilib, jahon andozalari darajasida milliy mentalitetimizga xos bo'lgan jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda ham shakliy, ham mazmun jihatidan, ham ijtimoiy himoya turlarini ko'paytirishga hamda nomuvofiq deb topilganlarini tugatishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari asosida aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlariga mo'ljallangan moddiy yordam qilish va ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy, tezkor va hammabop usullari joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011-yil 30-maydagi PQ-1542-son qarori asosida Respublikadagi yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Vazirlar Mahkamasining 2011-y. 23-avgustdagi 240-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirishning mexanizmi va O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi qarori chiqarildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida» 2011-yil 30-maydagi PQ-1542-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Saxovat» keksalar va nogironlar uchun internat uylari to'g'risida nizom ishlab chiqilib, ushbu nizomga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining «Saxovat» keksalar va nogironlar internat uylarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibini belgilash tartibi belgilab berildi.

Aholining ma'lum bir doiradagi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslarini «Saxovat» internat uylariga qabul qilish tartibi va ularga mansub shaxslar tarkibi ko'rsatib o'tildi. Unga muvofiq «Saxovat» keksalar va nogironlar uchun internat uylariga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo'lmagan yolg'iz keksalar hamda 18 yoshidan boshlab I va II guruh nogironlari (vasiylikka olinadigan shaxslar) qabul qilinib, «Saxovat» uylari ular uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

«Saxovat» internat uylari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. «Saxovat» internat uylarini tugatishda vasiylikka olinganlarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda boshqa «Saxovat» internat uylariga o'tkazish ta'minlanadi. «Saxovat» internat uylarida davolash-Mehnat va faollashtiruvchi terapiyani amalga oshirish uchun davolash-ishlab chiqarish (mehnat) ustaxonalari, shuningdek, agar «Saxovat» internat uylari qishloq joylarda joylashgan bo'lsa, zarur anjomlarga, asbob-uskunalariga va transportga ega bo'lgan yordamchi xo'jalik tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Davlat ijtimoiy muassasasi sifatida va asosan davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan «Saxovat» internat uylari faoliyatini muvofiqlashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qi-

lish bosh boshqarmalari birlashtirilgan bo'lib, «Saxovat» internat uylaridagi o'rinlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishib, sanitariya-gigiyena normalariga majburiy rioya etgan (rioya etilishi lozim bo'lgan) holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tildi.

«Saxovat» internat uylari davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxslar hisoblanadi, o'z ustaviga, mustaqil balansiga, g'aznachilikning tegishli hududiy bo'linmalarida shaxsiy hisobraqamiga va bankda valuta hisobraqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o'z nomi ko'rsatilgan muhrga, shtampga, blankalarga ega bo'lgan iqtisodiy subyekt hisoblanadi.

«Saxovat» internat uylarining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- vasiylikka olinganlarni ta'minlash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ularni sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash, ularning sifatli tibbiy-ijtimoiy yordam olishlariga ko'maklashadigan sharoitlar yaratish;

- vasiylikka olinganlarning qonuniy huquq va manfaatlarining ijtimoiy-huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash;

- dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish, sog'liqni saqlash tizimining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda ularni har yili 2 marotaba dispanserizatsiyadan o'tkazish, rejali sog'lomlashtirish, muhtoj bo'lganda ularni ixtisoslashtirilgan stasionarlarda davolash, vasiylikka olinganlarni tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha protez-ortopediya buyumlari, rehabilitatsiyaning texnik vositalari (eshitish apparatlari, nogironlar aravachalari, xassa va qo'ltiqtayochlar) bilan ta'minlash;

- vasiylikka olinganlarni muntazam Mehnat qilishga va ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga yo'naltirilgan sanitariya-epidemiya qarshi va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish.

Vasiylikka olinganlarni «Saxovat» internat uylariga qabul qilish tartibi mavjud bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida doi-

miy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq, ularni parvarish qilishi shart bo'lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo'lmagan yolg'iz keksalar hamda 18 yoshidan boshlab I va II guruh nogironlari qabul qilinadi.

«Saxovat» internat uylariga yuborish, shuningdek, biridan ikkinchisiga o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Maxsus komissiyasi qaroriga muvofiq, belgilangan tartibda qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

«Saxovat» internat uylariga rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- «Saxovat» internat uyiga rasmiylashtirilayotgan yolg'iz keksaning hamda I va II guruh nogironining doimiy yashash joyidagi tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi direktori nomiga berilgan arizasi;

- «Saxovat» internat uyiga rasmiylashtirilayotganning pasporti nusxasi;

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan sog'liqning holati to'g'risidagi tibbiy hujjatlar;

- tuman (shahar) hokimining yolg'iz shaxs sifatida hisobga olish to'g'risidagi qarori nusxasi;

- pensioner guvohnomasining nusxasi, mavjud bo'lsa;

- «Saxovat» internat uyiga rasmiylashtirilayotganning 2 ta (6 sm x 4 sm hajmli) fotosurati;

- «Saxovat» internat uyiga rasmiylashtirilayotganning nogironligi aniqlangan taqdirda belgilangan tartibda Tibbiy-Mehnat ekspert komissiyasi tomonidan berilgan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomaning nusxasi ham taqdim etiladi.

Vasiylikka olinganlarning shaxsiy yig'majildlari «Saxovat» internat uyi direktorida saqlanadi.

«Saxovat» internat uylarida vasiylikka olinganlarning tibbiy-ijtimoiy ta'minoti to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi.

di. «Vasiylikka olinganlarga pensiya va nafaqalar to'lash» qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Vasiylikka olinganning sog'lig'i yomonlashganda yoki u vafot etganda ma'muriyat bu haqda uning qarindoshlari, tanishlari va do'stlarini zudlik bilan xabardor qiladi. Vafot etgan vasiylikka olinganni dafn etish bilan bog'liq xarajatlar «Saxovat» internat uylarining xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning, qarindoshlarining xayriya ehsonlari hisobiga amalga oshiriladi. Vasiylikka olinganlarni oziq-ovqat va kiyim-bosh, poyabzal, boshqa buyumlar va yumshoq anjomlar bilan ta'minlash normalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadi.

Moliya-xo'jalik faoliyati:

«Saxovat» internat uylari faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi. «Saxovat» internat uylari belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Budjet va budjetdan tashqari mablag'larni sarflash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. «Saxovat» internat uylari xodimlar shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi. «Saxovat» internat uylari qonun hujjatlarida belgilangan moliya va statistika hisobotlarini yuritadi. «Saxovat» internat uylarining moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

10.2. «Muruvvat» uylarida vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida» 2011-yil 30-maydagi PQ-1542-son qarori

asosida va Vazirlar Mahkamasining 2011-y. 23-avgustdagi 240-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirishning mexanizmi va O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi qaroriga muvofiq «Muruvvat» nogironlar uchun internat uylari va «Muruvvat» nogiron bolalar internat uylari to'g'risida nizom ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra «Muruvvat» nogironlar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tasarrufida tashkil etilib va ularning faoliyat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

«Muruvvat» internat uylari 2 turga ajratiladi:

1. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 18 yoshidan boshlab I va II guruh nogironlari uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi

2. «Muruvvat» nogiron bolalar internat uylari bo'lib, u ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha nogiron bolalar uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

«Muruvvat» internat uylari o'z faoliyati ham «Saxovat» uylari faoliyat yuritish tartibiga o'xshash bo'lib, unga ko'ra «Muruvvat» internat uylari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. «Muruvvat» internat uylarini tugatishda vasiylikka olinganlarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda boshqa «Muruvvat» internat uylariga o'tkazish ta'minlanadi. «Muruvvat» internat uylari erkaklar va ayollar uchun alohida-alohida tashkil etiladi. Erkaklar va ayollar uchun alohida-alohida internat uylar tashkil etishning iloji bo'lmagan hollarda erkaklar va ayollarni bitta internat uyda, lekin alohida korpuslarda joylashtirishga yo'l qo'yiladi.

«Muruvvat» internat uylarida davolash-Mehnat va faollash-tiruvchi terapiyani amalga oshirish uchun davolash-ishlab chiqarish (mehnat) ustaxonalari, shuningdek, agar «Muruvvat» internat uylari qishloq joylarda joylashgan bo'lsa – zarur anjomlarga, asbob-uskunalariga va transportga ega bo'lgan yordamchi xo'jalik tashkil etiladi.

«Muruvvat» internat uylari davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxslar hisoblanadi, o'z ustaviga, mustaqil balansiga, g'aznachilikning tegishli hududiy bo'linmalarida shaxsiy hisob-raqamiga va bankda valuta hisobraqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o'z nomi ko'rsatilgan muhrga, shtampga, blankalarga ega bo'ladi. «Muruvvat» internat uylari tumanlar (shaharlar) hokimliklarida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

«Muruvvat» internat uylarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- vasiylikka olinganlarni ta'minlash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ularni sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash, ularning sifatli tibbiy-ijtimoiy yordam olishlariga ko'maklashadigan sharoitlar yaratish;

- vasiylikka olinganlarning qonuniy huquq va manfaatlarining ijtimoiy-huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash;

- dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish, sog'liqni saqlash tizimining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda ularni har yili 2 marta dispanserizatsiyadan o'tkazish, rejali sog'lomlashtirish, muhtoj bo'lganda ularni ixtisoslashtirilgan statsionarlarda davolash, vasiylikka olinganlarni tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiyaning texnik vositalari (eshitish apparatlari, nogironlar aravachalari, xassa va qo'ltiqayoqlar) bilan ta'minlash;

- vasiylikka olinganlarni muntazam Mehnat qilishga va ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga yo'naltirilgan sanitariya-epidemiya qarshi va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

- sanitariya-epidemiya qarshi va madaniy-ma'rifiy, shuningdek, vasiylikka olinganlarni muntazam Mehnat qilishga o'rgatishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish, O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan o'quv dasturi doirasida ularni ta'lim va Mehnat ko'nikmalariga o'qitish;

- vasiylikka olinganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, tarbiya-ta'lim ishlarining zamonaviy shakllari va metodlarini joriy etish hamda ulardan foydalanish.

Vasiylikka olinganlarni «Muruvvat» internat uylariga qabul qilish tartibi ham nizomda belgilab berilgan bo'lib, unga muvofiq, «Muruvvat» internat uylariga tashxislari quyidagicha bo'lgan vasiylikka olinadiganlar qabul qilinadi:

- o'rtacha darajadagi aqliy zaiflik (og'irlashgan shakli);
- og'ir darajadagi aqliy zaiflik;
- chuqur darajadagi aqliy zaiflik;
- aqliy zaif, og'irlashgan gemiparez, paraparez va tetraparezli bolalar serebral sholliigi;

- intellektning qo'pol buzilishiga olib kelgan bolalar shizofreniyasi;

- aqliy zaiflikka olib kelgan epilepsiya (har oyda ko'pi bilan besh marta xuruj);

- bosh miya shikastlanishi sababli aqliy zaiflik;

- ensefalit, meningit, meningoensefalit, bosh miya sifilisi hisobiga, shuningdek, bosh miyaning organik kasalliklari hisobiga aqliy zaiflik;

- bosh miyaning organik shikastlanishi (ensefalit, meningit, meningoensefalit, bosh miya jarohati va shikastlanishi) bilan bog'liq holdagi bola yoshidagi demensiya.

«Muruvvat» internat uylariga qabul qilishga qarshi umumiy ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- jarayonning faol bosqichidagi sil kasalligi;

- yuqumli teri va soch kasalliklari;

- o'tkir yuqumli kasalliklar;

- salbiy jarayondagi, yomon holatda o'tadigan shish kasalliklari va retsidivlari;

- tanosil kasalliklari, OIV yuqqanlar.

«Muruvvat» internat uylariga qabul qilish chog'ida yuqori harorat yoki noaniq etiologiyali toshma aniqlangan shaxslar sog'liqni saqlash muassasalariga yuboriladi.

«Muruvvat» internat uylariga rasmiylashtirish uchun taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi yuzasidan mas'uliyat Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalariga yuklanadi.

«Muruvvat» internat uylariga rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ota-onaning, farzandlikka oluvchining, vasiylik va homiylik bo'yicha davlat organi vakili tomonidan tayinlangan vasiy yoki homiyning vasiylikka olinayotganni «Muruvvat» internat uyiga rasmiylashtirish uchun doimiy yashash joyidagi tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi direktori nomiga berilgan arizasi;

- «Muruvvat» internat uyiga rasmiylashtirilayotganning pasporti nusxasi;

- vasiylikka olinayotganni «Muruvvat» internat uyiga rasmiylashtirish to'g'risida ariza berayotgan ota-ona, farzandlikka oluvchi, vasiy yoki homiy pasportining nusxasi;

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan sog'liqning holati to'g'risidagi tibbiy hujjatlar;

- pensioner guvohnomasining nusxasi, mavjud bo'lsa;

- «Muruvvat» internat uyiga rasmiylashtirilayotganning 2 ta (6 sm x 4 sm hajmli) fotosurati;

- belgilangan tartibda Tibbiy-Mehnat ekspert komissiyasi tomonidan berilgan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomaning nusxasi;

- belgilangan tartibda Tibbiy-Mehnat ekspert komissiyasi tomonidan berilgan nogironni rehabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi.

Vasiylikka olinganlarning shaxsiy yig'majildlari «Muruvvat» internat uyi direktorida saqlanadi.

«Muruvvat» internat uylarida vasiylikka olinganlarning tibbiy-ijtimoiy ta'minoti to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi.

Vasiylikka olinganlarni oziq-ovqat va kiyim-bosh, poyabzal, boshqa buyumlar va yumshoq anjomlar bilan ta'minlash nor-

malaria O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadi.

Vasiylikka olinganni «Muruvvat» internat uylaridan chiqarish:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining ruxsati bilan;

- turar joy maydoni, yashash uchun mablag'lar va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'lganda yoki vasiylikka olinganni ta'minlash va zarur darajada parvarishlashga qodir bo'lgan qarindoshlarining iltimosiga ko'ra, shuningdek, navbatdagi tibbiy ko'rikdan o'tkazishda III guruh nogironligi belgilanganda (Mehnat bo'yicha tavsiyalar mavjud bo'lganda) amalga oshiriladi.

Bunda vasiylikka olinganlarni ta'minlash va ularni zarur darajada parvarishlash bo'yicha qarindoshlarining bunga qodirligi vasiylikka olinganni chiqarish to'g'risidagi iltimos bilan murojaat qilayotgan qarindoshining doimiy yashash joyidagi Fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organining tegishli ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Vasiylikka olinganlarga tibbiy-ijtimoiy yordamni amalga oshirish maqsadida «Muruvvat» internat uylarida tibbiy-psixologik komissiya tashkil etiladi. Komissiya «Muruvvat» internat uyining mutaxassis xodimlaridan iborat bo'ladi.

Komissiya tarkibi «Muruvvat» internat uyi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Komissiya tarkibiga majburiy tartibda komissiyani boshqaradigan «Muruvvat» internat uyining direktori, «Muruvvat» internat uyi direktorining tibbiy bo'lim bo'yicha o'rinbosarlari, vrach-psixiatr kiradi. Komissiya:

- vasiylikka olinganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

- tashxis, psixologik-profilaktik, korreksiya, maslahat va reabilitatsiya ishlarini amalga oshiradi;

- vasiylikka olinganlarning ota-onasi (qarindoshlari) yoki ularning o'rnini bosuvchilar bilan maslahat va reabilitatsiya ishlarini bajaradi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish «Muruvvat» internat uylarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi, ular (ma'muriyat bilan bir qatorda) vasiylikka olinganlarning sog'lig'i, ovqatlanish rejimi va sifati, davolash-profilaktika tadbirlarining o'tkazilishi hamda sanitariya-gigiyena normalariga rioya etilishi uchun javob beradilar. «Muruvvat» internat uylarida davolash-maslahat yordami va o'tkazilgan davolash-profilaktika tadbirlarini tahlil qilish tegishli sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

«Muruvvat» internat uylarida psixologik ta'minot O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

«Muruvvat» internat uylarining xonalari texnika xavfsizligi qoidalariga va sanitariya-gigiyena normalariga muvofiq jihozlandi va ulardan foydalaniladi. «Muruvvat» internat uylari faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi. «Muruvvat» internat uylari belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

Budjet va budjetdan tashqari mablag'larni sarflash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi. «Muruvvat» internat uylari qonun hujjatlarida belgilangan moliya va statistika hisobotlarini yuritadi. «Muruvvat» internat uylarining moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

10.3. Faxriy va nafaqadagi Fuqarolarni ijtimoiy himoya tadbirlarining o'ziga xos xususiyatlari

Keksalar va nogironlar, urush va Mehnat faxriylari uchun sanatoriylar to'g'risida nizom Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-av-

gustdagi 240-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining keksalar va nogironlar, urush va Mehnat faxriylari uchun sanatoriylarini (keyingi o'rinlarda sanatoriylar deb ataladi) tashkil etish va ularning faoliyati tartibi belgilab berilgan. Sanatoriylar keksalar va nogironlar, urush va Mehnat faxriylarini (keyingi o'rinlarda dam oluvchilar deb ataladi) sog'lomlashtirish va ularning dam olishi uchun mo'ljallangan davlat davolash-profilaktika muassasalari hisoblanadi. Sanatoriylar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hamda qabul qilingan sohaga oid me'yoriy hujjatlarga amal qiladi. Sanatoriylar, respublika sanatoriylaridan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. Respublika sanatoriylari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. Sanatoriylarning, shu jumladan respublika sanatoriylarining ustavleri O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Sanatoriylar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Sanatoriylarning asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

- davolash-reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va ularning xalqaro darajasini ta'minlash yo'li bilan tibbiyot fani va amaliyotining zamonaviy talablarini hisobga olgan holda dam oluvchilarni to'laqonli sanatoriy-kurortda davolash, sog'lomlashtirish va ularning dam olishini tashkil etish;

- dam oluvchilarni sog'lomlashtirishda tabiiy davolash omillaridan eng yuqori darajada foydalanish;

– sanatoriy faoliyatini tashkil etishning bozor mexanizmlarini qo‘llash;

– dam oluvchilarga ko‘rsatiladigan sanatoriy-kurort xizmatlari ro‘yxatini kengaytirish;

– moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, dam oluvchilar uchun eng yuqori darajada sog‘lomlashtiruvchi natijani ta‘minlash imkonini beradigan sanatoriylar faoliyat ko‘rsatishi darajasiga erishish;

– sanatoriylar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pulli xizmatlar ko‘rsatishi ham mumkin;

– sanatoriylarning asosiy fondlarini qurish, rekonstruksiya qilish, shuningdek, mukammal va joriy ta‘mirlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

– dam oluvchilarni ovqat bilan ta‘minlash me‘yorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadi;

– dam oluvchilarni yumshoq anjomlar bilan ta‘minlash me‘yorlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadi.

Sanatoriylar faoliyatini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi. Sanatoriylar belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni sarflash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shtatlar jadvali O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

Sanatoriylar qonun hujjatlarida belgilangan moliya va statistika hisobotlarini yuritadi. Sanatoriylarning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish belgilangan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tayanch tushunchalar:

«Saxovat» uylari, «Muruvvat» internat uylari, Sanatoriylar, vasiylikka olinganlar, yolgʻiz keksa, I va II guruh nogironlari, aqliy zaiflik.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Respublikada vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yoʻnalishlari nimalardan iborat?

2. «Saxovat» uylarida vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy vazifalarini tushuntiring.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda yolgʻiz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» 2011-yil 30-maydagi PQ–1542-sonli qarorining ahamiyatli jihatlarini aytib bering.

4. Vasiylikka olinganlarni «Saxovat» internat uylariga qabul qilish tartibi qanday amalga oshiriladi?

5. «Muruvvat» uylarida vasiylikka olingan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yoʻnalishlari nimalardan iborat?

6. «Muruvvat» internat uylariga rasmiylashtirish uchun qanday hujjatlar taqdim etiladi?

7. Faxriy va nafaqadagi fuqarolarni ijtimoiy himoya tadbirlarining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

XI bob. AHOLINING IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMLARINI MUHOFAZA QILISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalarning mohiyati.
2. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalarning turlari.
3. Nafaqalarni tayinlash va to‘lash.
4. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining amal qilishi.
5. Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi

11.1. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalarning mohiyati

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq quyidagi ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar beriladi:

- a) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha;
- b) homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha;
- d) bola tug‘ilganda;
- e) dafn marosimi uchun.

Ushbu nafaqalar ijtimoiy sug‘urta joriy qlinadigan xodimlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunida ko‘zda tutilgan hollarda boshqa shaxslarga ham beriladi. Umumiy qoidaga ko‘ra nafaqa agar uni olish huquqi ish vaqtida paydo bo‘lsa beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish ta‘tili, bola tug‘ilishi, vafot etishi ishga tushgunga qadar yoki ishdan bo‘shagandan keyin sodir bo‘lsa nafaqalar to‘lanmasligi mumkin.

Respublika Pensiya Jamg‘armasi, Qoragalpog‘iston Respublikasi viloyat va Toshkent shahar bo‘limlari alohida hollarda, ishdan bo‘shagandan keyin bir oy ichida, mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug‘ish ta‘tili boshlangan bo‘lsa, xodimga shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlaridagi mudдатli xizmat safidan bo‘shatilgandan so‘ng bir oy ichida kasal bo‘lgan sobiq harbiy xizmatchiga ham vaqtincha mehnatga qo-

biliyatsizlik varaqasini berishga va nafaqa to'lashga ruxsat berish mumkin.

Agar mehnatga qobiliyatsizlik va tug'ish ta'tili tugagach, bo-la tug'ilgan yoki vafot etgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida murojat qilingan bo'lsa, nafaqa beriladi. Bunda vaqtincha qobiliyatsizlik nafaqasi unga murojaat qilingan kungacha 12 oydan oshmagan davr uchun beriladi.

O'tgan davr uchun nafaqa ijtimoiy sug'urta jamg'armasining idorasi tashabbusi bilan (hujjatlarning to'g'riligini tekshirish natijasida) o'sha muddatlarga rioya qilingan holda to'lanadi.

Nafaqaga 6-oydan kechikib murojaat qilinganda, u ayrim hollarda faqat ijtimoiy sug'urta Jamg'armasi bo'limlarining qarorlariga binoan uzrli sabablarning mavjudligiga qarab beriladi.

Nafaqalar pensiya Jamg'armasining mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Korxonaning badalni to'lamaganligi, xodimlarni ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa bilan ta'minlanish huquqidan mahrum qilmaydi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash, hisoblab chiqarish va to'lash ustidan nazoratni joylardagi Pensiya jamg'armasi idoralari amalga oshiradi.

11.2. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarning turlari

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

- a) mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq;
- b) sanatoriy-kurortda davolanganda;
- d) oila a'zosi kasallanganda uni parvarishlash zarur bo'lgan hollarda;
- e) karantinda;
- f) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- g) yasama a'zo qo'ydirish uchun protez-ortopediya korxonasida yotqizilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlashdan faqat belgilangan tartibda, berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asos bo'ladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatga qobiliyati yo'qolgan birinchi kundan to u tiklangunga qadar yoki Tibbiy-Mehnat ekspertizasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilangunga qadar, hatto bu davrda xodim ishdan bo'shatilgan bo'lsa ham beriladi.

Oliy va o'rta maxsus bilim yurtini, aspiranturani, klinik ordinaturani yoki hunar texnika bilim yurtini tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga agarda ular da mehnatga qobiliyatsizlik ishga tushishdan oldin boshlangan bo'lsa, nafaqa ishga chiqish lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Yillik ta'tili davrida kasallik tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasida ishdan ozod qilish ko'rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa beriladi. Ish haqi saqlanmagan ta'tilda yoki bolani parvarishlash bo'yicha ta'tilda bo'lgan davrda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlansa, nafaqa berilmaydi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa:

a) ish haqining 100% miqdorida:

- mehnatdan mayib bo'lgan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarga;

- umumiy mehnat staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga;

- qaromog'ida 16 yoshgacha 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;

- ishlayotgan ulug' Vatan urushi qatnashchilariga baynalmilal jangchilarga va imtiyoz jihatidan ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;

- Chernobil AESI falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;

b) ish haqining 80% miqdorini:

- umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga;

- 21 yoshga yetmagan sag'ir yetim xodimlarga;

d) ish haqining 60% miqdorida:

- umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-fevraldagi 71-sonli qaroriga muvofiq 2002-yil 1-martdan boshlab vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha to'lanadigan

nafaqalarning miqdorini aniqlash bo'yicha to'lanadigan nafaqalar miqdorini aniqlash bo'yicha ayrim o'zgartirishlar kiritildi.

Jumladan:

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar (sil kasalligi onkologiya kasalliklari yangidan paydo bo'lgan xatarli o'simtalar, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar SPID, moxov kasalligi hamda ruhiy kasalliklar) bo'yicha hisobda turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lagan davrining (umumiy mehnat stajining) davomiyligiga bog'liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda:

a) ish stajining 100% miqdorida:

– umumiy mehnat staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga;

b) ish stajining 80% miqdorida:

– umumiy mehnat staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga;

d) ish stajining 60% miqdorida:

– umumiy mehnat staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga to'lanadi.

Qolgan xodimlarga mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar to'lagan davrining (umumiy mehnat stajining) davomiyligi bog'liq ravishda quyidagi miqdorlarda:

a) ish stajining 80% miqdorini:

– umumiy mehnat staji 5 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag'ir) yetimlarga;

b) ish stajining 60% miqdori:

– umumiy mehnat staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga to'lanadi.

Mehnat stajining davomiyligidan qat'i nazar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqani 100 foiz miqdorida olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar uchun avval qo'llanilgan tartib saqlanib qolingan.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, barcha hollarda: minimal ish haqidan kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo'lmasligi kerak.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ishlovchi ayollarga jami 126 kalendar kuni uchun beriladi. Tug'ish qiyin kechgan

yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan hollarda nafaqa 140 kalandari kun uchun beriladi.

Belgilangan tartibda kasallik varaqasi homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa tayinlash uchun asos bo'ladi. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ish haqining 100% miqdorida beriladi.

Ishlayotgan ayollarga, shuningdek, ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, aspirantura, yoki hunar-texnika bilim yurtlarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida va maktablarida tahsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan oylik ish haqining 2 baravari miqdorida beriladi.

Bolaning onasi ishlayotgan yoki o'qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlamaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan otasi yoxud ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga, ish haqi va stipendiyaning miqdoridan qat'i nazar beriladi.

Ishlamaydigan yoki o'qimaydigan yolg'iz onalarga bola tug'ilganda beriladigan nafaqa ijtimoiy ta'minot organlari orqali to'lanadi.

Dafn qilish uchun nafaqa xodim vafot etganda yoki xodimning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

- a) turmush o'rtog'i;
- b) 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;
- d) ota-onasi;
- e) bobosi, buvisi.

Yashash uchun mustaqil mablag' manbaiga ega bo'lgan (ish haqi, pensiya, stipendiya oluvchi jamoa xo'jaligining mehnatga qobiliyatli a'zolari hisoblanuvchi va hokazo) oila a'zolari qaramog'ida turgan hisoblanmaydi.

Xodim vafot etganda dafn qilish uchun nafaqa uning oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga beriladi.

Oilaning vafot etgan a'zosi dafn qilish uchun nafaqa ishlovchi xodimga beriladi.

Ayol bola tashlagan holda dafn qilish uchun nafaqa berilmaydi. Dafn qilish uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining 3 barobari miqdorida beriladi.

Ish haqiga koeffitsient belgilangan tumanlar va joylarda nafaqa miqdori ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlari uchun belgilangan tuman koeffitsient hisobga olgan holda hisoblanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim vafot etgan yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn qilish uchun agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan 1 oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi.

Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtlarida aspirantura klinik ordinaturada yoxud hunar-texnika bilim yurtlariga tahsil olayotgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a'zolari vafot etgan taqdirda dafn qilish uchun nafaqa xodimlar uchun nizomda belgilangan qoidalarga muvofiq va miqdorlarda beriladi.

Maktablar, kurslarning (kadrlar malakasining oshirish qayta tayyorlash bo'yicha o'quv kursi kombinatlari, shuningdek, malaka oshirish institutlari) o'quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etganda agar ular kurslarga maktablarga (institutlarga) korxona tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa dafn qilish uchun nafaqa umumiy asoslarga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar barcha hollarda xodimning haqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi. Nafaqalarni hisoblashda asos qilib olinadigan haqiqiy ish haqiga ish joydan, sug'urta badallari undirilib, to'lanadigan jami ish haqi to'lovlari kiradi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik ta'tili boshlangan oydan oldingi 12 oy davrida olgan va sug'urta badallari chegirilgan barcha mukofotlarning bir qismi nafaqa hisoblab chiqariladigan oylik ish haqiga qo'shilib o'rtacha oylik, kunlik ish haqi miqdori aniqlanadi.

11.3. Nafaqalarni tayinlash va to'lash

Nafaqalar xodimning ish joyidan korxona tashkilot yoki muassasalarning ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi tomonidan ta-

yinlanadi. Komissiya jarohatlanish yoki kasb kasalligiga chalingan hollarda nafaqa tayinlaydi. Komissiya nafaqa to'lashni rad etish, nafaqadan mahrum etish yoki nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha, nafaqaning miqdori haqida qaror chiqaradi. Qolgan barcha hollarda nafaqalarni komissiya yoning shu ishga vakil qilingan a'zosi tayinlaydi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyalar bo'lmagan korxonalarda nafaqalar ma'muriyat tomonidan shu ishga vakil qilingan shaxs tomonidan tayinlanadi.

Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan ijara yoki shaxsiy dehqon xo'jaligida band bo'lgan xodimlarga, shuningdek, alohida fuqarolar qo'lida shartnoma asosida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga nafaqalar Ijtimoiy sug'urta Jamg'armasi tuman, shahar bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi.

O'quvchi va aspirantlarga nafaqalar o'qish joylaridan tayinlanadi va to'lanadi. Xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi tugagandan so'ng ishga tushishining birinchi kunidayoq korxona ma'muriyatiga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi taqdim etiladi. Kasallik davom etayotgan taqdirda navbatdagi ish haqi berish vaqti kelganda ham vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lov uchun beriladi.

Quyidagi sharoitlarda yuz bergan jarohatlanishlar ish vaqtida yuz bergan deb hisoblanadi:

a) ish burchini bajarayotgan paytda (shu jumladan, xizmat safari vaqtida), shuningdek, maxsus topshiriq bo'lmagan holda ham korxona manfaatini ko'zlab qilingan xatti-harakatlar paytida;

b) ish beruvchining transportida ishga borayotgan yoki ishdan qaytayotganda;

d) ish vaqti davomida (shu jumladan, belgilangan tanaffus vaqtini qo'shganda) korxona hududida yoki biror-bir boshqa ish joyida, ish boshlashdan oldin yoki ishdan keyin ish qurollarini, kiyim-kechaklarini va hokazolarni tartibga keltirish paytlarida;

e) ish vaqti davomida korxonaga yaqin joyda yoki boshqa ish joyida (belgilangan, tanaffusni qo'shganda), ichki mehnat tartibi qoidalariga zid kelmagan taqdirda u yerlarda hozir bo'lish paytida;

f) asosiy ish bilan bog'liq bo'lmasa ham, davlat va jamoatchilik oldidagi burchlarini bajarayotgan chog'da;

g) inson hayotini qutqarish, huquq tartibotini, davlat va jamoa mulkini, shuningdek, fuqarolar mulklarini muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik burchini bajarayotgan paytida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa tayinlashda belgilangan tartibda tasdiqdan o'tkaziladigan kasb kasalliklari ro'yxatida ko'rsatilgan kasalliklar kasb kasalliklari deb hisoblanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa ish haqi to'lash uchun belgilangan muddatlarda beriladi.

Homiladorlik va tug'ish nafaqasi tug'ishdan oldin amalda foydalanilgan kunlarning sonidan qat'i nazar, ta'tilning to'liq davri uchun bir yo'la to'lanadi. Bola tug'ilganda to'lanadigan nafaqani olish uchun ota yoki ona ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyaga fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi FHDY tomonidan berilgan bolaning tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani topshirishi lozim. Berilgan hujjatlar asosida vakillik qiluvchi komissiya a'zosi nafaqa huquqini belgilaydi va belgilangan miqdorda uni tayinlash bayonnomasiga yozib qo'yadi. FHDY bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotnomaning orqa tomoniga vakillik qiluvchi komissiya a'zosining imzosi bilan nafaqa tayinlanganligi va uning miqdori yozib qo'yiladi. Shundan so'ng hujjatlar korxonaning hisob-kitob qilish bo'limiga topshiriladi. Korxona shu kunning o'zidayoq nafaqani berishi lozim.

Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan ijara yoki shaxsiy dehqon xo'jaligida band bo'lgan xodimlarga, shuningdek, alohida fuqarolar qo'lida shartnoma asosida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar nafaqa olish uchun FHDY tomonidan berilgan bolaning tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tuman, shahar bo'limlariga topshiradilar.

Topshirilgan hujjatlar asosida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasining bo'lim vakili nafaqa tayinlash to'g'risida qaror chiqaradi va u bayonnomaga yozib qo'yiladi. Hisoblab yozilgan, lekin hali olinmagan nafaqa xodimga olinmagan ish haqini to'lash muddatlari davomida to'lanadi. Xodimning vafoti tufayli uni ko'mish marosimini o'tkazish uchun ijtimoiy sug'urta komissiyasiga FHDY bo'limi tomonidan berilgan vafot etganlik to'g'risidagi ma'lumotnomani topshirib nafaqa olinadi. Oila a'zosi vafot etganda esa vafot etganlik haqidagi ma'lumotnomadan tashqari uy-

joydan foydalanish idorasi (binodan foydalanish direksiyasi, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari), shu jumladan mahalla «Oqsoqollari Kengashi» tomonidan vafot etgan shaxsning xodim bilan qarindoshlik aloqalari borligi va u xodimning qaramog'ida bo'lganligi to'g'risida ma'lumotnoma ham topshirilishini lozim.

Topshirilgan hujjatlar asosida vakil qilingan komissiya a'zosi nafaqa olish huquqini uning miqdorini belgilaydi va nafaqa tayinlash haqida qaror chiqaradi va nafaqa tayinlash bayonnomasi-ga yozib qo'yiladi.

Vafot etganlik to'g'risidagi ma'lumotnomaning orqa tomoniga vakil qilingan komissiya a'zosining imzosi bilan nafaqa tayinlanganligini va uning miqdori haqida yozib qo'yiladi. Shundan so'ng barcha hujjatlar korxonaning hisob-kitob bo'limiga topshiriladi. Nafaqa o'sha kunning o'zidayoq to'lanishi lozim.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish, bola tug'ilgandagi nafaqalaridan sudlarning qaroriga ko'ra aliment undirish yoki salomatlikka yetkazilgan zararni qoplash kabi to'lovlar chegiriladi. Nafaqalardan boshqa hech qanday chegirmalar amalga oshirilmaydi.

11.4. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining amal qilishi

Nogironlik (lotincha invalidus — kuchsiz, quvvatsiz) — kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan jarohatlar yoki nuqsonlar oqibatida hayot faoliyatining cheklanishiga olib keluvchi va uning ijtimoiy himoyaga muhtojligini keltirib chiqaruvchi organizm funksiyalarining barqaror bajarilishining izdan chiqishi oqibatidagi inson salomatligining buzilishidir. Bunda hayot faoliyatining cheklanishi deganda shaxs tomonidan imkoniyatlarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi yoki o'z-o'ziga xizmat qilish, mustaqil harakatlanish, mo'ljal olish, muloqot qilish, o'z xulqini nazorat qilish, ta'lim olish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yo'qotilishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq organizm funksiyalarini buzilishi darajasiga va hayot faoliyatining cheklanganligiga bog'liq holda nogironlar deb tan olingan shaxslarga nogironlik

guruhi o'rnatiladi, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga esa «nogiron bola» toifasi belgilanadi.

Shaxsni nogiron deb tan olinishi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza bu ijtimoiy muhofaza me'yorlari doirasida ko'rsatilayotgan shaxsning ehtiyojlarini belgilangan tartibda o'rnatishdir, shuningdek, u organizm funksiyalarining barqaror buzilishi oqibatida vujudga kelgan hayot faoliyatining cheklanishini baholash asosidagi rehabilitatsiyani ham o'z ichiga oladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadigan, ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan tasniflar va mezonlardan foydalanish orqali ko'rsatilayotgan shaxsning klinik-funksional, ijtimoiy-maishiy, professional-mehnat, psixologik ma'lumotlarini tahlil qilish asosida organizm holatini kompleks baholash orqali amalga oshiriladi.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish bu nogironlarga hayot faoliyati cheklovlarini yengib o'tishini, o'rnini to'ldirilishi uchun va boshqa fuqarolar bilan jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni yaratishga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy tadbirlar va ijtimoiy himoya tadbirlarining davlat tomonidan kafolatlangan tizimidir.

Davlat nogironlarga rehabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirilishini, texnik vositalar va xizmatlar berilishini, mablag'lar hisobiga nogironlarga beriladigan rehabilitatsion chora-tadbirlarning ro'yxatida keltirilgan rehabilitatsion texnik vositalar va xizmatlar berilishini kafolatlaydi.

Davlat nogironlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlab tegishli dasturlarda ularning ehtiyojlarini hisobga olish, salomatligini saqlash, mehnat qilish, bilim olish va kasb o'rganish, uy-joyli bo'lish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ro'yobga chiqarishda to'siqlarni bartaraf etish maqsadida qonunlarda ko'zda tutilgan shakllarda ularga ijtimoiy yordam berish yo'li bilan ularning xos kamol topishlari, ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib beradi.

Nogironlarga yordam ko'rsatish maqsadida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish jamg'armalari tashkil etilib, ulardan soliq

olinmaydi. Bolalikdan nogiron bo'lganlarning hamda boshqa I va II guruh nogironlarining uy-joy sharoitini yaxshilash chog'ida uylar ularning ish joylariga hamda davolash-profilaktika muassasalariga va transport yo'llariga yaqin bo'lishi zarurligini hisobga olgan holda beriladi.

Nogironlar yoki a'zolaridan biri nogiron bo'lgan oilalar yashayotgan turar-joy binolari, shuningdek, nogironlar uchun qurilayotgan uy-joylar nogironlar salomatligini tiklashning yakka tarzdagi dasturiga muvofiq maxsus vositalar va moslamalar bilan jihozlanishi lozim. Mazkur turar-joy binolarini uy-joy fondining egasi bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar jihozlaydi.

Davlat nogironlarni tibbiy, kasb va ijtimoiy jihatdan tiklash tizimini tashkil etadi va bu tizim qaror topishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi. Mazkur tizim organizmning izdan chiqqan yoki yo'qolgan qobiliyatlarini, o'ziga-o'zi xizmat qilish qobiliyatini, kasb faoliyatining xilma-xil turlaridagi qobiliyatini, shuningdek, nogironlarga to'laqonli turmush tarzini davom ettirish imkonini beradigan va ularning huquqlari hamda mavjud imkoniyatlarini ishga solishni ta'minlaydigan qobiliyatlarini qayta tiklashga hamda ularning o'rnini qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Respublika idoralari va mahalliy idoralar nogironlarning salomatligini tiklashga qaratilgan yordamga bo'lgan ehtiyojlarini va mahalliy sharoitlarni hisobga olib, nogironlarning salomatligini tiklash tarmoqlarini, shu jumladan, ilmiy-ishlab chiqarish markazlarini, ambulatoriyalar hamda doimiy davolash-profilaktika muassasalarida tiklash bo'limlarini, maxsus o'quv-tarbiya muassasalarini, ixtisoslashtirilgan sanatoriy-kurort muassasalarini, nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatadigan korxonalar va muassasalarni barpo etadi. Davlat nogironlarning ilm olishi va kasb tayyorgarligi uchun zarur shart-sharoit yaratishga kafolat beradi. Xalq ta'limi idoralari sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot idoralari bilan birgalikda nogiron bolalarning maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiyasini, nogironlarning kasb tayyorgarligini, nogironlarni tiklashning yakka tartibdagi rejasiga muvofiq ular umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim olishini ta'minlashga majbur.

Salomatligi tufayli umumiy yo'sindagi maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnay olmaydigan nogiron bolalarni tarbiyalash hamda salomatligini tiklash uchun eng qulay imkoniyatlarni yaratish maqsadida korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarni jalb etilgan holda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari, shu jumladan, internat uylari tashkil etiladi.

Nogironlarga umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim berish barcha o'quv yurtlarida, zarur bo'lgan hollarda esa maxsus bilim yurtlarida amalga oshiriladi. Doimiy ishlaydigan davolash profilaktika yoki salomatlikni tiklash muassasalarida davolanayotgan nogiron bolalar uchun ham o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Nogiron bolalarga umumiy yoki maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida va o'quv yurtlarida tarbiya va ta'lim berish imkoni bo'lmagan taqdirda, ota-onalarining istaklari hisobga olinib, bunday bolalarga uyida tarbiya va ta'lim beriladi. Bunda ota-onalardan biriga yoki ularning o'rnini bosuvchi kishiga belgilangan tartib va shartlar asosida moddiy ta'minot va imtiyozlar beriladi.

Nogiron bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollikni, mehnatga qiziqishni tarbiyalash, ularni fan, texnika, san'at va sportga jalb etish maqsadida xalq ta'limi idoralari, boshqa davlat idoralari nogiron bolalarning maktabdan tashqari tarbiyadan bahramand bo'lishlarini ta'minlashga, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga majbur.

Doimiy ishlaydigan muassasalarda yashaydigan nogiron bolalarga ana shu muassasalar ijtimoiy-maishiy hamda mehnat ko'nikmalarini hosil qilish bilan uzviy bog'langan holda tarbiya va ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi.

Nogironlarni ish bilan ta'minlash maqsadida davlat idoralari nogironlarning kasaba uyushmalari va jamoat birlashmalari ishtirokida korxonalarda, birlashmalar, muassasalarda va tashkilotlarda ishlovchilar sonining kamida 3 foizi miqdorida nogironlar uchun ish joylarini band qilib qo'yish normalarini belgilaydi.

Nogironlar uchun ish joylarini band qilib qo'yishni ta'minlamagan yoki ularni ishga joylashtirishdan bo'yin tovlagan korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlar davlat

hokimiyati mahalliy idoralariga nogironlarni ishga joylashtirish va ularga moddiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash uchun pul to'laydi.

Nogironlarning mehnatidan foydalanish uchun nogironlarning ehtiyojlarini va mahalliy xususiyatlarni hisobga olib, maxsus korxonalar, sexlar va uchastkalar barpo etiladi. Ko'zi ojiz nogironlar sharoiti o'zlarining imkoniyatlariga mos keladigan ishlab chiqarishlarda qatnashishda ustunlik huquqiga ega.

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, korxonalar va birlashmalar uyda ishlovchi nogironlarga, shuningdek, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo'lgan nogironlarga mazkur faoliyat uchun odam turmaydigan bino yoki xonalar ajratib berish, xomashyo sotib olish va mahsulotni sotishda zarur yordam beradi. Shuningdek, korxonalarda, birlashmalarda, muassasalarda va tashkilotlarda ishlayotgan nogironlarga tiklashning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq ravishda zarur mehnat sharoiti yaratiladi.

Mehnat sharoiti, shu jumladan, mehnatga haq to'lash, ish vaqti tartibi va dam olish vaqti, jamoa yoki yakka tartibdagi mehnat shartnomasida belgilab qo'yiladigan yillik va qo'shimcha ta'tillarning muddati amaldagi me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilganidan kam bo'lmasligi va boshqa xodimlarga nisbatan nogironlarning ahvolini yomonlashtirmasligi yoki ularning huquqlarini cheklamasligi kerak. Nogironlar mehnati qo'llaniladigan korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlar imtiyozli asoslarda soliq to'lash, moliyalashtirish hamda moddiy-texnika bilan ta'minlanish huquqidan foydalanadi.

Nogironlarga ijtimoiy yordam pul to'lovlari (pensiya, nafaqalar, bir yo'la beriladigan to'lovlar) shaklida, texnika vositalari hamda boshqa vositalar, shu jumladan, avtomobillar, o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya buyumlari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytirgich apparatlar va signalizatorlar bilan ta'minlash shaklida, shuningdek, tibbiy, ijtimoiy va kasb jihatidan tiklash hamda maishiy xizmat, transport xizmati ko'rsatish yo'li bilan beriladi.

Nogironlarni pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash tartibi pensiya va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunlarda, nogironlarga

bepul maxsus tibbiy yordam ko'rsatish tartibi sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunlarda belgilab qo'yiladi. Nogironlarni dori-darmonlar bilan ta'minlash, ularga texnik vositalar va o'zga vositalarni berish, shuningdek, maishiy xizmat va transport xizmati ko'rsatish bepul yoki tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan tartibda yengil shartlar asosida amalga oshiriladi.

Nogironga texnika vositasi yoki o'zga vosita salomatlikni tiklashning bepul yoki imtiyozli shartlar bilan beriladi. Boshqalarning parvarishiga va yordamiga muhtoj bo'lgan nogironlarga ijtimoiy yordam idoralari uyga borib yoki doimiy ishlaydigan muassasalarda tibbiy yoki maishiy xizmat ko'rsatadi. Davlat boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan nogironlarga ijtimoiy yordam beruvchi doimiy muassasalar tarmog'ini rivojlantirishga ko'maklashadi. Agar ishchi yoki xizmatchi korxona, birlashma, muassasa, tashkilotning aybi bilan nogiron bo'lib qolgan hamda boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lsa, shu korxona, birlashma, muassasa, tashkilot sog'liqni saqlash organlari va tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarning xulosasiga muvofiq mehnatga yaroqsiz bo'lib qolgan davrda bemorni parvarishlash uchun o'z hisobidan uyda qarab turadigan bir kishini yollashi shart va nogironga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini qoplaydi.

Nogironlarning internat uylarda yoki boshqa doimiy ishlaydigan ijtimoiy yordam muassasalarida bo'lish sharoiti nogironlar o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyatni ta'minlashi hamda shaxsning ehtiyojlari mumkin qadar to'la-to'kis qanoatlantirilishiga ko'maklashishi lozim.

Nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, shu jumladan, ularni oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash, ularga kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish nogironlarning kasaba uyushmalari hamda jamoat birlashmalari, ijtimoiy yordam muassasalari ishtirokida belgilanadigan yengil shartlar asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, ularga ijtimoiy yordam davlat budjeti va mahalliy budjetlar, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish jamg'armalari mablag'lari, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va fuqarolarning ixtiyoriy badallari hisobidan beriladi.

Nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni pul bilan ta'minlovchi korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarga tegishli qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda va shartlarda soliq solishda yengilliklar beriladi.

11.5. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi

Ma'lumki, kam daromadli oilalarning moddiy farovonligini oshirish, ularning munosib turmush kechirishi uchun aholining bu toifasiga davlat tomonidan moddiy yordam tayinlanadi. Bu moddiy yordam va uning miqdori fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari — qo'rg'on, qishloq, ovul va shahar mahallalari fuqarolari yig'inlari, yig'inni o'tkazish imkoni bo'lmaganda ko'chalar, turar joylar, qishloq, ovul mahallalari fuqarolari vakillarining yig'ilishi yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tomonidan tayinlanadi va belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tarkibi fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) tomonidan fuqarolar yig'ini hududida istiqomat qiluvchi eng obro'-e'tiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan saylanadi. Ushbu Komissiyaga fuqarolar yig'inining raisi boshchilik qiladi. Komissiya a'zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig'ini raisi esa uning butun vakolati davriga saylanadi. Mazkur komissiya a'zolarining tarkibi kamida 20 kishi, bunda komissiya tarkibi, raisdan tashqari, har yili 50 foizga yangilanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kam ta'minlangan oilalarni aniqlashda va ularga moddiy yordam tayinlashda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilishlari kerak:

- ijtimoiy adolatga so'zsiz qat'iy rioya qilish;
- ko'rsatilayotgan moddiy yordamning manzilli bo'lishini, haqiqatan muhtoj oilalarga berilishini ta'minlash;
- oilalar va fuqarolar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish choralariga boqimandalarcha yondashishga yo'l qo'ymaslik;

– oila aʼzolarining, ayniqsa bolalarning moddiy farovonligini oshirishda oila masʼuliyatini oshirish, har tomonlama jismoniy va maʼnaviy rivojlanish, bilim va kasb-hunar darajasini oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish.

Har oylik moddiy yordam oilaga 3 (uch) oy muddatga tayinlanadi va toʻlanadi. Ushbu muddat tugagach, agar oilada moddiy ahvol yaxshilanmagan boʻlsa, yordam yangi muddatga tayinlanishi mumkin.

Quyidagilar oilalarga har oylik moddiy yordam toʻlashni mablagʻ bilan taʼminlash manbalari hisoblanadi:

- respublika budjeti mablagʻlari;
- mahalliy (viloyat, shahar va tumanlar) budget mablagʻlari;
- budjetdan tashqari turli manbalar (jamoat va xayriya jamgʻarmalari, korxona va xoʻjaliklarning mablagʻlari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar). Mazkur mablagʻlar qoʻrgʻon, qishloq, ovul yoki mahalla fuqarolari oʻzini-oʻzi boshqarish organlarining jamgʻarma bankining tegishli muassasalaridagi maxsus hisoblariga oʻtkaziladi va olib qoʻyilmaydi. Kam taʼminlangan oilaga beriladigan moddiy yordamdan soliq olinmaydi.

Moddiy yordam fuqarolarning doimiy yashash joyidagi oʻzini-oʻzi boshqarish organlariga yoki qoʻrgʻon, qishloq, ovul mahallasiga yozma ravishda ariza bilan yordam soʻrab murojaat qilgan oilalarga, ayrim hollarda esa fuqarolar yigʻini raisi (oqsoqoli)ning tavsiyasiga binoan tayinlanadi.

Obyektiv sabablarga koʻra, oilaning birinchi navbatdagi ehtiyojlarini taʼminlay olmaydigan kam daromadli oilalar va yolgʻiz fuqarolar (balogʻatga yetmagan bolalari boʻlgan koʻp bolali oilalar; boquvchisi nogiron yoki mehnat qobiliyatini qisman yoʻqotgan surunkali kasal oilalar; ishsizlarning oilalari; yolgʻiz pensionerlar va boshqa oʻta muhtoj oilalar) har oylik moddiy yordam olish huquqiga ega.

Arizachining moddiy yordamga muhtojlik darajasini va unga beriladigan oylik moddiy yordamning miqdorini belgilash uchun fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari huzurida maxsus komissiyalar tuziladi, uning tarkibiga ushbu organlarning maslahatchilari, kotibi, shuningdek, zarurat boʻlganda tuman

(shahar) soliq hamda moliya organlarining, mehnat, ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limlarining vakillari kiradi.

Maxsus komissiya ariza tushgan kundan boshlab ikki hafta muddatda yordam so'ragan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshiradi.

Tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uni komissiyaning barcha a'zolari imzolaydi. Dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- tekshirilayotgan oilaning tarkibi, unda birga yashovchilarning hammasi, qarindoshligi bo'lgan va birga umumiy ro'zg'or yurituvchilar hisobga olinadi;

- oilaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va mehnat bo'limida ro'yxatga olinmagan mehnatga qobiliyatli yoshdagi a'zolari, bola ikki yoshga to'lgunga qadar unga tomorqa uchastkasi maydoni va undan daromad olish imkoniyatlari;

- oila mol-mulkining qiymati (dala hovli, avtomobil, mototsikl va zeb-ziynatlarning mavjudligi);

- oilaning muhtojlik darajasi haqidagi komissiya xulosasi va har oyda beriladigan moddiy yordamning tavsiya qilinayotgan miqdori haqida komissiya xulosasi.

Maxsus komissiya oilaga moddiy yordam tayinlash haqidagi arizani oilada moddiy ta'minotning yetarliligi, anchagina mol-mulk jamg'armasi mavjudligi, shuningdek, mehnat faoliyatidan bosh tortish hollari aniqlangan taqdirda rad etish huquqiga ega.

Ariza bergan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshirish natijalari va maxsus komissiya xulosasi bo'yicha yordamga muhtoj oilalar ro'yxati tuziladi hamda yilning har choragida bir marta qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolarining yig'ini (yig'ilishi) yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya muhokamasiga kiritiladi.

Moddiy yordam tayinlash va to'lash uchun ro'yxatga kiritiladigan oilalar soni, shuningdek, har bir muayyan oila uchun har oylik to'lovlar miqdori fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan mustaqil ravishda, shu maqsadlar uchun

ularning hisobida mavjud bo'lgan mablag'lardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Har oylik moddiy yordamning miqdori eng kam ish haqining o'sha vaqtda amalda bo'lgan 1,5 dan 3 (uch) baravarigacha miqdorida belgilanishi kerak.

Oilaning muhtojlik darajasini aniqlash bo'yicha maxsus komissiya tomonidan belgilangan har oylik moddiy yordam miqdori fuqarolarning umumiy yig'ini (yig'ilishi)da yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan Komissiya tomonidan tasdiqlanadi va faqat shundan keyingina to'lanadi.

Fuqarolar yig'ini yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya kam ta'minlangan oilaga berilgan moddiy yordam summasining bir qismini mazkur oilaning uy-joy kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qarzlarni qoplash uchun o'tkazish yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin.

Oilaga moddiy yordam tayinlash haqida qaror qabul qilishda arizachining fuqarolar yig'inida (yig'ilishida) yoki komissiya yig'ilishida qatnashishi shart. Arizachining yig'inda (yig'ilishda) yoki komissiya yig'ilishida qatnashishiga imkon bermaydigan kasallik, boshqa uzrli sabablar bo'lganda yig'inda (yig'ilishda) yoki komissiya yig'ilishida oilaning voyaga yetgan a'zolaridan biri uning vakolatli vakili bo'lib qatnashishi shart.

Fuqarolar yig'ini (yig'ilishi)ga komissiyaga uning majlisiga arizachi ishlaydigan korxona yoki muassasa rahbarlarini, tuman soliq, moliya organlari, mehnat, ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman bo'limlari va boshqa idoralarning vakillarini taklif qilish tavsiya etiladi. Oilaga moddiy yordam tayinlash haqidagi qaror uning uchun fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) da yoki komissiya yig'ilishida qatnashganlarning ko'pchilik qismi ovoz bergan taqdirda haqiqiy hisoblanadi. Shuni aytish joizki, qaror ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Oilaga har oylik moddiy yordam tayinlash haqidagi qaror yig'in (yig'ilish) yoki komissiya yig'ilishi bayoni tarzida

rasmiylashtiriladi, bayonni rais (oqsoqol) va kotib imzolaydi hamda u besh kun muddatda arizachiga ma'lum qilinadi.

Moddiy yordam tayinlash rad etilgan taqdirda yig'ilish bayonida uning asoslangan sabablari qayd etiladi va bu haqda fuqarolar yig'ini (yig'ilish)da yoki komissiya yig'ilishida arizachiga ma'lum qilinadi.

Moddiy yordam oladigan oilalar hisobi va har oylik to'lovlar miqdori qo'rg'on, qishloq, ovul yoki mahalla yig'ini raisi (oqsoqoli) ning kotibi tomonidan maxsus daftarda qayd etib boriladi.

Kotib fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) yoki komissiya bayoni asosida har oyning birinchi kunigacha qo'rg'on, qishloq, ovul yoki mahalla bo'yicha oilalarga moddiy yordam to'lash vedomostini tuzadi va xalq bankining tegishli bo'limiga taqdim etadi.

Kam ta'minlangan oilalarga har oylik moddiy yordamni to'lash vedomosti qat'iy hisobda turadigan blank hisoblanadi va nusxa ko'chirish qog'ozi vositasida ikki nusxada tuziladi. Birinchi nusxa kotib tomonidan xalq bankining tegishli bo'limiga topshiriladi, ikkinchisi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida pul hujjatlari qatorida alohida yig'ma jildida saqlanadi.

Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni mablag' bilan ta'minlash mahalliy moliya organlari tomonidan, to'lov oyining birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi va oyning 15-kunida yakunlanadi.

Arizachi uzoq (bir oydan ko'proq) vaqt bo'lmagan yoki vafot etgan hollarda moddiy yordam oilaning balog'atga yetgan boshqa a'zosiga to'lanishi mumkin. Bunda yordamni olish uchun mazkur holatlar sodir bo'lgan kundan boshlab bir oydan kechikmay murojaat qilingan bo'lishi kerak.

Oilaga moddiy yordam to'lash quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- moddiy yordam to'lash muddati tugaganda;
- yordam ko'rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o'zgarganda;
- doimiy yashash joyi o'zgarganda.

Kam ta'minlangan oilalarga har oylik moddiy yordam to'loviga ajratilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan foydalanilmagan mablag'lar yil tugagach olib qo'yilmaydi va ular fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) yoki komissiya qaroriga binoan aholi yashaydigan joylarni obodonlashtirishga, gazlashtirishga, suv

bilan ta'minlashga, shuningdek, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo'lgan, tug'ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha (umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa ota-onalardan birining shaxsiy arizasi asosida 6 oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi, ushbu muddat tugagach arizachi yangi muddatga nafaqa to'lashni davom ettirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Nafaqa har oyda to'lanadi.

Oilaga nafaqa:

– bir bolali oilalar uchun – eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida:

– ikki bolali oilalar uchun – 100 foizi miqdorida;

– uch bolali oilalar uchun – 140 foizi miqdorida;

– to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun – 175 foizi miqdorida belgilanadi.

Agar belgilangan tartibda nafaqa belgilangan davr mobaynida eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgarsa nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgargan oydan boshlab tegishli ravishda ko'payadi.

Quyidagi voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa ega:

– nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;

– ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanishadigan oilalar;

– bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar:

– ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, mehnat organida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar.

Shaharcha, qishloq, ovul yoki mahallaning fuqarolar yig'inlari yoki komissiyalar nafaqalarni tayinlashda va to'lashda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilishlari kerak:

– ijtimoiy adolat qoidalariga qat'iy amal qilish, oshkoralikni ta'minlash;

